

E-ISSN: 2181- 3914

# XXI ASR TILSHUNOSLIGI:

tahlil va talqin

*Avgust, 2025*

*3-son, 2-jild*



[WWW.SCIENCEJOURNALS.COM](http://WWW.SCIENCEJOURNALS.COM)

### TAHRIRIYAT HAY'ATI

#### **Bosh muharrir**

Murodova Nigora Qulliyevna  
*filologiya fanlari doktori, professor*

#### **Bosh muharrir o‘rinbosari**

Yusubova Rano Norboyevna  
*filologiya fanlari doktori, professor*

#### **Editor – in – chief**

Murodova Nigora Kulliyevna  
*doctor of philological sciences, professor*

#### **Deputy Editor-in-Chief**

Yusubova Rano Norboyevna  
*doctor of philological sciences, professor*

### TAHRIRIYAT KENGASHI

**Kalonov Muhiddin Bahridinovich**

*Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

**Xujjiyev Sodiq Oltiyevich**

*Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

**Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna**

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

### TAHRIRIYAT A‘ZOLARI

**Aynur Öz Özcan** - filologiya fanlari doktori,  
professor (Turkiya)

**Nadir Mammadli**- filologiya fanlari doktori,  
professor (Ozarbayjon)

**Ra‘no Sayfullayeva**- filologiya fanlari doktori,  
professor (O‘zbekiston)

**Azamat Pardayev** - filologiya fanlari doktori,  
professor (O‘zbekiston)

**Baxtiyor Mengliyev** - filologiya fanlari doktori,  
professor (O‘zbekiston)

**Mehri Abuzalova** - filologiya fanlari doktori,  
professor (O‘zbekiston)

**Qo‘ysin To‘xtayeva** - filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent (O‘zbekiston)

**O‘rolboy Oripov** - filologiya fanlari nomzodi  
(O‘zbekiston)

**Manzura Ernazarova** - filologiya fanlari doktori,  
professor (O‘zbekiston)

**Gulchehra Boltayeva** - filologiya fanlari doktori,  
dotsent (O‘zbekiston)

**Ra‘no Davlatova** – filologiya fanlari doktori, dotsent  
(O‘zbekiston)

**Botir Zaripov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
(O‘zbekiston)

**Alijon Allaberdiev** – filologiya fanlari doktori,  
dotsent (O‘zbekiston)

**Fazliddin Najmiddinov** - filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent (O‘zbekiston)

**Xolbib Qurbonova**- pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent (O‘zbekiston)

**Feruza Jumayeva**- pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent (O‘zbekiston)

**Ra‘no Sharopova**- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (O‘zbekiston)

**Gulnoza Ernazarova** - filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Gulsanam Norova** - filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Nasiba Yarashova** - filologiya fanlari doktori,  
dotsent (O‘zbekiston)

**Navro‘z Rahmonov**- filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Omongul Xolibekova**- filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Dildora Agzamova** - filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Erkin Musayev** – Katta o‘qituvchi (O‘zbekiston)

**Bobir Maxammadov** – filologiya fanlar bo‘yicha  
falsafa doktori (O‘zbekiston)

#### **Tahririyat bilan bog‘lanish:**

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy

Web-site: <http://sciencejournals.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

#### **Editorial staff of the journal:**

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://sciencejournals.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

## MUNDARIJA / CONTENT

<b>Гейдарова Хадиджа</b> .....	<b>5</b>
Fi-surati-shabi-qatat: Поэтическое толкование хуруфийского антропоморфизма у Насими	
<b>Murodova Nigora</b> .....	<b>13</b>
Izoglossa va uning turlari. Lingvistik xaritalarda izoglossalarning berilishi	
<b>Yusubova Ra’no</b> .....	<b>22</b>
Lisoniy shaxs lingvistik tadqiqot obyekti sifatida	
<b>Yuldashev Farrux</b> .....	<b>30</b>
Maktabgacha yoshdagi bolalar ma’naviyatini shakllantirishda vizualizatsiyaning ahamiyati	
<b>To‘xtayeva Qo‘ysin</b> .....	<b>34</b>
Magistratura bosqichi talabalarining ko‘p madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlari	
<b>Yuldashev Jo‘rabek</b> .....	<b>44</b>
Usmon Nosir she’rlarida lisoniy birliklararo sinonimlar lingvopoetikasi	
<b>Supiyev Shavkat</b> .....	<b>53</b>
The role of multilingual platforms in foreign language learning	
<b>Tolibova Muhabbat</b> .....	<b>57</b>
O‘xshatishlarda madaniy kod masalasi	
<b>Rahmatova Yulduz</b> .....	<b>65</b>
Badiiy uslubda frazemalarning milliy-madaniy xoslanishi	
<b>Karimova Latofat</b> .....	<b>70</b>
O‘zbek tilida “tarbiya” semantik maydoni atov birliklarining shakllanish manbalari va tarixiy-semantik tahlili	
<b>Raxmonov Navro‘z</b> .....	<b>75</b>
O‘zbek shevalarida affiksatsiya usulida so‘z yasalishi	
<b>Qurbonova Yulduz, Jo‘rayeva Sevinch</b> .....	<b>79</b>
Pragmatika va subyektiv munosabatlar: dialog kontekstida	

<b>Djabborov Dilrux</b> .....	<b>84</b>
Pedagogik terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar	
<b>O‘ralova Sabina</b> .....	<b>90</b>
Ingliz va o‘zbek tillaridagi “ma’naviyat” tushunchasi lakunalarini to‘ldirish va tarjima jarayonida mazmuni qayta yaratish usullari	
<b>Nosirova Iroda</b> .....	<b>98</b>
O‘zbek tilidagi ma’naviyat va ingliz tilidagi spirituality umumiy ma’noli frazeologik birliklar	
<b>Mardanov Uktamjon</b> .....	<b>103</b>
Oydin Hojiyeva she’rlarida qo‘llangan zoologiya terminlari asosida hosil qilingan (zoomorf) metaforalar	
<b>Niyozova Hulkar</b> .....	<b>107</b>
Zebo Mirzo she’riyatida o‘xshatishlarning lingvopoetik tahlili	



## Fi-surati-shabi-qatat: Поэтическое толкование хуруфийского антропоморфизма у Насими



Гейдарова Хадиджа,  
Институт языкознания имени Насими  
Национальной академии наук Азербайджана

**Аннотация.** В статье рассматривается антропоморфная модель человека в поэтическом наследии Имадеддина Насими в контексте философии хуруфизма. Анализируются такие лексемы, как сурати-Рахман, мазхари-Хакъ, фи-сурати-шаби-катат, камят, вачх и другие, выражающие идею о том, что человек является проявлением божественного. Подчёркивается, что поэт использует спорные хадисы, коранические мотивы и символику арабско-персидского алфавита для построения антропо-космологической концепции, в которой лицо, рост и образ человека осмысляются как отражение имён и атрибутов Аллаха. Насими предстает не только как выдающийся поэт, но и как представитель эзотерического исламского мышления, интерпретирующий человека как теофанию, «лик Хакъа».

**Ключевые слова:** Насими, хуруфизм, антропоморфизм, мазхар, сура, лик, хадис, эзотерика, Ислам, арабский алфавит.

**Abstract.** This article examines the anthropomorphic conception of the human being in the poetry of Imadaddin Nasimi within the framework of Hurufi philosophy. Lexical elements such as surati-Rahman, mazhari-Haqq, fi-surati-shabi-qatat, qamat, and wajh are analyzed as expressions of the idea that man is a manifestation of the Divine. The poet's references to controversial hadiths, Quranic motifs, and the symbolic meanings of the Arabic-Persian alphabet are explored as part of a theological and cosmological model in which the human face, form, and image are seen as reflections of the names and attributes of God. Nasimi is thus presented not only as a brilliant poet but also as a representative of esoteric Islamic thought, interpreting man as a theophany — the "face of Haqq."

**Keywords:** Nasimi, Hurufism, anthropomorphism, mazhar, sura, face, hadith, esotericism, Islam, Arabic alphabet.

**Введение.** Азербайджанская суфийская поэзия средневековья отличается глубоким поэтическим дискурсом, в котором отношения между человеком и Богом раскрываются не только в мистическом плане, но и в онтологическом и антропологическом контекстах. Одним из самых ярких представителей этой поэзии

является Имадеддин Насими, чьё творчество отражает философские основы хурофитского учения, особенно идею сотворения человека по божественному образу. В хурофизме понятия буквы и образа воспринимаются не только как метафоры, но и как теологическая и космологическая реальность. С этой точки зрения становится очевидным, что такие выражения, как *сурати-Рахман*, *мазхари-Хакъ*, *шабю-амрад*, *фи-сурати-шаби-катат*, *камет*, *кадд*, *вачх*, *сурати-Йездан*, встречающиеся в поэзии Насими, представляют собой не просто поэтические образы, а семантические опоры определённой космогонической и антропоморфной концепции.

Цель данной статьи — исследовать идейно-содержательные источники антропоморфизма в поэзии Насими, его связь с хурофитской доктриной и отношение к классической исламской теологии. В работе анализируется, каким образом поэт использует конкретные лексемы, а также коранические и хадисные материалы, и в какой степени эта употреба обусловлена хурофитским мышлением. Представление Бога в человеческом облике и человека как носителя божественных имён — «мазхар» — отражает центральную идею хурофизма о единстве Человека, Вселенной и Творца, получающую у Насими философское выражение посредством поэтического языка.

### **Лексемы, отражающие антропоморфизм**

Анализ лексических групп, таких как *шаб*, *шабю-амрад*, *шаби-катат*, *хури-Лятиф*, *сурати-Рахман*, *сурати-Хакъ*, *сурати-Аллах*, *сурати-Йездан*, *сурати-зиба*, *мазхар*, *мазхари-Зату-Сыфат*, *мазхари-Хакъ-тааля*, *мазхари-Илах*, *мазхари-Аллах*, *мазхари-Хакъ*, *мазхари-Халляк*, *мазхари-Зати-Кадим*, *таджалли*, *камет*, *кадд* и др., позволяет установить, что в религиозно-философских и хурофитских взглядах Насими присутствует отчётливая антропоморфная концепция. На первый взгляд несвязанные между собой термины оказываются укоренёнными в одном идеологическом источнике — хадисе пророка Мухаммеда, считающемся недостоверным как в шиитских, так и суннитских источниках.

Именно из этого хадиса были заимствованы такие арабские выражения, как *шаб* (юноша), *шабю-амрад* (молодой парень с только что появившимися усами, но без бороды), *шаби-катат* (кудрявый юноша). В одном из бейтов Насими задаёт риторический вопрос, побуждая читателя к размышлению:

Mustafa Nəqqi bu sifətdə görüb  
Şabü-əmrəd dediyi şab nədir? [4, с. 245].

(Мустафа увидел Бога в этом облике и использовал выражение «шабю-амрад». Что означает слово «шаб» в этом контексте?)

Мустафа — это имя, которое народ дал пророку Мухаммеду (с.а.с); оно означает «избранный». В данном бейте Насими отсылается к хадису о ночи Мирадж, в котором говорится о видении Пророка Аллаха. Этот хадис можно найти в труде Фазлуллаха Эстрабади «Джавиданнаме», и, несомненно, Насими опирался именно на него при создании данного бейта: «Я увидел своего Господа в облике кудрявого, безбородого юноши» (رَأَيْتُ رَبِّي فِي صُورَةِ أَمْرَدٍ قَطَطٍ) [1, с. 42, 45].

В переводе «Дурри-йетим» — священной книги хурофитов «Джавиданнаме» — говорится следующее: «Пророк, мир ему, сказал: я увидел Господа в

прекраснейшем облике; Он положил Свою руку между моими плечами, так что прохлада его прикосновения дошла до моего сердца. По смыслу хадиса, Всевышний показал Себя в облике Адама и эмреда (юноши) для того, чтобы было ясно: Адам, мир ему, является аршем Господа» [1, с. 40]

Следует признать, что подобные утверждения выглядят весьма смело с точки зрения ортодоксального ислама. Хуруфиты, в том числе один из девяти халифов Фазлуллаха — Имадеддин Насими, черпали глубокое вдохновение из данного хадиса и широко воспевали его в своих произведениях. Искренне преданный хуруфитской вере, Насими сделал всё возможное для распространения идеи о том, что человек является мазхаром (проявлением) Бога, среди тюркских народов.

Çün əzəldən qüdrət əli biqələt,  
 Üzünə nəqş eylədi sivü dü xət.  
 İsmi-ə'zəm cameyi-zati-sifət,  
 Vəllidir fi surəti-şabi-qətət [4, с. 279].

Всемогущая и совершенная десница Аллаха начертала на Его лице 32 линии. Сущность — то есть образ Бога — является местом проявления Великого Имени (исми азам) и воплощается в облике кудрявого юноши. Поэт дословно заимствует эту идею из «Джавиданнаме». См.: [1, с. 42–43]

Фатих Услюзэр в своей работе «Хуруфиты» пишет: «Хуруфиты, опираясь на хадис Пророка Мухаммеда («В ночь мираджа я увидел Господа в образе эмред катат»), считают “эмред катат” образом Умм аль-Китаб. “Умми-линии” — это волосы, две брови и четыре ресницы, всего семь линий» [5, с. 138].

Gər Nəqi görmək dilərsən biqələt  
 Üştə gör, fi-surəti-şabi qətət.  
 Nəqdən oldu ümməti-Əhməd vəsət,  
 Vəchinin lövhündədir sivü dü xət [4, с. 279]

(Если ты желаешь узреть Истину без покров,  
 То взгляни — она в облике кудрявого юноши.

Община Ахмада (Мухаммеда) появилась от Истины,  
 На скрижали Его Лица начертаны тридцать две линии).

В этом бейте Насими выражает центральную идею хуруфийского учения — мысль о том, что Истина (Хакъ) проявляется в человеческом облике. В первой строке он обращается к тем, кто желает узреть Бога без покров (*бигалят*), и говорит, что нужно искать Его в образе кудрявого юноши (*фи-сурати-шаби-катат*). В третьей строке выражение «уммат-и Ахмад» (то есть община Мухаммеда) представлено как возникшая из Истины, что указывает на божественную основу пророческой миссии. В четвёртой строке «сиву ду хатт» означает 32 линии, что символизирует 32 буквы персидского алфавита и одновременно — 32 черты, начертанные на человеческом лице. «Лик» (вачх) здесь трактуется как скрижаль, на которой отражён сакральный текст (*Джавиданнаме*) — проявление божественной мудрости в облике человека.

Позицию Насими по поводу вышеуказанного спорного хадиса пророка Мухаммеда можно увидеть в следующем бейте:

Kaf – Ki urdu uədi-qüdrət, dedi bir huri-Lətif:

Gəlmədi sənciləyin, gəlməyə ta ruzi-şümar [4, с. 219]

(Каф — что вознёс десницу могущества, — сказал один Хури Лятиф:  
«Тебе подобного не явилось и не явится до самого Дня Счёта»).

В этом бейте буква «Каф» (ك) представлена как символ божественного начала — одна из сакральных букв арабского алфавита, имеющая особое значение в хурофийской космологии. В поэтике Насими буквы часто становятся живыми субстанциями, через которые раскрываются божественные атрибуты. Таким образом, здесь «Каф» не является именем Аллаха, а указывает на буквенный знак, в котором зримым образом проявляется божественная сила. Выражение «урду йади-кудрат» (вознёс десницу могущества) означает, что божественная сила (йади-кудрат) активизируется через сакральный знак — букву «Каф».

Далее говорится, что «один Хури Лятиф» (райская дева Лятиф) произносит слова, в которых признаёт уникальность и исключительность объекта речи. Здесь слово «Лятиф» — это не имя существа, а одно из 99 имён Аллаха, означающее «Тонкий», «Незримый», «Духовный». В хурофийской интерпретации Хури Лятиф символизирует само божественное проявление в тонкой форме, возможно — в человеческом облике. Фраза «Гельмяди санджилейин, гельмя та рузи-шюмар» означает: «Подобного тебе не приходило и не придёт до самого Дня Счёта», что подчёркивает исключительность того, кто является носителем божественного лика — возможно, речь идёт о совершенном человеке, камиль-и инсан, в котором отразился Лик Всевышнего.

В следующих бейтах Насими утверждает, что облик Адама подобен Хакью, Богу, и при этом использует арабское выражение: «*валлаху а'ляму биссаваб*» (وَاللَّهُ أَغْنَمُ بِالصَّوَابِ), что означает «наиболее верное знает лишь Аллах».

Surətin Həqdir, götür Həqdən niqab,  
Həq budur, vəllahu-ə'ləm-bissəvab [4, с. 263]

Surətin Allahu rəhmanür-rəhim,  
Hüsnünə cümlə məlaik, insü cin,  
Səcdə qıldı, qeyri şeytanir-rəsim [4, с. 289]

Насими утверждает, что человеческий облик — это сам Хакь (Истина, Бог). Он призывает снять "покров" (никаб), то есть избавиться от иллюзий и увидеть Божественное в лице человека. Заканчивается бейт фразой «*Валлаху а'ляму биссаваб*» — «Наиболее верное знает только Аллах», — подчёркивая сакральность и ответственность подобных утверждений. Здесь облик человека отождествляется с образом Аллаха Рахмана и Рахима (Милостивого, Милосердного). Его красоте поклонились все — ангелы, люди и джинны, за исключением «проклятого шайтана» (шайтанир-рəджим). Бейт перекликается с кораническим сюжетом о сотворении Адама и отказе Иблиса склониться перед ним, однако у Насими это служит доказательством божественности человеческой формы.

Sirri-tənzili-ilahi dilbərin vəchindədir,  
Sahibi-tə'vil edər kim, surəti-Allahdır [4, с. 142].

(Тайна божественного ниспослания — на лице возлюбленного,  
Тот, кто владеет та'вилем, скажет: это лик Аллаха).

В этом бейте Насими утверждает, что лицо возлюбленного (*dilbər*) — в хурофийском контексте это не просто человек, а носитель совершенного божественного облика — содержит в себе тайну божественного ниспослания (*sirri-ənzili-ilahi*), то есть суть Откровения (тэнзиль). Выражение «*sahibi-tə'vil*» (тот, кто владеет искусством аллегорического толкования) указывает на хурофита или гностического интерпретатора, который способен «распознать» в человеческом облике сам Лик Аллаха (*surəti-Allah*). Таким образом, Насими в очередной раз подчёркивает ключевую идею хурофизма: человек есть проявление Божественного, и лишь посвящённый способен увидеть это сквозь покровы внешнего.

Поэт обращается к Адаму, утверждая: «О ты — образ Аллаха-Рахмана, достойный поклонения. Единственным, кто отказался склониться перед тобой, был шайтан»:

Sənsən, ey surəti-Allah ilə Rəhman, məscud,  
Qılmayan səcdə sana, div ilə şeytan demişəm [4, с. 96].

(Ты — образ Аллаха и Милостивого (ар-Рахмана), достойный поклонения; Тому, кто отказался пасть ниц перед тобой, я дал имя "див" и "шайтан").

В этом бейте Имадеддин Насими утверждает ключевую идею хурофийской антропологии — человек, а особенно совершенный человек (инсан-и камиль), создан в образе Бога и, следовательно, достоин поклонения. Использование выражения «сурати-Аллах иля Рахман» указывает на слияние двух священных имен — Аллах (общее имя Бога) и Ар-Рахман (один из наиболее часто упоминаемых атрибутов в Коране, означающий «Милостивый»). Термин «мәсчуд» (достойный поклонения) здесь представляет не буквальное обожествление человека, а скорее поэтическую и метафизическую форму выражения идеи о том, что в человеке проявляется Божественное. Таким образом, поклонение — это не акт идолопоклонства, а признание в человеке божественной сути. Второй стих продолжает эту линию: тот, кто не признал этой истины и отказался «поклониться» (в символическом смысле) — уподобляется диву и шайтану. Это прямая отсылка к кораническому рассказу об отказе Иблиса поклониться Адаму (Коран, 2:34; 7:11-12), который в интерпретации Насими символизирует невежество, гордыню и отступление от истины. Назначение шайтана термином «див» — уродливого и гигантского персонажа из персидской мифологии — широко засвидетельствовано в средневековой азербайджанской литературе. Эта ассоциация прослеживается даже в некоторых переводах Корана, где слово «шайтан» передаётся как «див». Таким образом, Насими использует религиозный текст не для дословной передачи догм, а для поэтического выражения метафизической концепции: человек как зеркало Бога.

Mən bu mə'nidən aña surəti-Rəhman demişəm,  
Sənsən, ey surətullah, eylə Rəhman-i məscud [2, с. 495].

(В этом смысле я назвал его обликом Ар-Рахмана;

Ты — лик Аллаха, соделай Ар-Рахмана достойным поклонения).

Zahida, sən məni bəşər sanma, Adəmi surətində Rəhmanam [2, с. 495].

(О, захид, не считай меня простым человеком — в облике Адама я — Ар-Рахман).

В этих бейтах Насими в очередной раз открыто провозглашает основную идею хурофийской антропологии — человек является зримым воплощением Божественного. В первом бейте он называет образ человека сурой Ар-Рахмана (Милостивого), одного из главных имён Аллаха, указывая на то, что божественные атрибуты проявляются в человеческой форме.

Во втором бейте, обращаясь к аскету (захиду), Насими утверждает: «Не считай меня простым человеком, ибо я — Ар-Рахман в облике Адама», что выражает глубоко эзотерическое понимание коранического утверждения о том, что человек создан по образу Бога. Таким образом, Насими соединяет мистическое учение о воплощении божественных имён с поэтическим самовыражением и представляет совершенного человека (инсан-и камиль) как зеркало, в котором отражается лик Всевышнего.

Аналогичное значение несёт и другое лексическое словосочетание — сурати-зиба, которое обозначает «прекрасный лик»:

Ol qabü-qövseyne irən, ol surəti ziba görən,

Нәм surəti-ziba мәнәм, һәм surəti-yəzdaniyam [2, с. 99].

(Тот, кто достиг предела “кабу-кавсайн” и увидел тот прекрасный лик — Я и есть тот прекрасный лик, я и есть лик Йаздана).

Термин *мазхар* (араб. *مظهر*) означает «явление, проявление, проявленность». В хурофийской терминологии он используется для выражения идеи о том, что образ Адама создан на основе атрибутов Аллаха. Согласно хурофийской догматике, человек является *мазхаром* (проявлением) всех божественных имён, и в этом качестве он занимает центральное место в космологической и антропологической системе Насими.

Выражения вроде: *Нәq-tәala мәzhәri, İlahun мәzhәri, Мәzhәri-Allah, мәzhәri-Нәq, мәzhәri-Хәллаq, мәzhәri-Zati-qәdim, мәzhәri-Zatü Sifat, мәzhәri-Yәzdan* — представляют собой хурофийские термины, описывающие человека (в первую очередь Адама) как проявление Божественного. В этом контексте лицо (уз) и облик (сура) человека — это не просто физиогномика, а символическая карта, в которой отпечатлены все имена и атрибуты Бога.

Qul kәfa billaha dүşdü könlümüz

*Мәzhәri-Allaha dүşdü könlümüz* [3, с. 275]

В этом бейте Насими переформулирует известное кораническое выражение «Кяфа билляхи» («Достаточно нам Аллаха») в рамках хурофийской интерпретации. В первой строке утверждается, что сердце (кёнюль) достигло удовлетворения, признав Аллаха как единственного источника истины и поддержки.

Во второй строке термин «мазхари-Аллах» (проявление Аллаха) указывает на совершенного человека (инсан-и камиль), в облике которого проявляются имена и атрибуты Всевышнего. Таким образом, духовный поиск (кёнюль) завершился в лице того, в ком отражён Сам Бог.

Эта поэтическая формула соответствует хурофийскому представлению о человеке как зеркале Бога, и выражает центральную идею: путь к Аллаху проходит через распознавание Божественного в человеческом облике.

В поэтике Насими ещё одной лексической единицей, отражающей антропоморфизм, является слово камят (араб. قامة), означающее «рост» или «стан». В тандеме с другим синонимичным понятием — кадд (qədd) — поэт прибегает к гиперболе, охватывающей расстояние от земли до Рая и даже до Арша (Божественного Трона).

Nə rə'na sidrədir, ya Rəbb, boyun aləmdə, ey huri,  
Kim anın qəddi-balası yedi iqlimə sərverdər [4, с. 153].

(Какое прекрасное лотосовое дерево — это твой стан, о гурия!

Ведь его величие — предводитель семи климатов мира).

В этом бейте Насими вновь говорит об Аллахе в образе гурии и подчёркивает, что Его высокий стан (камят) символически господствует над семью климатами — аллюзия на традиционное представление о семичастной структуре вселенной в исламской космологии. Согласно хуруфийскому учению, поскольку Адам является теофанией (теджалли) Аллаха, строение вселенной отражается в теле человека. Эта идея поэтически выражается в следующем бейте, где планеты соотносятся с органами человеческого тела: Сатурн — с селезёнкой, Марс — с жёлчным пузырём, Юпитер — с кишечником, а знак Весов — с пупком.

### **Заключение**

Антропоморфная поэтика, характерная для творчества Имадеддина Насими, представляет собой не просто эстетическое средство, а один из фундаментальных столпов хуруфийской космо-теологической системы. Такие лексемы, как *сурати-Рахман*, *фи-сурати-шаби-катат*, *мазхари-Хакъ*, *мазхари-Йездан*, выражают не только идею сотворения человека по образу Бога, но и концепцию человека как божественного проявления (мазхара). Это отражает основную философскую идею хуруфизма — единство человека, Творца и мироздания — в поэтической форме.

В статье анализируется, как Насими использует аяты Корана и спорные хадисы для построения особой антропоморфной семантики, и как за лексическими единицами и образами раскрываются богословско-онтологические пласты. В итоге делается вывод, что для Насими человеческий облик — лицо, рост, голос, речь и прочие физические параметры — не просто творение природы, а сакральная доска, на которой запечатлены имена и атрибуты Бога. В основе поэтического антропоморфизма поэта лежит идея о том, что облик совершенного человека является зримым воплощением Божественного, а человеческая форма носит как космологический, так и метафизический смысл.

### Литература

1. Fazlullah Esterabadi (2012) Cavidan-Name Dürr-İ Yetim İsimli Tercümesi. Hazırlayan: Fatih Usluer. Yayınevi: Kəbalcı Yayınları, 541 səh.
2. İmadəddin Nəsimi, I cild, tərt.: C.Qəhrəmanov. 1973.
3. İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. I cild. Həmid Araslının tərtibatı ilə. Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004. 336 səh.
4. İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. II cild. Həmid Araslının tərtibatı ilə. Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004, 376 səh.

Usluer, Fatih. (2009). Hurufilik. ilk Elden Kaynaklarla Doğuşundan itibaren. Kəbalcı Yayınevi, İstanbul, 623 say.



## IZOGLOSSA VA UNING TURLARI. LINGVISTIK XARITALARDA IZOGLOSSALARNING BERILISHI



**Murodova Nigora**

*Navoiy davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada lingvistik xaritalarda izoglossalarning berilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Izoglossalar qarindosh va o'zga tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratilishi izohlangan. Izoglossalarning xaritalarda berilishi turli xil ko'rinishda bo'lishi xaritalar orqali ko'rsatib berilgan. Lisoniy hodisaning tabiatiga ko'ra izoglossa har xil: izofonema (fonetik), izomorfema (morfemik), Izoleksmalardan iborat bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlar izohlab berilgan. . Xaritalashtirilgan izoglossa areali haqiqiy lisoniy manzarani – lingvistik lanshaftni berishi haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Izoglossa ta'rifi, izofonema, izomorfema, izoleksema, genetik izoglossa, konvergent izoglossa, lingvistik lanshaft

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о представлении изоглосс на лингвистических картах. Объясняется, что изоглоссы делятся на две группы по их отношению к родственным и иностранным языкам. На картах показаны различные формы представления изоглосс на картах. По характеру лингвистического явления изоглоссы бывают разных типов: изофонемные (фонетические), изоморфемные (морфемные) и состоят из изолексем. Приводится информация о том, что картографируемая область изоглосс дает реальный лингвистический ландшафт.

**Ключевые слова:** Определение изоглоссы, изофонема, изоморфемы, изолексема, генетическая изогlossa, конвергентная изогlossa, лингвистический ландшафт.

**Abstract.** This article provides information about the representation of isoglosses on linguistic maps. It explains the classification of isoglosses into two groups based on their relation to cognate and non-cognate languages. The various ways in which isoglosses are presented on maps are demonstrated using examples. According to the nature of linguistic phenomena, isoglosses can take different forms, such as isophonemes (phonetic), isomorphemes (morphemic), and isolexemes. Information is provided about how the mapped area of an isogloss represents the actual linguistic landscape.

**Keywords:** Definition of isogloss, isophoneme, isomorpheme, isolexeme, genetic isogloss, convergent isogloss, linguistic landscape.

**Kirish.** Izoglossa – o'zaro o'xshash hodisalarning tarqalish nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi. Trubinskiy ta'kidlaganidek, izoglossa –hodisaning umumiy ma'noda keng tarqalgan hududini ko'rsatadi. Bunday izoglossa odatda ma'lum mikrotizmning (dialekt) elementi sifatida xaritalangan hodisa nima ekanligini, uning ahamiyati va undagi semantikasini hisobga olmaydi.

Izoglossalar qarindosh va o‘zga tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1) O‘zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylikka ega bo‘lgan tillarga aloqador bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tili bilan qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, turkman tillari aloqadagi izoglossalar misol bo‘la oladi. Ularni tahlil qilishda qiyosiy genetik tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

2) Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari orqali yuzaga keladi. Bunga o‘zbek-tojik tili munosabatidagi umumiy izoglossalar misol bo‘la oladi. Konvergensiya izoglossalari tipologik tahlil usullari bilan aniqlanadi. Ma’lumki, tillarning o‘zaro aloqa va munosabatda bo‘lishi har qanday til taraqqiyoti jarayonining asosiy xususiyatlaridan biridir. Xalqlarning o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lishi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalari tillarning o‘zaro hamkorligi va aralashuviga sababdir.

Dialektologiya sohasida ma’lum bir hududdagi sheva xususiyatlaridan 100-200 turdagi o‘ziga xosligi qayd etilsa, areal lingvistikada shu hodisalardan eng ahamiyatli ma’lum bir shevaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir nechta hodisani izoglossa mazmuni sifatida tanlaydi va shu hodisaning tarqalish arealini belgilaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** I. Cheymbers va P. Tradgillning yozishicha, “izoglossa” atamasi birinchi marta 1892-yilda latviyalik dialektolog J. Q. A. Bielenstein tomonidan ishlatilgan. Ularning ta’kidlashicha, ehtimol, bu atama haqiqatni ifodalash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa kerak, mintaqa bo‘ylab chizilgan chiziq ikkita hududni ko‘rsatishi kerak, bu yerda har bir tomon lingvistik qo‘llanishning qaysidir jihati bo‘yicha bir-biriga mos keladi, lekin bir-biridan farq qiladi va bir-biriga munosabatda bo‘ladi (I. Cheymbers va P. Tradgill, 1980; 103-b.). Izoglossa atamasining keng tarqalishiga italyan tilshunos olimi Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari sabab bo‘lgan.


R. Freudenbergning “Izoglossa” atamasiga bag‘ishlangan ishlarida keng ma’nodan bu atama bitta til hodisasi chegaralangan va o‘z muhitidan ajratilganda geografik jihatdan til hodisasini boshqalardan ajratib turuvchi chiziq sifatida tushunilgan. Turkologiyada “izoglossa” “maydon” tushunchasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Aslida ham izoglossa termini grek tilidan olingan bo‘lib, “isoglosse” isos – “tekislik, maydon” va glosse – “nutq, til” ma’nolaridagi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan.

Hozirga qadar dialektologiya sohasidagi ba’zi tadqiqotlarda izoglossalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Masalan: Xorazm viloyatining o‘g‘uz guruh shevalari mavjud bo‘lgan areallar bilan qo‘shni Turkmaniston hududining Toshhovuz viloyatidagi umumiyliklar mazkur areallardagi izoglossalarni tashkil etadi. Shuningdek, Tojikistonning Xo‘jand viloyatidagi ko‘pchilik shevalar O‘zbekistondagi shevalar bilan o‘zaro umumiy jihatlarga egaligi ham mazkur areallarining izoglossalarini belgilaydi. Yoki izoglossalar nafaqat chegaradosh hududlarda, balki ancha uzoq hududlarda ham uchrashi mumkinligi aytib o‘tilgan. Jumladan, O‘zbek shevalari o‘g‘uz guruhiga mansub dialektlarning umumiy izoglossalari faqat Xorazm viloyatidagina emas, balki Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlari areallarida mavjud bo‘lgan shevalarda, Samarqand viloyatining ba’zi hududlarida uchraydi. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonning Beruniy va To‘rtko‘l tuman markazlarida va ayrim qishloqlarida, hatto Qozog‘istonning Chimkent viloyati Sayram tumanining Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq

singari areallarida va Turkiston tumanining Iqon, Qarnoq qishloqlarida ham mavjud ekanligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Albatta, ba‘zi izoglossalarning turli hududlarga tarqalishining o‘ziga xos sabablari bor. Lingvistik hodisalarning areali o‘rganilganda ba‘zilari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, ayrimlari mos kelmasligi mumkin. Bu holda o‘xshash bo‘lmagan ba‘zi izoglossalar to‘plamini tashkil etgan areal aniqlanadi. Izoglossalar faqat qo‘shni geografik areallardagina mavjud bo‘lmaydi. Agar muayyan bir dialekt faqat o‘ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini “til orollari” deb qarash mumkin.

Tilshunoslikda “Til orollari” atamasini A.I.Domashhev o‘zining “Til oroli – tillarning tarqalish areallari sifatida va lingvistik tadqiqot obyekti” deb nomlangan ilmiy ishida qo‘llaydi. Bu atama zaminida muayyan til arealida boshqa til yoki shevalar amal qilayotgan lingvistik izoglossalar tushuniladi. Masalan: Afg‘onistonda mavjud o‘zbek tilini va shevalarini xuddi shu tipga oid deb hisoblash mumkin. Sababi u yerda amalda bo‘lgan o‘zbek tili o‘zining asosiy markazlaridan hududiy jihatdan ajralib qolgan, boshqa tillar hukmron bo‘lgan areallar bilan o‘ralgan, shuning uchun uning rivojlanishiga ham ta’sir etadi. Asosiy markazda iste’molda bo‘lgan lingvistik hodisalar tez o‘zgarib boradi. Bu Afg‘onistondagi o‘zbek tili orolida arxaik shakllarning uzoq vaqt saqlanib qolishiga olib kelgan. Yoki o‘zbek shevalarining O‘rta Osiyo xalqlari tillari va shevalari bilan o‘zaro ta’siri natijasidagi orollar, Yuqori Qashqadaryo, Xorazm, Janubiy Qozog‘iston va boshqa dialekt zonalaridagi o‘tish davri shevalari orollarini aytish mumkin.

**Tahlil ba natijalar.** Izoglossalarning xaritalarda berilishi turli xil ko‘rinishda bo‘lgan. A.Jo‘rayevning yuqorida qayd etilgan monografiyasida Yuqori Qashqadaryo shevalari bo‘yicha tuzilgan xarita misolida izoglossa quyidagicha izohlangan. Bir biriga bog‘liq kartografik modellashtirishda (3-4-xaritalarda) -niq dan foydalanmaslik zonasi -dan foydalanmaslik zonasiga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Ammo -ga.. // -da ...ning parallellik maydoni -niq..//ni.. parallellik maydoni bilan ustma-ust tushgan. Xaritalardagi ushbu izoglossalar chiziqlar orqali ko‘rsatilgan (A.Jo‘rayev, 1991).




3-xarita-sxema. Dialektlarning tarqalish hududi:  
1-tojik; 2-o‘tish davri; 3-qipchoq; 4-qarluq .

Qaratqich va tushum kelishigining ko'rsatkich areallari

I parallelizmning yuqori chastotali izolyatsiyasi -niñ // -ni...

II - nksiyali -niñ izolyatsiyasi;

III - sporadik parallelizm izolyatsiyasi nin/ni ma'nolarida -niñ va -ni...ustunlik qiladi.



4-xarita. Dialektlarning tarqalish hududi:

1-tojik; 2-o'tish davri; 3-qipchoq; 4-qarluq.

Jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari ko'rsatkichlarining areallari:

I – parallizmning yuqori chastotali izolyatsiyasi -ga//-da..;

II – o'rin kelishigi ko'rsatkichining izolyatsiyasi;

III – ni -ga sporadik qo'llanish izolyatsiyasi;

IV – da ning sporadik foydalanishning izolyatsiyasi.

Lisoniy hodisaning tabiatiga ko'ra izoglossa har xil: izofonema (fonetik) masalan: O'zbek shevalari fonetik jihatdan o'zining murakkab xususiyatlariga egadir. O'zbek shevalari o'zaro unli va undoshlarning miqdori, sifati, fonetik jarayonlari bilan farqlansada, ayrim jihatlari orqali o'xshashdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek shevalarida farqli tomonlarning mavjudligi shevalar tarqalgan hududning joylashuv o'ri, tarixiy sharoitlari, aholi etnik tarkibining turililigiga bog'liq. Shu bois ham o'zbek shevalaridagi unli va undoshlarning miqdori, sifati ancha murakkab va munozaralidir. Shu o'rinda aytish joizki, o'zbek shevalarini areal yo'nalishda o'rganish orqali bunday masalalar o'z yechimini topishi mumkin.

An'anaviy paradigmadagi tadqiqotlarda juda ko'plab fonologik, fonetik hodisalar o'rganilgan va keng talqin qilingan. Ularning ba'zilari izoglossa mazmunini berishi mumkin.

O‘zbek shevalari, turkiy tillar orasida o‘xshashlik va farqlar juda ko‘p. Ammo ularning hammasi ham izoglossa mazmuni, vazifasini o‘tay olmaydi. O‘zbek shevalaridagi qipchoq, o‘g‘uz lahjalarini o‘ziga xos xususiyati – so‘z boshida **y~j, k~g** almashinuvi bilan ajrata olish ham shevalar orasidagi muhim belgi sanalishi mumkin.

So‘z boshida jarangsiz “t” tovushining jarangli “d” fonemasiga o‘tishi to‘g‘risida turkiyshunoslikda quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: jaranglilashish turkiy tillarning o‘g‘uz guruhiga mansub tarmoqlari uchun xos hodisa sanalsa-da, umumturkiy t~d hodisasi, birinchidan, o‘g‘uz guruhiga kiritiladigan turkiy tillarining juda ko‘plarida qadimgi turkiy “t”ni “d”ga o‘tmasligi qayd etilgan. Ikkinchidan, umumturkiy “t”ning “d”ga o‘tish hodisasini o‘g‘uzlardan ancha uzoq bo‘lgan totor, boshqird, qirg‘iz, o‘zbek tilining amalda bo‘lgan mintaqalaridagi shevalarida ham uchratish mumkin.

Umlaut hodisasi uyg‘ur tili va hozirgi o‘zbek tilining Namangan shahar, Uychi, Chortoq, Uchqurg‘on, Yangiqo‘rg‘on tumanlarining ayrim qishloq shevalariga xosligi qayd qilingan. Umlautning uch ko‘rinishi: palatal, labial va lingval kabi turlari umlautli shevalarda uchraydi. Namangan umlautlashgan shevalarida umlautning birinchi va ikkinchi turlari mavjud. Birinchi tur: [təsh’]-toshi, [qəsh]-qoshi, [məl-mol, məlm-molim] kabi; ikkinchi tur: [tonyr]-tandir, [ɔdɔ ɣldy] – ado bo‘ldi kabi. Umlautning uchinchi turi uyg‘ur tiligagina xosdir: katti-ketdi, kasish-kesish va b.sh.k.

O‘zbek shevalarida diftonglashish hodisasi mavjud bo‘lib, qipchoq shevalariga xosdir. Diftong bir tovushda boshqa bir tovushning qatnashishi bilan yuzaga keladi. So‘zning boshida o‘rta-keng [ə (e), ø, o] unilari qipchoq shevalarida [y (e), vø] shaklida diftonglashadi: echki (echki), elək (elak), votn (o‘tin), vosmø (o‘sma) kabi. Bu diftonglashish hodisasi Janubiy Xorazm, Samarqand viloyati g‘arbiy shevalari, Navoiy, Nayman, G‘allaorol, Yuqori Qashqadaryo qipchoq tur shevalarida hamda Janubiy Orolbo‘yi shevalarida ham uchraydi. Shuningdek, qoraqalpoq, qozoq tillari uchun ham xosdir. So‘z boshida e, ø, o unilarining diftonglashuvi qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Bu hodisa qo‘miq, gagauz, qarachay, balqar tillarida ham kuzatiladi. [o], [ø] unilari ham [e] unlisi kabi so‘z boshida diftonglashadi. [uo ], [uø] kabi. uoyla, uotov (o‘yla, o‘tov), uerdak, uetkr (o‘rdak, o‘tkir). [i] unlisi diftonglashadi. [iyt-i: t] [i:t] kabi. O‘zbek shevalaridagi iyt so‘zida uchraydigan i unlisi qozoq va qoraqalpoq tillaridek talaffuz etiladi.

Ba’zi izomorfema (morfemik)lar ham izoglossa mazmuni sanalishi mumkin. O‘zbek shevalari morfologiyasi ham o‘zida qadimiy lug‘aviy birliklarni saqlab kelayotgan noyob manbadir. O‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu, albatta, u yoki bu sheva tarqalgan hududning o‘rni, tarixiy sharoitlari, aholi etnik tarkibiga bog‘liq holda yuzaga kelgan va turli ko‘rinishlarda uchragan. Masalan: Qipchoq lahjasiga oid shevalarda ko‘plik kategoriyasining [-lar // -ar // -yer // -zar // -zer] formalari uchraydi. Masalan: siler, bizler, bizar, bular kabi. Aslida biz < bi+z, siz < si+z (z ko‘plik ko‘rsatkichi) bo‘lib, bularga [-lar] qo‘shilishi tufayli bizlar, sizlar formasida qo‘shaloq ikki qatlamli ko‘plik shakli vujudga kelgan Shuning uchun ham shevalarda [-a] qo‘shimchasini ko‘plik formasi deymiz. Chunki uning o‘zi yakka holda hech qachon ko‘plik ifoda qila olmaydi, [a] unlisi o‘zidan oldin kelgan qadimiy ko‘plik ko‘rsatkichi -z (b+z+a) tufayli sodir bo‘lgan. O‘zbek shevalarida qaratqich kelishigining [-] shakli mavjud. Masalan, o‘zm+ ukam, o‘zm+ uym. Qaratqich

kelishigining [-] shakli Andijon, Qo‘qon, Farg‘ona, Pop, O‘zgan, Jalolobod – Suzoq shevalarida ham qo‘llaniladi. Masalan: Qo‘qon: km+ qz. O‘zgan: bz+ uy; Pop (Sangqishlog‘i) dadam+ etg, buvam+ bog‘; Vodil: ko‘zm+ yosh; Baliqchi: men+ ukam, sen+ ukang. Qipchoq lahjasida qaratqich kelishigi qo‘shimchasining [-ning //ning//ding//dning//ting//ting-tung] kabi variantlari mavjud. Qaratqich kelishigining bu variantlari Samarqand, Buxoro, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston o‘zbek shevalarining qipchoq lahjasida qo‘llaniladi. Qaratqich kelishigining -tɨ//tɨŋ affikslari Qozog‘istonning Turkiston shevalarida ham qo‘llaniladi: yurttɨŋ oz bleɨi kabi.

O‘zbek xalq shevalarida tushum kelishigining [-n, -ɨn, -in] tarzida qo‘llanishi ham uchraydi: qo‘lin yuvdi, belin boyladi kabi. Bu qo‘shimcha Jo‘sh, Nayman, shevalarida, Nayman, Qashqadaryo (qipchoq), Namangan (qipchoq), Xorazm (qipchoq), Iqon, Sayram, Laqay, Qorabuloq, Qarnoq shevalarida ham qo‘llaniladi. O‘zbek shevalarida jo‘nalish kelishigining [-ə //a] shakllari ham uchraydi. she:r+ə, ə:r+ə, be:r+ə. Ravishlarning bu tartibda shevalarda qo‘llanilishi jo‘nalish kelishigining [-ə] formasi bilan ifodalanishi Buxoro dialektida, Jo‘sh, Baxmal, Xorazm (qipchoq), Beruniy, Gurlan, Turkiston, Qashqadaryo, Kattaqo‘rg‘on, Qarnob, Namangan shevalarida ham uchraydi. Jo‘nalish kelishigining bu formasi o‘zbek shevalarining ko‘pchiligida bir xil [-ə, -a] tarzida bo‘lsa ham, ular turli xil so‘zlarning tarkibida kelib, shevalarning bir-biridan farqlovchi belgisiga aylangan. Masalan: Xorazm shevasida sozm+a, yanm+a; Qorako‘l shevasida qishlog‘+a, Shahrisabz: oy+a kiring kabi so‘zlarning tarkibida kelgan jo‘nalish kelishigining [-ə, -a] shakllari har bir shevaning o‘ziga xos qonuniyatlari asosida qo‘shilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek shevalari morfologik jihatdan har bir hududning o‘ziga xos ichki xususiyatlari asosida taraqqiy etgan va shakllangan uzoq tarixiy jarayon mahsuli sanaladi. Shevalarda -b (-ib) ravishdosh qo‘shimchasi [v] formasida qo‘llaniladi: ketved, eytvedi, barvi:dm kabi. Bu holat Forish shevalarida ham uchraydi. yuruv edi:, otuv edi. Buni Xorazm (qipchoq) shevalarida ham uchratish mumkin: barbi:dm, barvi:dng, barvi:d, barvi:dk, barvi:dngler, barvi:d(ler) kabi. Bunday lingvistik hodisalarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Turkiy tillarda ham bunday lingvistik vositalarning arealini juda ko‘plab keltirish mumkin. Areal lingvistika ulardan eng asosiysini, turkiy tillar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun ahamiyatlarini izoglossa hodisasi sifatida tanlaydi.

Arealogik tadqiqot o‘tkazishdan oldin tadqiqotchi har bir izoglossa mazmunining til tizimidagi taksonomik ahamiyatini asoslab bermog‘i lozim. Izoleksemalarni lingvogeografik usulda yaratilgan xaritalar orqali quyidagicha izohlash mumkin. Xaritalar N.Murodovaning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini” mavzusidagi tadqiqotidan olindi (N.Murodova, 2006). Xaritalarda izoleksema (leksik)larning areali tadqiq etilgan. Odatda izoglossa bitta hodisa asosida belgilanadi. 1-3-xaritalar tadqiqotchining tadqiq etgan areali haqida etnografik ma’lumot beradi. Jumladan, 3-xaritada tadqiq manbayi bo‘lgan 200dan ortiq oykonimning aniq joylashuvi va nomlanishi beriladi. 5-xaritada yettita izoglossaning shu mintaqada tarqalishi ko‘rsatilgan. Barcha leksik izoglossalar bitta tushuncha og‘iz suti qo‘shma so‘zining ushbu mintaqada qanday berilishi asosida izohlanadi. Xaritada o‘z aksini topgan izoglossalar (gilagay, dalama, uvuz, dalama//palla, palla, qog‘onoq//gilagay, jak, palla) ichida gilagay izoglossasining yetakchi ekanligini ko‘rish mumkin. Izoglossalarni sanab

o'tish, ro'yxatda berish, ma'lum bir diagramma, geometrik shakllar, chiziqlar bilan ham ifodalash mumkin. Xaritalashtirilgan izoglossa areali haqiqiy lisoniy manzarani – **lingvistik lanshaftni** beradi. Mohiyatan atama bo'lgan landshaft (nemis. manzara, ko'rinish) atamasi areal lingvistikada juda keng qo'llaniladi. Haqiqatan ham, 5-xaritaga diqqat bilan qarajak, xarita izoglossalari uchun asos bo'lgan yettita so'zdan qay birining qaysi hududlarda qo'llanilishi xaritada ma'lum bir geometrik shakllar orqali o'z aksini topgan.



Izoglossalar yaxlit (lingvistik hodisa muayyan bir mintaqada qo'llanilib, undan tashqarida uchramasa), uzuq (bir-biridan uzilgan turli mintaqalarda uchrasa), yopiq (chegaralangan arealdan boshqa joyda uchramasa), ochiq (turli mintaqalarda uchrasa) bo'lishi mumkin.

Areal lingvistik xarita namunasi sifatida berilgan 5-xaritadan ko'rinib turibdiki, izoglossa, albatta, chiziq shaklida berilmasa-da, ular xaritalarda turli xil belgilar, shakllar bilan berilgan.


Ba'zi tadqiqotlarda, jumladan, G.Blagova o'z xaritalarida izoglossalarni berishda quyidagi qisqartmalardan foydalangan. Masalan: Arab raqamlari (1-6) qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish, vosita kelishiklarining tartib raqamlari;

- A – egalik qo'shimchasi bo'lmagan otlarning tuslanishi;
- B – I, II shaxs egalik qo'shimchalariga ega bo'lgan otlarning tuslanishi;
- V – III shaxs egalik qo'shimchali otlarning tuslanishi;
- X – ikki kelishikning shaklan mos kelishi;
- M – olmoshlarning tuslanishi;
- a<sup>1</sup>, b<sup>1</sup>, v<sup>1</sup> – egaliksiz va egalikli otlarning o'g'uz turlanishi tipi;
- a<sup>11</sup>, b<sup>11</sup>, v<sup>11</sup> – egaliksiz va egalikli otlarning qipchoq turlanishi tipi;

a, b, v – egaliksiz va egalikli otlarning qarluq turlanishi tipi; daraja (°) belgisi bilan eskirgan, qadimgi forma shakllari. Boshqa lingvistik hodisalar ham xaritalarda xuddi shunday berilgan.

Ozarbayjon Fanlar Akademiyasida yaratilgan lingvistik xaritalar ham o‘ziga xos tomonlari bilan farqli xususiyatlarga ega.

Ozarbayjon Ilmlar akademiyasining Nasimiy nomidagi Tillar instituti tilshunos olimlari tomonidan “Ozarbayjon dialektologik atlası” 2022-yilda yaratildi. Xaritalar hududlar kesimida yaratilgan. Xaritada izoglassalarning areali geometrik shaklda berilgan.



**Xulosa va takliflar.** Dialektologik tadqiqotlarda ma’lum bir shevaning chegaralari va o‘ziga xos hodisalari aniqlanib kelingan bo‘lsa, areal yo‘nalishdagi tadqiqotlar shevalar orasidagi hududiy chegaralarni olib tashlaydi. Chunki turli mintaqada iste’molda bo‘lgan turli shevalarda qo‘llangan bir xil hodisa (qonuniyat) arealogik tadqiqotlarda shevalarning qaysi hududga qarashligidan qat’iy nazar bir arealga birlashtiriladi. Dialektologiya sohasida to‘plangan faktik materiallardan o‘ta ahamiyatliharini til yoki shevaning eng xarakterli xususiyatlarini izoglossa asosida tanlash va o‘rganish ahamiyatlidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадарьи в ареальном освещении: Дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986<sub>1а</sub>. – 237 с.
2. Джураев А.Б. Элемент ким – в неопределенных местоимениях узбекских говоров самаркандко-бухарского типа // Коммуникативные аспекты исследования языка. – Москва, 1986<sub>2</sub>. № 1. – С. 140–146.
3. Джураев А.Б. Ареалогия и исследование узбекских народных говоров // Советская тюркология. 1987<sub>1</sub>. № 1. – С. 45–51.
4. Джураев А.Б. Методологические регулятивы тюркской ареальной лингвистики и внутренняя совокупность методов на разных этапах ее развития // Типы коммуникации и содержательный аспект языка. – Москва, 1987<sub>2</sub>. – С. 96–103.
5. Джураев А.Б. Теоритические вопросы ареальной лингвистики // Актуальные вопросы развития науки и техники в Узбекистане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987<sub>3</sub>. – С. 99.
6. Джураев А.Б. Ареальная лингвистика: сущность и структура // Советская тюркология. 1988. № 6. – С. 21–27.
7. Freudenberg R. Isoglasse. Prägung und Problematic eines sprachwissenschaftlichen Terminus // Zeitschrift für Mundartforschung. 1966. Vol. 33, 219-232.
8. Trubetzkoy N.S. Reponse a la question // Actes du Preimer Congress International de Linguistes a la Haye du 10-15 Avril 1928. Leidan, 1928, 17-18.
9. Chambers J., Trudgi 11 P. Dialectology. Cambridge, 1980, 218



## LISONIY SHAXS LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA



**Yusubova Ra'no,**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish*

*kafedrası professori v.b*

**Annotatsiya.** Maqola lingvistik tadqiqot obyektı sifatida lisoniy shaxs muammosini o'rganishga bag'ishlangan. Lisoniy shaxs ijtimoiy-madaniy, axloqiy-ma'naviy belgilarini, individualligini yozma va og'zaki matnda lisoniy qobiliyatlari orqali yuzaga chiqaruvchi murakkab fenomen ekanligi, zamonaviy tilshunoslik tomonidan lisoniy shaxs fenomeni faol o'rganilishiga qaramasdan, uning barcha tarkibiy qismlari to'liq funksional tavsiflanmaganligi, lisoniy shaxsning o'zini namoyon qilishi badiiy matn misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** lisoniy shaxs, lisoniy shaxs modeli, lisoniy shaxs tuzilishi, badiiy nutq, idiostil, konsept, lingvokulturologiya.

**Аннотация.** Статья посвящена изучению языковой личности как объекта лингвистического исследования. Несмотря на то, что феномен языковой личности активно изучается современной лингвистикой, не все его составляющие описаны полностью функционально, самовыражение языковой личности проанализировано на примере художественного текста.

**Ключевые слова:** языковая личность, модель языковой личности, структура языковой личности, художественная речь, идиостиль, концепт, лингвокультuroлогия.

**Annotation.** The article is devoted to the study of linguistic personality as an object of linguistic research. Despite the fact that the phenomenon of linguistic personality is actively studied by modern linguistics, not all its components are described fully functionally, the self-expression of linguistic personality is analyzed using the example of a literary text.

**Keywords:** linguistic personality, model of linguistic personality, structure of linguistic personality, artistic speech, idiosyncrasy, concept, linguoculturology.

**Kirish.** Tilshunoslik taraqqiyotining zamonaviy bosqichida o'ziga xos yo'nalishlardan biri nutqiy faoliyatda shaxs omili muammosini batafsil ishlab chiqishga kirishilgani pirovardida tilshunoslar antroposentrizmga murojaat qilishdiki, bu jarayon nutqni shakllantirish, uzatish va qabul qilish jarayonida shaxs omili muhimligini tan olish edi. Til tadqiqiga bu tarzda yondashuv natijasida XX asrning so'ngida yangi ilmiy paradigma – tilni shaxs omili bilan bog'liq holda tadqiq qilishga qaratilgan antroposentrik tilshunoslik yuzaga keldi, paradigma lisoniy shaxs muammosini birinchi o'ringa chiqardi, bu muammo nafaqat tilshunoslarning, balki madaniyatshunoslar, sotsiologlar, faylasuflarning ham e'tiborida edi, yangi paradigma muammoni tilshunoslikka ko'chirdi. Antroposentrik tilshunoslik tilning markaziga insonni qo'yib o'rganishni bosh masala qilib kun tartibiga qo'ygandan so'ng, tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasiga doir qarashlar kengayib bordi, lingvopersonologiyaning yuzaga kelishi pirovardida lisoniy shaxsning xususiyatlari, qobiliyatlari turli nuqtayi nazardan baholangan, tahlil qilingan qator tadqiqotlar maydonga keldi. Tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasiga munosabat

matnga, aniqrog'i, ijodkorning individual uslubiga munosabat bildirish, ijodiy individuallikka e'tibor qaratish natijasi o'laroq yuzaga kelib, badiiy asarda ijodkor individual uslubi (idiostilini) tahlil qilinarkan ekan, ijodkorlik shaxsi fonida lisoniy shaxs tushunchasi namoyon bo'ldi.

*Lisoniy shaxs* tushunchasi til sohibining tafakkuri, dunyoqarashi bilan til o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Har qanday shaxs o'zini, avvalo, muloqot orqali namoyon qiladi, insonning nutqi uning olam manzarasini qamrab oluvchi (OLM, ODM, OIM, OKM va hok.) barcha bilimlarini verballashtiradi va uning shaxsi haqida tasavvur hosil qilishda ko'maklashadi. *Lisoniy shaxs* tushunchasiga ilk bor I.Vaysgerber e'tibor qaratgan bo'lsa, tilshunoslikda ushbu termini ilk bor V.V.Vinogradov qo'llagan va lisoniy shaxsni "nutqiy harakatlarni amalga oshirishga qodir subyekt"<sup>1</sup>, deb asosli baholagan.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Dunyo tilshunosligida lisoniy shaxs tushunchasi yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lisoniy shaxs haqidagi nazariy qarashlar V.V.Vinogradov, Y.L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, Boduen de Kurtene ishlarida uchraydi. XX asrning so'ngida lisoniy shaxs muammosi G.I.Bogin, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, Yu.N.Karaulov, K.F.Sedov tomonidan o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs muammosi N.Normurodova, D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanovalar, D.Niyazova, A.Mamatov, S.Saatova tomonidan tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, kognitiv-diskursiv, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'kidlaganimizdek, o'tgan asrning 30-yillarida rus tilshunosligida lisoniy shaxs tushunchasiga oid qarashlar V.V.Vinogradovning badiiy asar muallifining individual uslubi bilan bog'liq masalalarga to'xtalangan o'rinlarda ko'zga tashlanadi, olim baholashicha, tadqiqotchi to'g'ridan-to'g'ri badiiy sezgilari bilan asarni "sekin o'qish" jarayonida badiiy dunyoga kirib boradi va individual uslubning o'ziga xosligini qaysidir lingvistik xususiyati bilan "taxmin qiladi". Demak, tilshunoslikda lisoniy shaxs fenomeniga qiziqish dastlab badiiy nutqda muallif idiostilini va personaj nutqini shaxs tipi sifatida o'rganish bilan bog'liq bo'lganligiga sabab V.V.Vinogradov qarashlarining rivojlantirilganligi edi.

V.V.Vinogradov lisoniy shaxs tushunchasiga Boduen de Kurtenening munosabati xususida fikr yuritarkan ekan, lisoniy shaxs jamoaning ijtimoiy-lingvistik shakllari va me'yorlari jamlanmasi sifatida, turli xil ijtimoiy-lingvistik kategoriyalarni aks ettiruvchi, jamlovchi markaz sifatida qiziqtirganligini, lisoniy shaxs atamasi Boduen de Kurtene uchun begona bo'lib, olim badiiy asar tilini ijtimoiy guruh qobiliyatlari va tendensiyalarini aks ettirish nuqtayi nazaridan tadqiq qilganligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

O'tgan asrning 80-yillari boshida G.I.Bogin tilni egallagan, nutqqa ega insonni *lisoniy shaxs* deb atagan, ya'ni til egalarining barchasiga nisbatan *lisoniy shaxs* atamasini qo'llagan, lisoniy shaxs til haqida nimani bilishi asosida emas, balki til bilan nima qila olishi asosida tavsiflanadi, deb qaragan.<sup>3</sup> Keyingi izlanishlarida qarashlarini o'zgartirgan,

<sup>1</sup> Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980. – С. 60.

<sup>2</sup> Виноградов В.В. О художественном прозе. – М.; Л.: Гос.изд-во, 1930. – С.18.

<sup>3</sup> Богин Г.И. Современная лингводидактика. Калинин: Калинин.гос.ун-т, 1980. – С.3.

G.I.Bogin yirik monografik tadqiqotida lisoniy shaxs – nutqiy harakatlarni bajarishga, matnni yaratishga va qabul qilishga tayyorligi nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan shaxs<sup>4</sup> ekanligini ta’kidlab, lisoniy shaxs tuzilishi matnga munosabati asnosida ochib berilgan, bu qarashlar V.V.Vinogradov qarashlarini to‘ldiradi va uzviy davomi deyish ham mumkin. G.I.Boginning lisoniy shaxs matnni yaratishgina emas, balki o‘zga matnlarni anglashda, individuallikni namoyon qilishi masalasini ko‘rib o‘tadi. Lisoniy shaxs muloqotda nominativ birliklarning yuqori chastotalarda qo‘llanuvchilarini o‘zlashtirib olgan, leksik-grammatik bilimlarni chuqur egallagan shaxski, natijada yuqori potensialga ega ifoda vositalarining o‘ziga xos variantlaridan mosini erkin tarzda tanlay oladi, bu esa uning matnni yaratishiga xizmat qiladi.<sup>5</sup> Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi asosan uch yo‘nalishda ishlab chiqilgan: struktural, kommunikativ va strategik. Tilshunoslikda lisoniy shaxs modeliga e’tibor qaratgan G.I.Bogin<sup>6</sup> lisoniy shaxs modelida shaxs “nutqiy harakatlarni bajarishga, nutqiy asarlarni yaratishga va qabul qilishga tayyor” shaxs sifatida ko‘rsatilgan.

Y.N.Karaulov lisoniy shaxs tushunchasini tavsiflar ekan, har qanday til egasi lisoniy shaxs bo‘la olishini ta’kidlaydi, “lisoniy shaxs – shaxs tushunchasining kengayishi, rivojlanishi, qo‘shimcha mazmun bilan to‘yinganligi”, – deb izohlaydi.<sup>7</sup>

S.T.Vorkachev nazdida, lisoniy shaxs, birinchi navbatda, til egasi, tildan aloqa vositasi sifatida foydalanadigan kommunikant; olimning lisoniy shaxsga bergan tavsifi o‘zigacha bo‘lgan qarashlarni kengaytiradi: nutqiy qobiliyatga ega bo‘lgan, aniqrog‘i nutq tuzish va idrok eta oladigan shaxs; o‘z tilining lug‘at boyligini egallagan, millatning milliy-ma’naviy qadriyatlari, xulq-atvorini namoyon qiluvchi.<sup>8</sup> Biroq S.T.Vorkachev ham til egalarining barchasiga nisbatan lisoniy shaxs sifatida qaragan.

A.Mamatov lisoniy shaxs tuzilishida tilni bilishning quyidagi bosqichlarini keltiradi:

1) to‘g‘rilik bosqichi, u ushbu tilning elementar qoidalariga mos keladigan mos keladigan matnlarni hosil qilishga imkon beradigan yetarli darajadagi leksik zahiraning va tilning asosiy grammatik qonuniyatlarining mavjud bo‘lishini ko‘zda tutadi;

2) materialni egallash bosqichi tilning ichki harakatiga muvofiq mulohazani amalga oshirish va idrok qilishni bilishni o‘z ichiga oladi;

3) mazmunga boylilik (to‘lalilik) bosqichi – fonetika, grammatika va leksika sohasida til ifoda vositalarining barcha xilma-xilligi aks etganligi nuqtai nazaridan ajratiladi;

4) adekvat tanlov bosqichi – qo‘llanilayotgan vositalarning kommunikativ vaziyatlarga va kommunikantlar rollariga muvofiq ravishda ifodalanadi;

<sup>4</sup> Богин Г. И. Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов: Автореф. дисс. д-ра фил. наук. – Л., 1984. – С.3.

<sup>5</sup> Богин Г. И. Келтирилган автореферат. – С.5.

<sup>6</sup> Богин Г.И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Калинин: КГУ, 1986. – 86 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – М., 2001. – С. 64; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – В.: Перемена, 2002. – 477 с.; Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.

<sup>7</sup> Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С 38.

<sup>8</sup> Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 65.

5) adekvat sintez bosqichi – lisoniy shaxsning matnini uning mazmuniga tegishli tarkibiy va kommunikativ vazifalarning barcha kompleksiga mosligini eʼtiborga oladi.<sup>9</sup>

D.Niyazova taʼkidicha, lisoniy shaxs sifatida “har qanday muloqot matnidani nutq tuzuvchi va uni qabul qiluvchi shaxs, boshqacha aytganda, tildan foydalanuvchi, unga oʻz taʼsirini oʻtkazuvchi hamda nutqni qabul qiluvchi shaxsni ajratish mumkin.”<sup>10</sup>

D.Lutfullayeva hamda D.Xudoyberganova taʼkidicha, “lisoniy shaxs nutqni yarata olish va idrok etish imkoniyatiga ega boʻlgan shaxsgina emas, u tilning grammatik xususiyatlarini, tilga xos ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi til egasi hamdir. Lisoniy shaxs nutqi orqali nafaqat oʻziga xos boʻlgan individual sifatlarni, balki oʻz xalqining lingvomadaniy qarashlarini ham u yoki bu darajada namoyish eta oladi. Lisoniy shaxsga uning til birliklaridan qay tarzda foydalangan holda tuzgan matni asosida tavsif berish mumkin.”<sup>11</sup> Bundan anglashiladiki, V.V.Vinogradov bejizga aynan ijodkorlarni lisoniy shaxs sifatida baholamagan. Ijodkorlarning lisoniy shaxs sifatida eʼtirof etilishining asosiy sababi boshqa til egalaridan farqli tarzda ular badiiy matn yaratuvchilaridir, tilning badiiy-estetik, kognitiv-pragmatik, ijtimoiy imkoniyatlarini badiiy matnda yuzaga chiqarilishi ijodkorlarning tilda belgilangan meʼyorlardan chetga chiqishlari, individual yasalmalar, poetizmlar, oʻziga xos struktural almashinishlarni qoʻllashlari, yaʼni ularning idiositili bilan belgilanadi. Bu jihat, masalan, maʼlum bir konseptning turli ijodkorlar tomonidan turlicha anglanishida koʻzga tashlanadi.

Maʼlumki, konseptning boshlangʻich nuqtasi voqelikdagi predmet-hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bogʻliq. Paydo boʻlgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida – individual koʻrinishda boʻladi. Masalan, «daraxt» har bir til egasi ongida turlicha, masalan, «majnuntol», “tol”, “terak”, “dub”, “eman”, “qaragʻay”, “archa” va yoki boshqa daraxtlar haqidagi ong, tafakkur orqali hosil qilingan maʼnolar jamlanmasi sifatida baholanib, paydo boʻlgan obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual koʻrinishda boʻladi. *Daraxt* konsepti har bir millat konseptual olamida mifologik qarashlar, mavsum, iqlimga bogʻliq tarzda ijtimoiy-tarixiy, madaniy va kundalik farqlardan kelib chiqqan tasavvurlar, tasvirlar va manzaralarni jonlantiradi. Hatto oʻzbek xalqida milliy realiya sanaluvchi beshikning qaysi daraxtdan yasalishi ham kodlashtirilgan, beshik mevali daraxtdan yasalgan va bunda katta ramziy qarash bor, beshik – bolaning uyi, bu uy vaqti kelib unda oʻz uyiga ega boʻlish istagini hosil qilishini, katta oilaga bosh boʻlishini, mevali daraxt har yili hosil bergani kabi, uning avlodlari ham koʻpayib borishini, uzoq yillar baxtli-saodatli yashashini ramzi sifatidadir.

Lugʻatda *daraxt* leksemasining quyidagi maʼnolari keltiriladi: **DARAXT** *f.* – daraxt, nihol; buta] Tana qoʻyib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib oʻsadigan koʻp yillik oʻsimlik. *Mevali daraxt. Mevasiz daraxt. Olma daraxti. shʼti Daraxt shoxlarida iliq tomchi-lardan seskanib uygʻongan goʻdak kurtaklar tabassum qiladi.* Oʻ.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Devorlar boʻylab xar xil mevali daraxtlar: shaftoli, olma, nok,*

<sup>9</sup>Маматов А. Замоновий тилшунослик. – Т.: Ношир, 2019. – Б.54.

<sup>10</sup>Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари. Филол. фан...бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Қарши, 2020. – Б.10.

<sup>11</sup>Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти, № 6. – Т., 2017. – Б.39-40.

*olucha, jiy-da.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bodom daraxti yer tanlamaydi: toshloq, qumloq joylarda ham bemalol o'saveradi.* Gazetadan.<sup>12</sup>

Tasavvur va tafakkur faoliyatining yuqori bosqichlarida individual obraz denotatidan uzoqlashib borib, mantiqiy hodisaga aylanadi. Voqelikning bunday his va tafakkur etilishi, umumlashgan hamda qisman mavhumlashgan obrazning yuzaga kelishi barcha uchun bir xil kodga aylanadi, milliy ramziy belgini yuzaga keltiradi. *Daraxt konsepti* o'zbek lingvomadaniyatida o'ziga xos bo'lgan voqelik so'zlari, maqol va matallar, belgilar, topishmoqlar, hodisalar, shuningdek, qo'shiq, she'r va hokazolarning asosini tashkil etadi. Masalan: *Sen daraxtning shoxida yursang, u bargida yuradi; Mevali daraxtga tosh otilmaydi; Daraxtni – shirin meva, ustozni – oqil shogird bezaydi* kabi. Bu kabi lingvomadaniy birliklarda milliy mentalitetga xos turg'unlashgan qadriyatlar mujassam bo'ladi.

S.Sayyid she'riyatida *daraxt* konsepti ifodalagan tushunchalar rang-baranglik kasb etib boradi, ushbu konsept doirasida daraxt prototip ma'nolarining bolalik, umr, xotira, yaxshilik, to'kinlik, farzand kabi o'zbek ongidagi aksiologik xususiyatlari asoslab berilgan. Buni “Bolalik” she'ridagi quyidagi misralarda ham kuzatish mumkin: *Mening bir daraxtim bor edi, do'stlar, Xazonlar qoplabdi tegralarini. Ko'zyoshga qorishib yetilgan so'zlar, Do'stlar, u daraxtning mevalarimi?* Bu o'rinda millatga xos qarashlar – ramz belgilik xarakteriga ega bo'lgan konseptni hosil qilgan.

“*Tegralarini xazonlar qoplagan daraxt*” jumlasida ortda qolgan bolalikka, “*Ko'zyoshga qorishib yetilgan so'zlar*” jumlasida esa bayonda shoirning o'zi tomonidan ramziy tarzda daraxt mevalariga qiyoslangan. Shoir olisda qolgan bolaligini daraxt obrazida betakror yo'sinda obrazlashtirgan. To'g'ri, bolalikni daraxtga qiyos etish badiiy idrok mahsuli, biroq voqelikni bu tarzda tasvirlash milliy-madaniy mansublikka aloqador, chunki har bir shaxs – ma'lum bir til jamoasi vakili, albatta, u o'zi mansub til jamoasining dunyoni qanday his qilishi, qanday qabul qilishidan kelib chiqib fikrlaydi. Darhaqiqat, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir<sup>13</sup>.

Sirojiddin Sayyidning “Daraxt” she'rida “daraxt” konsepti ushalmagan orzular, armonlar ma'nosida keladi, mazmun yadrosini tashkil etuvchi so'zlar misralarda takror qo'llanib, o'ziga xos ritmik-sintaktik ohangdorlik bilan bir qatorda, murakkab tipologik qurilmani yuzaga keltirgan: *Tushlarimga kirar bir daraxt. Havolarda yomg'ir hidlari, Ulanadi tushlarim yodga. Tushlarimga kirgan daraxtning ilk yaprog'i kelar hayotga. Tushlarimga kirar bir daraxt. Havolarda sovuq taraddud, Uziladi tushlarim yoddan. Tushlarimga kirgan daraxtning So'nggi bargi ketar hayotdan.*

Shoirning bir o'rinda *Birovdan taxt qoldi, Birovdan — daraxt* desa, ikkinchi bir o'rinda *Farzand yanglig' o'stirilgay har bir daraxt* deydi, yana bir o'rinda *Keyin yillar o'tar varaqlar bo'lib, Bir daraxtdan ko'chgan yaproqlar bo'lib* deyishi va bunda daraxt so'zini tanlashi bejizga emas. Umuman olganda, daraxt konsepti ijodkor badiiy kognitsiyasida “farzand”, “ayol”, “erkak”, “yaxshilik”, “rivoj”, “uyg'onish”, “baxt”,

<sup>12</sup>Ўзбек пилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б.559.

<sup>13</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B.65.

“baxtsizlik”, “mag‘rurlik”, “laganbardorlik”, “g‘amginlik”, “do‘stlik”, “ushalmagan orzu”, “aytilmagan sir”, “sirdosh”, “vaqt” kabi ko‘plab hosila ma‘nolarda obrazli ifodani voqelantiradi.

O‘zbek konseptual olamida “daraxt” konsepti alohida mavqega egaki, daraxtning insonga mengzalishi daraxtning biologik xususiyatlari, tashqi tuzilishi, bir necha turlarga egaligi sababidandir. Daraxt bilan bog‘liq sifatlarga e‘tibor qaratamiz: *Past bo‘yli daraxt, uzun bo‘yli daraxt, ko‘p yillik daraxt, mevali daraxt, mevasiz daraxt, gullagan daraxt, shifobaxsh daraxt, yashil daraxt, igna bargli daraxt, daraxt, tik o‘sovchi daraxt, egri-bugri o‘sovchi daraxt, serurug‘ daraxt, tropik daraxt, sitrus daraxt, ichi kovak daraxt, xosiyatli daraxt, xosiyatsiz daraxt, bayram daraxti, issiq mamlakatlarda o‘sadigan daraxt, sovuq mamlakatlarda o‘sadigan daraxt* va hok. Va albatta, bu xususiyatlarga ega har bir daraxtning deyarli o‘z nomi bor. Daraxtning unib-o‘sishi insonning tug‘ilib o‘shiga monand tarzda kechadi: avval urug‘dan unib chiqib niholga aylanadi, keyin daraxtga aylanadi, yillar o‘tib quriydi.

Tabiatning ushbu in‘omining inson oldida o‘z vazifalari bor: havoni kislorod bilan to‘ldiradi; mevalari inson sog‘lig‘i uchun zarur vitaminlarni beradi; yangi yil kunlarida uchini bog‘lab arg‘imchoq osiladi; magik qarashlar asosida gujum daraxti shoxlariga latta bog‘lanadi; yangi tug‘ilgan chaqaloqning (yoki kichik yoshdagi bolalarning) sochlari kesilganda yoki bolalarning tishlari tushganda mevali daraxt ostiga ko‘miladi; qushlar ozuqa bo‘ladi; daraxt shoxlari issiqdan pana qiladi; qurilish materiali sanaladi; isinish uchun, ovqat tayyorlash uchun yoki boshqa extiyojlar sababi bilan o‘tin qilib yoqiladi va

Olamning badiiy manzarasi real olam konseptual manzarasining muhim jihati, aynan badiiy matn tadqiqida *lisoniy shaxs* atamasini qo‘llash o‘rinli hisoblanadi, chunki badiiy asar muallifi olamga badiiy-estetik yo‘sinda individual qarashi va pragmatik munosabatiga ko‘ra badiiy matnni namoyon qiladi, badiiy matn – muallif individualligidir. Demak, lisoniy shaxs deganda til egasining tilni o‘zlashtirganlik qobiliyatlari asosida matnni yaratish, his qilish, idrok etishga tayyorligining tizimli tartiblangan umumlashmasini namoyon qiluvchi shaxs tushuniladi. Tilni o‘zlashtirganlik qobiliyatlari til birliklarining nutqda yuzaga chiquvchi yashirin ma‘nolarini qay darajada bilishi, til birliklaridan nutqda o‘rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi bilan belgilanadi.

Sirojiddin Sayyid idiosstilida milliy lisoniy shaxs portreti to‘la namoyon bo‘ladi, ijodkor she‘rlarida shaxs sifatidagi individual sifatlari, maqsad va intilishlari hamda tilning leksik imkoniyatlari, milliy-madaniy mansublikni to‘la namoyon qilgan, xalq madaniyati kabilarni badiiy yo‘sinda yuzaga chiqara olgan shaxs tipi tushuniladi. lisoniy shaxsga milliy til va madaniyat tashuvchisi sifatida qaralar ekan, ushbu xususiyat S.Sayyid idiosstilida ustuvorligi kuzatiladi. Millatga xos belgilarning muqobilsiz leksika, ekzotizmlar, o‘xshatish va metaforalar, frazema va idiomalar, presedent birliklar vositasida obrazli namoyon qilinganligi o‘zbek millatiga xos lisoniy shaxs tipini bo‘rttirgan. Masalan: *Bir suvoriy kelmoqdadir – Boburmi yo? Hirotmi yo Hindistonmi*

yoki *Ko'nyo, Ko'rib keldi, bundan so'ng ham ko'rsin dunyo Sul-tonlari, xonlarini, xonlarini. Bu diyorning ayvonlari nurga talosh, Bu diyorning kayvonisi o-yu quyosh, Vatan desam ko'zimda yosh, yuzimda yosh, Ko'zga surtay nonlarini, nonlarini.* (Vatan desam...)

Ushbu parchada ifoda etilgan milliy-madaniy so'zlar (*ayvon, kayvoni, ko'zga surtmoq*), tarixni yodga tushirish maqsadida qo'llangan presedent birliklar (*Bobur, Hiro, Hindiston, Ko'nyo*) nutqning milliy xoslanganligini ko'rsatadi.

Lisoniy shaxsni lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida baholgan Sh.Usmonova ham lisoniy shaxsni jamiyatda milliy madaniyat tashuvchisi deb ta'riflaydi. Lisoniy shaxsni tilni nutqda nomoyon qila olishi, maqsadga erishish uchun muayyan tilning tizimli vositalaridan og'zaki nutqda va matnlarda aks ettira olishi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.<sup>14</sup> Badiiy matnda muallif lisoniy shaxsi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning idiolekt va idiostilini aniqlash mumkin bo'ladi, muallifning lisoniy shaxsi u yaratgan matnlar nutqi orqali ifodalanadi.<sup>15</sup> Idiostil atamasi mohiyatan lisoniy shaxsning individual xarakterini, uning o'ziga xos tilini va uslubini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar.** Lisoniy shaxs o'zida individuallikni namoyon qilgan til egasidir, badiiy matn yaratuvchisi misolida olganda muayyan til birliklari boshqalariga qaraganda yuqori chastotaga egaligi bilan ajralib turadigan, masalan, okkazonalizmlar ustuvorligi, xalq jonli tilining mavjudligi, milliy-madaniy birliklarning ko'pligi, ramziy ifodalarda mualliflik yaratilmalariga egalik, presedentlikka keng o'rin berish asnosida implitsitlikni hosil qilish, grammatik birliklar va sintaktik qurilmalarning o'ziga xosligi uning idiostilini namoyon qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980. – С. 60.
2. Виноградов В.В. О художественном прозе. – М.; Л.: Гос.изд-во, 1930. – С.18.
3. Богин Г.И. Современная лингводидактика. Калинин: Калинин.гос.ун-т, 1980. – С.3.
4. Богин Г. И. Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов: Автореф. дисс. д-ра фил. наук. – Л., 1984. – С.3.
5. Богин Г. И. Келтирилган автореферат. – С.5.
6. Богин Г.И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Калинин: КГУ, 1986. – 86 с.;
7. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – М., 2001. – С. 64;

<sup>14</sup> Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – В.178-181.

<sup>15</sup> Катермина В. В. Языковая личность автора в художественном тексте. Человек. Культура. Образование. 2016.– 1/19. – С. 205-213.

8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – В.: Перемена, 2002. – 477 с.;
9. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.
10. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С 38.
11. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 65.
12. Маматов А. Замонавий тилшунослик. – Т.: Ношир, 2019. – Б.54.
13. Ниязова Д. Бадиий матнда лисоний шахс типлари. Филол. фан...бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Қарши, 2020. – Б.10.
14. Лутфуллаева Д., Худойберганаева Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти, № 6. –Т., 2017. – Б.39-40.
15. Ўзбек пилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б.559.
16. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax:Sangzor, 2006. – В.65.
17. Usmanova Sh. Lingvokultrologiya. – Toshkent, 2019. – В.178-181.
18. Катермина В. В. Языковая личность автора в художественном тексте. Человек. Культура. Образование. 2016.– 1/19. – С. 205-213.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA VIZUALIZATSIYANING AHAMIYATI

**Yuldashev Farrux**

*Navoiy davlat universiteti professori v.b.,  
filologiya fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda vizualizatsiyaning ahamiyatiga bag’ishlangan. Maqolada ma’naviyatga oid birliklarning ko’rgazmali materiallar, grafikalar va didaktik o’yinlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Vizualizatsiya usulining dolzarbligi, uning ma’naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishdagi o’rni ko’rsatib berilgan. Natijalarga ko’ra vizualizatsiya bolaning axloqiy tarbiyasi va kognitiv rivojlanishida muhim rol o’ynashi ko’rsatib berilgan.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha ta’lim, vizualizatsiya, ma’naviy tarbiya, axloqiy tushunchalar, didaktik o’yinlar, grafik vositalar, video kontet, oilaviy muhit.

Globalashuv davrida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni madaniy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish muhim vazifaga aylandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi ularga beriladigan ta’lim va tarbiya sifatiga bevosita bog’liq. Shu nuqtai nazardan, vizualizatsiya, ya’ni ma’lumotlarni grafik, tasviriy va ko’rgazmali shaklda taqdim etish maktabgacha ta’lim tizimida dolzarb metodlardan biriga aylangan. Ushbu maqola maktabgacha ta’lim jarayonida vizualizatsiyaning ahamiyatini chuqurroq o’rganishga qaratilgan.

“Ma’naviyat” tushunchasi keng qamrovli bo’lib, u insonning axloqiy tamoyillari, ijtimoiy qadriyatlari va ichki dunyosining ifodasidir. Ushbu tushunchaning lingvistik, psixologik va pedagogik jihatlari ta’lim berish jarayonida amaliy ahamiyatga ega. Rang-barang vizual materiallardan foydalanish bolalar ongida ma’naviy tushunchalarni shakllantirishda samarali ekanligi ta’kidlangan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekiston sharoitida maktabgacha ta’lim tizimida vizualizatsiya usulining ma’naviy tarbiyada tutgan o’rnini aniqlash va uning samaradorligini ilmiy asoslashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’lim va tarbiya hayotning muhim bosqichlaridan biridir. Ushbu davrda berilgan bilim va ko’nikmalar bolaning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida asos bo’lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda globalashuv va “ommaviy madaniyat”ning yosh avlodga bo’lgan ta’siri ortib bormoqda. Shu sababli, bolalarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Vizualizatsiya – bolalar uchun ma’lumotlarni grafik va ko’rgazmali shaklda taqdim etish usuli bo’lib, ta’lim samaradorligini oshirishning zamonaviy vositalaridan biridir. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun vizualizatsiya usulining samaradorligi tahlil qilinadi va uning ma’naviy tarbiyadagi o’rni yoritiladi. Asosiy maqsadi – maktabgacha ta’lim tizimida vizualizatsiyaning ma’naviy-axloqiy

tushunchalarni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash va uning samaradorligini ilmiy asoslashdir. Avvalo, quyidagi tahlillar maqsadga erishish uchun asos vazifasini bajaradi:

1. Nazariy tahlil: “Ma’naviyat” tushunchasining lingvistik va kognitiv asoslari o‘rganiladi.

2. Amaliy kuzatuv: Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy va ma’naviy rivojlanishida vizual ko‘rgazmali materiallarning ta’siri kuzatiladi.

3. Tajribaviy metod: Bolalar bilan o‘tkazilgan didaktik o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali ma’lumotlar yig‘iladi.

Tilning ma’naviy tushunchalarni ifodalashdagi roli katta ahamiyatga ega. Bu tushunchalar bolalarning yoshiga mos tarzda tushuntirilganda va ko‘rgazmali vositalar bilan boyitilganda samaradorlik ortadi. Masalan:

Grafik diagrammalar va tasviriy materiallardan foydalanish orqali ma’naviy-axloqiy tushunchalar ta’rifini soddalashtirish, bolalar yoshiga mos holda tasvirlash va mustahkamlash muhim sanaladi.

Vizualizatsiya maktabgacha yoshdagi bolalar ongida ma’naviy tushunchalarni shakllantirishda quyidagi yo‘nalishlarda yordam beradi:

1. Bolalarning nutqiy savodxonligini oshiradi.

2. Axloqiy va estetik didni rivojlantiradi.

3. Ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatadi, “ma’naviy immuniteti” shakllanadi

Eksperiment natijalariga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy tarbiya uchun quyidagi vositalar samarali ekanligi aniqlandi:

**1. Rang-barang diagrammalar va grafikalar orqali ma’naviyatga oid tushunchalar o‘rgatiladi:** Bu usul bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. Masalan, “yaxshi va yomon”, “oq va qora” va “ezgulik va yovuzlik” kabi tushunchalarni solishtiruvchi grafikalar bolalarda chuqur tushunchalarni shakllantirdi.

**2. Multfilmlar va slaydlar:** Ko‘rgazmali materiallar bolalarning diqqatini jalb qilish bilan birga, ular tomonidan yaxshiroq eslab qolinishini ta’minladi. Bundan tashqari har bir xalqning milliy-ma’naviy xususiyatlarini, urf-odatlarini yorqin aks ettiradi. Xususan, bunda bolalar nutqi o‘sadi hamda ma’naviyatga oid tushunchalar haqida ilk tasavvurlar yuzaga keladi.

### **3. Didaktik o‘yinlar:**

Bolalar bilan o‘tkazilgan “axloqli bola va axloqsiz bola”, “ustoz va shogird”, “aqlvoy va bilmasvoy”, “egriyoy va to‘g‘riyoy” kabi rolli o‘yinlar orqali axloqiy tushunchalarni shakllantirish muvaffaqiyatli bo‘ldi. Ushbu o‘yinlar bolalarni o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishga va xulosa chiqarishga o‘rgatdi.

### **4. Bolalarning nutq va fikrlash qobiliyatlari:**

Vizualizatsiyaga asoslangan darslarda qatnashgan bolalarda yangi tushunchalarni eslab qolish darajasi ancha yuqori bo‘ldi. Shuningdek, ular badiiy va estetik materiallar yordamida o‘z fikrlarini aniqroq ifodalashga o‘rganishdi.

Tadqiqot natijalarini jahon tajribasi bilan qiyoslash maqsadida vizualizatsiya usulining turli mamlakatlardagi o‘rni tahlil qilindi. Xususan, xorijiy mamlakatlarida ushbu yondashuv maktabgacha ta’limda ijtimoiy-siyosiy voqealarga asoslangan axloqiy tushunchalarni aks ettirish holatida qo‘llanilayotgani kuzatildi. Ammo O‘zbekiston

sharoitida ushbu metodni milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan va moslashtirgan holda qo'llash imkoniyatlari kuzatilgan.

O'zbek madaniyati va ma'naviyatiga xos tushunchalar bolalar ongida shakllanishi uchun ularni yoshga mos grafikalar, animatsiyalar va interaktiv texnologiyalar orqali taqdim etish muhimdir. Bu jarayonda ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

I. 1. Ma'naviyatga oid tushunchalarni eslab qolish samaradorligi ijobiy natijani ko'rsatdi, ya'ni vizualizatsiya vositalari bilan ta'lim olgan bolalar esda qoldirish samaradorligi 85% ga yetdi, vizualizatsiyasiz esa 60% bo'lib qoldi. (15% farqli)

2. Didaktik o'yinlarga bo'lgan qiziqish darajasi ijobiy natija berdi. Didaktik o'yinlar bilan shug'ullangan bolalar qiziqish darajasi 80% ni tashkil etdi, o'yinlarsiz esa bu ko'rsatkich 50% ni ko'rsatdi.

3. Mantiqiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi:

Vizualizatsiya asosida mashg'ulotlar olgan bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanish darajasi 75% ga yetdi, vizualizatsiyasiz esa 45% da qoldi.

II.1 Interaktiv texnologiyalardan foydalanish samaradorligi:

Interaktiv texnologiyalar bilan ta'lim olgan bolalar eslab qolish samaradorligi 90% ni ko'rsatdi, interaktivsiz esa 55% da qoldi.

2. Oila va muassasa hamkorligi ta'siri:

Oila va ta'lim muassasalari hamkorligi natijasida bolalarning o'quv jarayoniga jalb qilinishi 85% ni tashkil etdi, hamkorliksiz esa bu ko'rsatkich 60% bo'ldi.

3. Bolalarning ma'naviy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi:

Vizualizatsiya asosida o'qitilgan bolalar ma'naviy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi 88% ga yetdi, vizualizatsiyasiz esa 50% bo'ldi.

Shu tahlillar asosida quyidagi takliflarni tavsiya etamiz.

1. Milliy qadriyatlarga asoslangan vizual ta'limni shakllantirish zarur: Bolalarga o'zbek milliy qadriyatlarini singdiruvchi grafik materiallar va didaktik o'yinlarni kengaytirish lozim.

2. Interaktiv texnologiyalardan foydalanish kerak. Ta'lim jarayonida ma'naviyatni targ'ib qilishda multfilmlar, slaydlar va boshqa multimedia vositalarini keng joriy etish kerak.

3. Oila va ta'lim muassasalari hamkorligi yo'lga qo'yish shart. Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida muntazam aloqa o'rnatish, bolalarning ma'naviy rivojlanishiga oid ma'lumotlarni almashish maqsadga muvofiq.

4. Vizual ta'limni yo'lga qo'yish uchun o'qituvchilarni tayyorlash. "Ma'naviyat" kategoriyasini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatishda vizualizatsiya texnologiyalari bo'yicha maxsus seminar va treninglarni tashkil etish lozim hamda IT mutaxassislarini jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yuldashev F. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini”. Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – B. 55
2. Imiddinovich Q. S. Chet tillarni o‘qitishning zamonaviy metodlarini takomillashtirish assoslari, 2023. 2(18), 14-19. 7.
3. Quziyev S. Maxsus atamalarni o‘qitishning nazariy metodik asoslari. Молодые ученые, 2023. 1(3), 92-95
2. Nyuman L.L., Tanyi R. “Cognitive Approaches in Child Education”. Cambridge University Press, 2018.
3. Ahmedova M. “Typological Aspects of National Spirituality”. Oxford Linguistic Journal, 2020.
4. Ezotericheskiy slovar ot A do Ya / M. M. Bublichenko. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2007. – 252 s.: il. – (Psixologicheskiy praktikum) (X-fayli). – Bibliogr.: s. 237-245.– ISBN 978-5-222-11982-2
5. Tufte, Edward R. The Visual Display of Quantitative Information, 1983. – P 197
6. Healy, Kieran. Data Visualization: A Practical Introduction, 2018. –P. 233

## MAGISTRATURA BOSQICHI TALABALARINING KO‘P MADANIYATLILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

**To‘xtayeva Qo‘ysin,**  
*Navoiy davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada magistratura bosqichi talabalari uchun ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasini shakllantirish dolzarbligi va zarurati, uning mazmuni, metodik yondashuvlari, asosiy tarkibiy qismlari hamda uni shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasining rivojlanishi zamonaviy ta‘lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida talabalarning global va madaniy jihatdan xabardor, tolerant va moslashuvchan, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi hamda global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur omildir.

**Kalit so‘zlar:** ko‘pmadaniyatlilik, kompetensiya, magistratura talabalari, madaniy kompetensiya, tolerantlik, zamonaviy ta‘lim, integratsiya.

**Kirish.** Globalizatsiya va integratsiya jarayonlari zamonaviy insonlardan nafaqat kasbiy bilimlar, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini ham talab qilmoqda. Ayniqsa, magistratura bosqichi talabalari uchun ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasi xalqaro loyihalar, xorijiy amaliyotlar va ilmiy tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu kompetensiyani rivojlantirish oliy ta‘lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biridir. Trompenaars & Hampden-Turner, (1997) ta‘kidlab o‘tganidek, ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasi shaxsning boshqa madaniyatlarni tushunish, hurmat qilish va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya kognitiv, emotsional va amaliy-kommunikativ komponentlardan iborat bo‘lib, har biri talabalarning global muhitda moslashuvchanligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi [1]. Kognitiv komponent shaxsning turli madaniyatlar haqidagi bilimlari va ularni tahlil qilish qobiliyatiga asoslanishi ilmiy asoslangan bo‘lib, komponent quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

**Madaniy bilimlar komponenti** har xil xalqlarning tarixi, dini, urf-odatlarini, qadriyatlar va ijtimoiy normalari haqidagi ma‘lumotlar.

**Madaniyatlararo farqlar** individualizm va kollektivizm, vaqtga munosabat, muomala uslublari kabi farqlarni tushunish.

**Tushunmovchilik sabablarini anglash** madaniyatlararo ziddiyatlarning kelib chiqishini tahlil qilish.

**Madaniyatlararo tafakkur** etnosentrizmdan (o‘z madaniyatini ustun qo‘yish) relativistik yondashuvga (har bir madaniyatning tengligini qabul qilish) o‘tish va o‘xshashlik-farqlarni tahlil qilish.

**Tushunchaviy tayyorgarlik:** Stereotip, empatiya, madaniyatlararo kompetentsiya kabi atamalarni bilish, xalqaro etiket va nutq etikasi qoidalaridan xabardorlik.

**Madaniy kontekstda tahlil:** Yozma va og‘zaki matnlarni, shuningdek, simvollar, ranglar, imo-ishoralar va metaforalarni madaniy kontekstda to‘g‘ri talqin qilishda muhim o‘rin tutadi.

Kognitiv komponent talabalarga madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklarning oldini olish, madaniy kontekstni inobatga olish va o‘z faoliyatini turli muhitlarga moslashtirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, akademik yozuv, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash va xalqaro tadbirlarda ishtirok etishda muhimdir. Emotsional komponent ko‘pmadaniyalilik kompetentsiyasining hissiy va psixologik asosini tashkil etadi. U talabalarda boshqa madaniyat vakillariga nisbatan hurmat, empatiya, bag‘rikenglik va ochiqlikni shakllantirishga qaratilgan. Asosiy jihatlaridan *empatiya* o‘zga madaniyat vakillarining dunyoqarashi, qadriyatlar va hissiyotlarini tushunish va ularning o‘rnida o‘zini tasavvur qilish tarzida tushuniladi. *Madaniy sezgirlik* ham turli madaniyatlarga ehtiyotkorlik va hurmat bilan yondashish, kommunikativ etikani rivojlantirish xususiyatlaridan sanaladi. *Tolerantlik* o‘zga fikr, e‘tiqod va hayot tarzini qabul qilish, madaniy xilma-xillikni boylik sifatida qadrlash. Ichki ochiqlik va qiziqish yangi madaniyatlarni o‘rganishga ijobiy munosabat va global muhitda moslashishga tayyorlik. *Emotsional komponent* “yumshoq ko‘nikmalar” (soft skills) sifatida talabalarga madaniy stereotiplardan xoli fikrlash, stressni boshqarish, emotsional nazoratni rivojlantirish va jamoaviy ishlarda o‘zaro anglashuvga erishish imkonini beradi. Taylor (1994) ta’kidlaganidek, “madaniyatlararo kompetentsiyaning yuragi – bu boshqa insonlarning madaniyatini inson sifatida qadrlashdir” [2].

Deardorff (2006) esa bu komponentni hurmat, ochiqlik, qiziqish va empatiya sifatida ta’riflaydi va har bir komponentning xususiyatini ochib beradi. Jumladan, amaliy-kommunikativ komponent shaxsning turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qilish va moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent lingvistik, paralingvistik va strategik jihatlarini qamrab olishi baribarida samarali nutq tuzish, fikrni aniq, lo‘nda va maqsadga yo‘naltirilgan holda bayon etish imkonini beradi. Madaniy mos til birikmalari iltifot, salomlashish, minnatdorchilik kabi nutq odobiga rioya qilishni nazarda tutadi. Nutq uslubini moslashtirishda rasmiy va norasmiy muhitlarga mos til tanlash ham diqqat markazida bo‘lish talab etiladi. *Pragmatik moslashuv xususiyati* iboralarning madaniy qabul qilinishini tushunish va faol tinglash orqali to‘g‘ri munosabat bildirishda namoyon bo‘ladi. [3] Masalan, ingliz tilida “*How are you?*” iborasi oddiy salomlashuv sifatida ishlatiladi, lekin o‘zga madaniyatda so‘zma-so‘z tushunilsa, noto‘g‘ri javob berilishi mumkin.

Gudykunst (2003) ta’kidlaganidek, noverbal ko‘nikmalar tana tili, yuz ifodasi, imo-ishora, ovoz ohangi va shaxsiy masofa orqali axborot yetkazishga xizmat qiladi. Asosiy elementlar sifatida yuz ifodalari (his-tuyg‘ularni to‘g‘ri anglash va ifodalash); imo-ishoralar (qo‘l va tana harakatlarining madaniy ma’nolarini tushunish); ko‘z bilan aloqa madaniy farqlarga mos ravishda tik qarash yoki qarashdan qochish (masalan,

AQShda ko‘z bilan aloqa ishonchlilik belgisi, Osiyo madaniyatlarida esa hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin); tana holati (ochiq va hurmatli holatda bo‘lish) ovoz ohangi so‘z mazmunining ohangga bog‘liqligini anglash; shaxsiy masofa (madaniy farqlarga qarab yaqinlik masofasini belgilash) [4].

Verbal va noverbal signallarning uyg‘unligi madaniyatlararo muloqotda muhimdir, chunki ularning ziddiyati tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot jarayonida verbal va noverbal signallar o‘zaro mos va uyg‘un bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Porter va McDaniel (2010) o‘zining tadqiqotlarida ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasi (multicultural competence) masalasini o‘rganib, uning bir nechta muhim jihatlari aniqlaganlar.[5] Ularning ishi asosan psixologiya va maslahat berish sohasiga qaratilgan bo‘lib, ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasini professional faoliyatda, xususan, psixologik maslahat va ta‘lim kontekstida qo‘llashga e‘tibor qaratadi. Agar so‘z va tana harakati bir-biriga zid bo‘lsa, bu holat muloqotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Samovar, Porter va McDaniel (2010) tomonidan ta‘kidlanganidek, “o‘zga madaniyat vakillari bilan madaniy jihatdan mos keluvchi til uslubida muloqot qilishda noverbal signallar va imo-ishoralarning har xil madaniy kontekstlarda turlicha ma‘noga ega ekanligini anglash zarurdir” [5]. Masalan, ko‘z bilan tik qarash, tana tili, shaxsiy masofa kabi unsurlar har xil madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan komponentlardan biri bu pragmatik moslashuvdir. Bu, bir xil iboraning turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishini his qilish, til va nutq moslashuvchanligini ta‘minlash, madaniy va stilistik kontekstga mos ravishda kommunikatsiyani amalga oshirishni bildiradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, madaniyatlararo aloqa davomida stilistik, madaniy va kontekstual moslashuv ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi. Bunday moslashuvga soddalashtirilgan, madaniy jihatdan neytral til vositalarini tanlash, kommunikatsion to‘siqlarni aniqlash va ularni yengib o‘tish strategiyalarini qo‘llay olish kabi jihatlar kiradi. Byram (1997) o‘z tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlab, ularni quyidagicha tasniflaydi: lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, madaniy va strategik kompetensiyalar. Bu komponentlar, ayniqsa, madaniy kontekstda samarali va mazmunli muloqot qurishda asosiy rol o‘ynaydi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida muvaffaqiyatli strategiyalarni qo‘llash ham muhim ahamiyatga ega. Bunday strategiyalarga diqqat bilan tinglash, sukunatni to‘g‘ri talqin qilish, tanqidiy fikrni yumshoq va madaniy jihatdan mos shaklda yetkazish, yuz saqlash (face-saving) strategiyalarini qo‘llash (masalan, kelishmovchilikni bevosita emas, balki bilvosita yo‘l bilan ifodalash yoki ijobiy tilda bahslashish), konflikt holatida madaniy jihatdan to‘g‘ri javob qaytarish va vositachilik qilish kabilar kiradi. Ting-Toomey (1999) madaniy “face” tushunchasiga asoslangan holda madaniyatlararo muomala strategiyalarini tahlil qilib, madaniyatlararo muloqotda yuzni saqlashga oid strategik yondashuvlarni ishlab chiqqan. Shuningdek, samarali hamkorlik va jamoaviy faoliyatda turli madaniyat vakillari bilan birgalikda ishlash, kelishuv va kompromisga erisha olish, ochiq fikrli bo‘lish, global muhitda xalqaro akademik va kasbiy faoliyatda o‘zini tutish madaniyatini shakllantirish, hamda “kross-madaniy” loyihalarda kommunikatsion roldan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyalari muhim o‘rin egallaydi[6].

Byram (1997) e’tirof etganidek, amaliy-kommunikativ komponent ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasining “hayotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan” eng muhim jihati hisoblanadi. Aynan mana shu komponent orqali talabaning madaniyatlararo muloqotdagi real tayyorgarligi aniqlanadi. Bu komponent nafaqat til bilimini, balki madaniyatga mos strategik yondashuvlarni, ijtimoiy hamda madaniy moslashuvni ham o‘z ichiga oladi. Madaniy xabardorlik komponenti esa shaxsning o‘z madaniyati va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tan olish, anglash va ularni hurmat qilishga yo‘naltirilgan ongli idrokij jarayondir. Bu kompetensiya madaniyatlararo muloqotning boshlang‘ich, ammo zaruriy pog‘onasi hisoblanadi. [7] Byram (1997) “madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda madaniy xabardorlik interkultural ko‘nikmalarning markaziy elementi hisoblanadi” deb ta’kidlaydi. Tomalin va Stempleski (1993) esa “madaniy xabardorlik” nafaqat boshqa madaniyatni tushunish, balki o‘z madaniyatiga tahliliy yondashuv bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini qayd etadi. [8] Nemis olimi Hofstede (2001) “Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations” nomli tadqiqot ishida madaniy xabardorlik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida o‘z madaniyatini anglash (self-awareness), ya’ni o‘z qadriyatlari, ijtimoiy normalari, madaniy odatlari va ularning boshqa madaniyatlar bilan solishtirganda qanday ko‘rinish olishini tushunishni ta’kidlaydi. Shuningdek, u etnosentrizm – ya’ni o‘z madaniyatini ustun qo‘yish tendensiyasidan xabardorlikni muhim element sifatida qayd etgan. O‘zga madaniyatni anglash (cultural awareness) komponenti Bennett (1993) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, turli madaniyatdagi odat, qadriyat, dunyoqarash va muloqot uslublarining farqlarini tushunish, madaniy stereotiplar va umumlashtirishlardan xoli holda turfa madaniyatlarni qabul qilishni nazarda tutadi. Reflektiv tahlil (reflexivity) komponenti esa shaxsning o‘z fikrlarini madaniy kontekstda baholash va yangilashga tayyor bo‘lishi, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda o‘zining qanday rol o‘ynayotganini tushunishga qaratilgan tahliliy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

**1-jadval. Madaniy xabardorlik darajalarining ifodalanishi**

	<b>Daraja</b>	<b>Tavsif</b>
1.	Madaniy befarqlik	Madaniyatlar o‘rtasidagi farq sezilmaydi.
2.	Etno-sentrizm	O‘z madaniyati ustun deb hisoblanadi.
3.	Qiziqish va ochiqlik	Boshqa madaniyatlarni o‘rganishga qiziqish paydo bo‘ladi.
4.	Empatik anglash	Boshqa madaniyatlarni ularning nuqtai nazaridan anglashga harakat qilinadi.
5.	Integratsiya	Bir necha madaniy kontekstda erkin harakat qila olish darajasi.

Madaniy xabardorlikning amaliy ahamiyati ta’lim jarayonida quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi: xorijiy til o‘rgatish jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy ma’lumotlarni singdirish; xalqaro hamkorlikda samarali ishtirok etish (global muhitda ishlash va o‘qish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish); shaxsiy rivojlanishda esa insonning tolerantlik, empatiya va ochiqlik fazilatlarini rivojlantirishda xizmat qiladi. Madaniy sezgirlik komponenti esa shaxsning boshqa madaniyat vakillariga

nisbatan hurmat, empatiya, muloyimlik va moslashuvchanlik bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Bu ko‘nikma shaxsga turli madaniy muhitlarda tajovuzkorlikdan holi, empatik va soddalashtirilgan yondashuv asosida muloqot qilish imkonini beradi. Samovar va Porter (2010) fikriga ko‘ra, madaniy sezgirlik bu “odamlarning boshqa madaniyat vakillari his-tuyg‘ulari va qadriyatlarini ularning nuqtai nazaridan tushunishga va hurmat bilan yondashishga tayyorligidir.”[9] Deardorff (2006) esa madaniy sezgirlikni ko‘p madaniyatlilik kompetensiyasining markaziy affektiv elementi sifatida belgilaydi.

Bennett (1993) “Basic Concepts of Intercultural Communication” nomli tadqiqotida madaniy sezgirlikni hurmat va bag‘rikenglik, o‘zga madaniyatda mavjud bo‘lgan odat va qadriyatlarni tan olish, baholamasdan qabul qilish hamda farqlarga nisbatan ochiqlik bilan yondashish kabi jihatlar orqali ifodalaydi. Empatiya – bu o‘zga insonning madaniy kontekstini “ichkaridan” his qilish, ularning holatini tushunishga harakat qilish va muloqotda madaniy sezgirlik orqali ijobiy psixologik muhit yaratishdir.[10] Shuningdek, Bennett ego-relativizm (ethno-relativism) tushunchasini ilgari suradi, ya’ni o‘z madaniyatini yagona haqiqat deb bilmasdan, uni boshqa madaniyatlar bilan teng darajada qabul qilish, madaniy farqlarni esa muammo emas, balki boylik sifatida ko‘ra bilishni tavsiya etadi.

**2-jadval. Bennett modeliga ko‘ra madaniy sezgirlik bosqichlari (DMIS)**

	<b>Bosqich</b>	<b>Tavsif</b>
<b>1.</b>	Etno-sentriзм	O‘z madaniyati yagona to‘g‘ri model deb hisoblanadi.
<b>2.</b>	Mudofaa	Boshqa madaniyatlar haqida salbiy fikrlar mavjud.
<b>3.</b>	Minimallashtirish	Madaniy farqlar ko‘rinmaydi yoki inkor qilinadi.
<b>4.</b>	Qabul qilish	Madaniy farqlar tan olinadi.
<b>5.</b>	Moslashuv	Muloqotda madaniy xususiyatlarga moslashuv mavjud.
<b>6.</b>	Integratsiya	Bir nechta madaniy tizimlarda erkin harakat qila olish darajasi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida verbal va noverbal signallar o‘zaro mos va uyg‘un bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Agar so‘z va tana harakati bir-biriga zid bo‘lsa, bu holat muloqotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Samovar, Porter va McDaniel (2010) tomonidan ta’kidlanganidek, o‘zga madaniyat vakillari bilan madaniy jihatdan mos keluvchi til uslubida muloqot qilishda noverbal signallar va imo-ishoralarning har xil madaniy kontekstlarda turlicha ma’noga ega ekanligini anglash zarurdir.[11] Masalan, ko‘z bilan tik qarash, tana tili, shaxsiy masofa kabi unsurlar har xil madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan komponentlardan biri - pragmatik moslashuvdir. Bu, bir xil iboraning turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishini his qilish, til va nutq moslashuvchanligini ta’minlash, madaniy va stilistik kontekstga mos ravishda kommunikatsiyani amalga oshirishni bildiradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, madaniyatlararo aloqa davomida stilistik, madaniy va kontekstual moslashuv ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi. Bunday moslashuvga soddalashtirilgan, madaniy

jihatdan neytral til vositalarini tanlash, kommunikatsion to‘siqlarni aniqlash va ularni yengib o‘tish strategiyalarini qo‘llay olish kabi jihatlar kiradi. Byram (1997) o‘z tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlab, ularni quyidagicha tasniflaydi: lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, madaniy va strategik kompetensiyalar. [12] Bu komponentlar, ayniqsa, madaniy kontekstda samarali va mazmunli muloqot qurishda asosiy rol o‘ynaydi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida muvaffaqiyatli strategiyalarni qo‘llash ham muhim ahamiyatga ega. Bunday strategiyalarga diqqat bilan tinglash, sukunatni to‘g‘ri talqin qilish, tanqidiy fikrni yumshoq va madaniy jihatdan mos shaklda yetkazish, yuz saqlash (face-saving) strategiyalarini qo‘llash (masalan, kelishmovchilikni bevosita emas, balki bilvosita yo‘l bilan ifodalash yoki ijobiy tilda bahslashish), konflikt holatida madaniy jihatdan to‘g‘ri javob qaytarish va vositachilik qilish kabilar kiradi. Ting-Toomey (1999) madaniy “face” tushunchasiga asoslangan holda madaniyatlararo muomala strategiyalarini tahlil qilib, madaniyatlararo muloqotda yuzni saqlashga oid strategik yondashuvlarni ishlab chiqqan. Shuningdek, samarali hamkorlik va jamoaviy faoliyatda turli madaniyat vakillari bilan birgalikda ishlash, kelishuv va kompromissga erisha olish, ochiq fikrli bo‘lish, global muhitda xalqaro akademik va kasbiy faoliyatda o‘zini tutish madaniyatini shakllantirish, hamda “kross-madaniy” loyihalarda kommunikatsion roldan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyalari muhim o‘rin egallaydi. Amaliy-kommunikativ komponent ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasining “hayotga tadbiiq etilishi mumkin bo‘lgan” eng muhim jihati hisoblanadi. Aynan mana shu komponent orqali talabning madaniyatlararo muloqotdagi real tayyorgarligi aniqlanadi. Bu komponent nafaqat til bilimini, balki madaniyatga mos strategik yondashuvlarni, ijtimoiy hamda madaniy moslashuvni ham o‘z ichiga oladi. Madaniy xabardorlik komponenti esa shaxsning o‘z madaniyati va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tan olish, anglash va ularni hurmat qilishga yo‘naltirilgan ongli idrokiy jarayondir.[13] Bu kompetensiya madaniyatlararo muloqotning boshlang‘ich, ammo zaruriy pog‘onasi hisoblanadi. Byram (1997) “madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda madaniy xabardorlik interkultural ko‘nikmalarning markaziy elementi hisoblanadi” deb ta’kidlaydi. Tomalin va Stempleski (1993) esa “madaniy xabardorlik” nafaqat boshqa madaniyatni tushunish, balki o‘z madaniyatiga tahliliy yondashuv bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini qayd etadi.[14]

Nemis olimi Hofstede (2001) “Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations” nomli tadqiqot ishida madaniy xabardorlik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida o‘z madaniyatini anglash (self-awareness), ya’ni o‘z qadriyatlari, ijtimoiy normalari, madaniy odatlari va ularning boshqa madaniyatlar bilan solishtirganda qanday ko‘rinish olishini tushunishni ta’kidlaydi. Shuningdek, u etnosentrizm – ya’ni o‘z madaniyatini ustun qo‘yish tendensiyasidan xabardorlikni muhim element sifatida qayd etgan. O‘zga madaniyatni anglash (cultural awareness) komponenti Bennett (1993) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, turli madaniyatga xos odat, qadriyat, dunyoqarash va muloqot uslublarining farqlarini tushunish, madaniy stereotiplar va umumlashtirishlardan xoli holda turfa madaniyatlarni qabul qilishni nazarda tutadi. Reflektiv tahlil (reflective) komponenti shaxsning o‘z fikrlarini madaniy kontekstda baholash va yangilashga tayyor bo‘lishi, shuningdek,

madaniyatlararo muloqotda o‘zining qanday rol o‘ynayotganini tushunishga qaratilgan tahliliy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.[15] Quyidagi 3-jadvalda madaniy xabardorlikning darjalari va tavsifi keltirilgan.

**3-jadval. Madaniy xabardorlik darajalarining ifodalanishi**

	<b>Daraja</b>	<b>Tavsif</b>
1.	Madaniy befarqlik	Madaniyatlar o‘rtasidagi farq sezilmaydi.
2.	Etno-sentriзм	O‘z madaniyati ustun deb hisoblanadi.
3.	Qiziqish va ochiqlik	Boshqa madaniyatlarni o‘rganishga qiziqish paydo bo‘ladi.
4.	Empatik anglash	Boshqa madaniyatlarni ularning nuqtai nazaridan anglashga harakat qilinadi.
5.	Integratsiya	Bir necha madaniy kontekstda erkin harakat qila olish darajasi.

Madaniy xabardorlikning amaliy ahamiyati ta’lim jarayonida quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi: xorijiy til o‘rgatish jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy ma’lumotlarni singdirish; xalqaro hamkorlikda samarali ishtirok etish (global muhitda ishlash va o‘qish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish); shaxsiy rivojlanishda esa insonning tolerantlik, empatiya va ochiqlik fazilatlarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Madaniy sezgirlik komponenti esa shaxsning boshqa madaniyat vakillariga nisbatan hurmat, empatiya, muloyimlik va moslashuvchanlik bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Bu ko‘nikma shaxsga turli madaniy muhitlarda tajovuzkorlikdan holi, empatik va soddalashtirilgan yondashuv asosida muloqot qilish imkonini beradi. Samovar va Porter (2010) fikriga ko‘ra, madaniy sezgirlik bu “odamlarning boshqa madaniyat vakillari his-tuyg‘ulari va qadriyatlarini ularning nuqtai nazaridan tushunishga va hurmat bilan yondashishga tayyorligidir.” [16] Deardorff (2006) esa madaniy sezgirlikni ko‘pmadaniyatlilik kompetensiyasining markaziy affektiv elementi sifatida belgilaydi. Bennett (1993) “Basic Concepts of Intercultural Communication” nomli tadqiqotida madaniy sezgirlikni hurmat va bag‘rikenglik, o‘zga madaniyatda mavjud bo‘lgan odat va qadriyatlarni tan olish, baholamasdan qabul qilish hamda farqlarga nisbatan ochiqlik bilan yondashish kabi jihatlar orqali ifodalaydi. [17] Empatiya – bu o‘zga insonning madaniy kontekstini “ichkaridan” his qilish, ularning holatini tushunishga harakat qilish va muloqotda madaniy sezgirlik orqali ijobiy psixologik muhit yaratishdir. Shuningdek, Bennett ego-relativizm (ethno-relativism) tushunchasini ilgari suradi, ya’ni o‘z madaniyatini yagona haqiqat deb bilmasdan, uni boshqa madaniyatlar bilan teng darajada qabul qilish, madaniy farqlarni esa muammo emas, balki boylik sifatida ko‘ra bilishni tavsiya etadi.

**4- jadval. Bennett modeliga ko‘ra madaniy sezgirlik bosqichlari (DMIS)**

	<b>Bosqich</b>	<b>Tavsif</b>
1.	Etno-sentriзм	O‘z madaniyati yagona to‘g‘ri model deb hisoblanadi.
2.	Mudofaa	Boshqa madaniyatlar haqida salbiy fikrlar mavjud.

3.	Minimallashtirish	Madaniy farqlar ko‘rinmaydi yoki inkor qilinadi.
4.	Qabul qilish	Madaniy farqlar tan olinadi.
5.	Moslashuv	Muloqotda madaniy xususiyatlarga moslashuv mavjud.
6.	Integratsiya	Bir nechta madaniy tizimlarda erkin harakat qila olish darajasi.

Madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish uchun nafaqat lingvistik bilim, balki madaniyatlararo kompetensiyalarning barcha komponentlari, jumladan, madaniy xabardorlik, madaniy sezgirlik, reflektiv yondashuv va kommunikativ strategiyalarni egallash talab etiladi. Turli madaniy muhitlarda muvaffaqiyatli aloqa o‘rnatish, shaxsiy va professional rivojlanish, shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasidagi integratsiyani ta‘minlash ushbu kompetensiyalarning puxta shakllanganligiga bog‘liqdir.

**Metodika**

Mazkur tadqiqotda sifatli kontent tahlili usuli asosida xorijiy adabiyotlar (Samovar et al., 2010; Byram, 1997; Hofstede, 2001; Bennett, 1993; Deardorff, 2006; Tomalin & Stempleski, 1993) hamda turli madaniyatlararo kompetensiya modellari o‘rganildi. Asosiy e‘tibor madaniyatlararo muloqotda qo‘llaniladigan verbal va noverbal signallar, madaniy sezgirlik bosqichlari, kommunikativ strategiyalar, shuningdek, madaniyatga moslashuv yo‘llariga qaratildi. Shuningdek, mavjud nazariy modellar asosida madaniyatlararo kompetensiyaning amaliy ahamiyati va ta‘limdagi roli tahlil qilindi. O‘tkazilgan kontent tahlil natijalariga ko‘ra, madaniyatlararo kompetensiya quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgani aniqlandi:

1. **Madaniy xabardorlik** – shaxsning o‘z va boshqa madaniyat o‘rtasidagi farqlarni tan olish, tushunish va hurmat qilishga yo‘naltirilgan ongli idrok jarayoni. Byram (1997) tomonidan bu komponent madaniyatlararo kompetensiyaning markaziy elementi sifatida e‘tirof etilgan. Tomalin & Stempleski (1993) ham ushbu komponentga o‘z madaniyatga nisbatan tahliliy yondashuv zarurligini ta‘kidlaydi.

2. **Madaniy sezgirlik** – shaxsning boshqa madaniyat vakillariga nisbatan hurmat, empatiya, muloyimlik va moslashuvchanlik bilan muloqot qilish qobiliyatidir. Deardorff (2006) uni affektiv komponent sifatida belgilagan. Bennett (1993) tomonidan ishlab chiqilgan DMIS modelida madaniy sezgirlik bosqichlari: etno-sentrizm, mudofaa, minimallashtirish, qabul qilish, moslashuv va integratsiya bosqichlarida ifodalanadi.

3. **Reflektiv tahlil (Reflexivity)** – shaxsning madaniy kontekstda o‘z fikrlarini tahlil qilish va yangilashga tayyorligi, madaniyatlararo muloqotda o‘zining qanday rol o‘ynashini anglay olishi bilan belgilanadi.

4. **Pragmatik moslashuv** – kommunikatsiyada madaniyatga mos til uslubini tanlash, stilistik va kontekstual moslashuvni ta‘minlash, kommunikatsion to‘siqlarni aniqlab, ularni bartaraf etish strategiyalarini qo‘llay bilish.

5. **Verbal va noverbal signallar uyg‘unligi** – so‘z va tana harakatining uyg‘un bo‘lishi muhim omil bo‘lib, qarama-qarshilik mavjud bo‘lsa, bu tushunmovchilikka olib kelishi mumkin (Samovar et al., 2010). [18] Quyidagi jadvalda madaniy xabardorlik darajalari va madaniy sezgirlik bosqichlari keltrilmoqda.

**5-jadval. Madaniy xabardorlik darajalari tavsifi**

	<b>Daraja</b>	<b>Tavsif</b>
1.	Madaniy befarqlik	Madaniyatlar o‘rtasidagi farq sezilmaydi
2.	Etno-sentrizm	O‘z madaniyati ustun deb bilinadi
3.	Qiziqish va ochiqlik	O‘zga madaniyatlarni o‘rganishga qiziqish mavjud
4.	Empatik anglash	O‘zga madaniyatlarni ularning nuqtai nazaridan tushunishga urinish
5.	Integratsiya	Turli madaniy kontekstlarda erkin harakat qila olish qobiliyati

Shuningdek, madaniy sezgirlik bennet tominidan ham tahlil qilib, uning nazariyasiga ko‘ra, 6 bosqichdan iborat. Har bir bosqich o‘zining ta’rif-tavsiga ega bo‘ladi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir bosqich o‘z tavsifi doirasida muloqot chog‘gida funktsional vazifani bajaradi.

**6 - jadval. Bennett (DMIS) modeliga ko‘ra madaniy sezgirlik bosqichlari**

	<b>Bosqich</b>	<b>Tavsif</b>
1.	Etno-sentrizm	O‘z madaniyati yagona model deb qaraladi
2.	Mudofaa	O‘zga madaniyatlarga nisbatan salbiy fikrlar mavjud
3.	Minimallashtirish	Madaniy farqlar inkor qilinadi
4.	Qabul qilish	Madaniy farqlar tan olinadi
5.	Moslashuv	Muloqotda moslashuv ko‘zga tashlanadi
6.	Integratsiya	Ko‘p madaniyatli tizimlarda erkin harakat qila olish

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiyaning samarali shakllanishi nafaqat til bilimiga, balki shaxsning madaniy kontekstda sezgir, xabardor va reflektiv yondashuviga ham bog‘liqdir. Ayniqsa, xorijiy tilni o‘rgatishda lingvistik bilim bilan birga madaniy kontekst va kommunikativ strategiyalarni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar talabalarda madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish uchun simulyatsiya, rolli o‘yinlar, real madaniyatlararo holatlar tahlili kabi faol metodlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Ko‘p madaniyalilik kompetensiyasi magistratura talabalari uchun global muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv komponent madaniy bilimlar va tahlil qobiliyatini, emotsional komponent hurmat, empatiya va tolerantlikni, amaliy-kommunikativ komponent esa samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi talabalarga madaniyatlararo muloqotda moslashuvchanlik va samaradorlikni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun madaniy treninglar, xalqaro loyihalar va reflektiv yozuvlardan foydalanish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Trompenaars & Hampden-Turner, (1997) *Riding the waves of culture*.
2. Taylor (1994). "The Politics of Recognition" in *Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition* (Princeton University Press, 1994).
3. Deardorff, D. K. (2006). *Identification and assessment of intercultural competence*.
4. Gudykunst, W. B. (2003). *Cross-cultural and intercultural communication*. Sage Publications.
5. Porter va McDaniel (2010). Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2010). *Intercultural communication: A reader* (13th ed.). Wadsworth Cengage Learning.
6. Ting-Toomey (1999). Ting-Toomey, S. (1999). *Communicating across cultures*. The Guilford Press.
7. Byram (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*.
8. Tomalin va Stempleski (1993). Tomalin, B., & Stempleski, S. (1993). *Cultural awareness*. Oxford University Press.
9. Samovar va Porter (2010). Samovar, L. A., & Porter, R. E. (2010). *Communication between cultures* (7th ed.). Wadsworth Cengage Learning.
10. Bennett, M. J. (1993). *Towards ethnorelativism: A developmental model of intercultural sensitivity*.
11. Samovar, Porter va McDaniel (2010). Samovar, L. A., Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2010). *Communication between cultures* (7th ed.). Wadsworth Cengage Learning.
12. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.



## USMON NOSIR SHE'RLARIDA LISONIY BIRLIKLARARO SINONIMLAR LINGVOPOETIKASI



**Yuldashev Jo'rabek,**

*Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,*

**Annotatsiya.** Sinonimlar fikrni aniq va badiiy maqsadga muvofiq ifodalashda juda qo'l keladi. Shuningdek, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, uning zanginligi va ranginligini ta'min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko'lamdorligidir. Bu hodisani yaxshi anglagan so'z san'atkorlari ulardan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Mazkur maqolada ana shu betimsol omillardan biri bo'lgan lisoniy birliklararo ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlari xususida fikr yuritiladi.

**Annotation.** Synonyms are very useful for expressing thoughts clearly and in accordance with artistic purposes. Also, one of the regular and non-specific factors that ensure the high level of development of the language, its richness and color is the scope of the possibilities of the relationship of semantic similarity - synonymy between linguistic units. Word artists who understand this phenomenon well try to use them skillfully. This article discusses the possibilities of the relationship of semantic similarity - synonymy between linguistic units, which is one of these non-specific factors.

**Аннотация.** Синонимы очень полезны для выражения мыслей ясно и в соответствии с художественными целями. Также одним из закономерных и неспецифических факторов, обеспечивающих высокий уровень развития языка, его богатство и красочность, является сфера возможностей отношений семантического сходства - синонимии между языковыми единицами. Художники слова, хорошо понимающие это явление, стараются умело ими пользоваться. В данной статье рассматриваются возможности отношений семантического сходства - синонимии между языковыми единицами, что является одним из таких неспецифических факторов.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, poetik aktuallik, lingvopoetik imkoniyat, leksik-semantik birliklar, sinonimlar, kontekstual sinonim.

**Keywords:** literary text, poetic actuality, linguopoetic possibility, lexical-semantic units, synonyms, contextual synonym.

**Ключевые слова:** художественный текст, поэтическая релевантность, лингвопоэтический потенциал, лексико-семантические единицы, синонимы, контекстуальный синоним.

### **Kirish**

Ushbu maqolada sinonimlarning badiiy matndagi imkoniyatlari xususida fikr yuritiladi. Bilamizki, tilshunoslikda so'zlarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra sinonimlar, antonimlar va omonimlar kabi turlarga ajratish an'anasi juda eskidan

mavjud.<sup>16</sup> Bu turlarning aksariyati ijodkorlar tomonidan badiiy matnda tildagi estetik vazifaning to‘liq namoyon bo‘lishini ta‘minlash maqsadida foydalaniladi. Ta‘kidlash joizki, so‘zlarning mazkur turlari lingvopoetik jihatdan alohida imkoniyatlarga ega.

Sinonimlar fikrni aniq va badiiy maqsadga muvofiq ifodalashda juda qo‘l keladi. Shu sababli so‘z san‘atkorlari ulardan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Tilshunoslar asosli ravishda ta‘kidlaganlaridek, “til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta‘min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma‘nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so‘z gavharlari zaxirasiga sohib tildir”.<sup>17</sup> Shuning uchun ham buyuk shoir va tilimizning benazir bilimdoni Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida bu masalaga alohida to‘xtalgan. Taniqli til tarixchisi Q.Sodiqov Navoiyning ma‘nodoshlik haqidagi qarashlarini bayon qilar ekan, quyidagilarni qayd etadi: “Navoiyning yozishicha, shoirlar mayning ta‘rifida ko‘p mubolag‘a qildilar, may ichmak qoidasida ko‘p so‘z surib, nihoyasiz zarif ta‘riflar zohir qilurlar. Biri *sipqarmaq* lafzidirkim, mubolag‘a bundan o‘tmas... Navoiyning e‘tiroficha, *sipqaray* so‘zining mazmuniga yetganda, forsiy she‘rda bu ta‘rifni berishning iloji yo‘q. Yana *tamshimaq* lafziki, ma‘nosi “g‘oyat zavqdan tez ichmas-u, lazzat topa-topa oz-oz ichar”. Olim Navoiyning yana *bo‘xsamoq*, *yig‘lamaq*, *yig‘lamsinmaq*, *ingramak*, *singramak*, *siqtamaq*, *o‘kurmak*, *inchkirmak*, *hoy-hoy yig‘lamaq* kabi ma‘nodoshlar; *qimsanmaq*, *qizg‘anmaq* kabi ma‘nodoshlar; *xor*, *cho‘kir* kabi ma‘nodoshlar; *bezanmaq*, *yasanmaq* kabi ma‘nodoshlar va boshqa ma‘no nozikliklari haqidagi fikrlarini tahlil qilgan.<sup>18</sup>

**Adabiyotlar tahlili.** Maqolamizni yozishda foydalangan adabiyotlardan eng muhimi, bosh manba, o‘zbek xalqining otashin shoiri Usmon Nosir she‘riy to‘plamlari obyekt sifatida qaraldi va ulardan lisoniy birliklararo sinonimlar tanlab olinib tahlil qilindi. Sinonimlarni nomlarni tahlil qilishda asosan sohaga doir ilmiy adabiyotlar, ularga qo‘shimcha ravishda internet materiallaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Uchbu maqolani yozish jarayonida analiz va sintez metodidan, matnlar mazmunini sharhlashda, talqin qilishda esa germineftikadan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Iste‘dodli shoir Usmon Nosirning sinonimlardan foydalanish mahoratini tadqiq qilishda ikki muhim jihatni e‘tiborga olish lozim bo‘ladi. “Ulardan biri shoirning ikki va undan ortiq ma‘nodosh so‘zdan ifodalanayotgan ma‘no-mazmun uchun eng maqbulini tanlash bo‘lsa, ikkinchisi, ayni

<sup>16</sup>Масалан, қар.: Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.110 – 120.

<sup>17</sup>Маҳмудов Н. Синонимлар – тил зангинлиги ва рангинлиги кўзгуси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – №4. – Б.3.

<sup>18</sup>Содиқов Қ. “Муҳокаматул-луғатайн”ни ўқиб ўрганиш. – Тошкент: ТДШИ, 2011. – Б.12 – 15.

bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh soʻzlarni badiiy tasvir maqsadiga hamohang holda qoʻllashdir”.<sup>19</sup> Usmon Nosir sinonimlardan yuqorida keltirilgan har ikki maqsadda ham foydalanadi va asar tilining badiiy jihatdan mukammal boʻlishiga erishadi.

Oldin shoir ijodida bir matniy butunlikda bir necha sinonim soʻzlarni estetik maqsadda qoʻllash masalasini koʻrib chiqamiz.

Soʻzlarning ma’nodoshlik qatoridagi bir necha soʻzni lingvopoetik maqsad bilan qoʻllash Usmon Nosir she’riyatida koʻp kuzatiladi. Masalan, quyida keltirilgan she’r parchasida tilimizdagi mavjud ma’nodosh soʻzlarni bir butunlik ichida qoʻllash orqali she’rdagi fikrni ta’sirchan ifodalay olgan:

Arzirdi  
*Falakni etsam hadya,*  
 Afsus ...  
*Fazo hali menga qul emas,*  
 Mayli, borimni  
*Aylay armugʻon (“Naxshon”)*

Mazkur parchada *falak*, *fazo*, *hadya etmoq*, *armugʻon etmoq* sinonimik juftliklaridan katta mahorat bilan foydalanadi. *Falak* va *fazo* soʻzlarida *osmon* va *samo* soʻzlariga qaraganda poetik ta’kid kuchliroq ifodalanadi. Shoir nafaqat soʻzni, balki fonemalarni ham poetik aktuallashtiradi. Mazkur she’riy parchani oʻqish jarayonida uning fonetik-fonologik va grafik butunligi yaqqol sezilib turadi. *Hadya* va *armugʻon* soʻzlari morfologik sathda ot soʻz turkumiga mansub ma’nodosh soʻzlar hisoblanadi. Shoir mazkur soʻzlarni *etmoq* va *aylamoq* fe’llari bilan birga qoʻllash orqali ularni statik holatdan dinamik holatga oʻtkazadi.

Usmon Nosir she’rlarida yuqorida ta’kidlaganimizdek, ikki yoki undan ortiq ma’nodosh soʻzlarni aynan bir oʻrinda aniq maqsadga boʻysundirgan holda qoʻllash hollari koʻp uchraydi. Bu oʻrinda sinonimlarning vazifasi tasvir tiniqligini ta’minlash, nazarda tutilayotgan asosiy gʻoyaga urgʻu berishdan iborat boʻladi. “Sinonimlarning eng muhim lingvopoetik vazifasi fikrni benihoya aniq ifodalash vositasi boʻlishidir”.<sup>20</sup> Shoirning “Yoshlik” she’rida sinonimlar aynan shu maqsadda qoʻllanadi va joʻshqinlik, orzularga toʻla bolalikning begʻubor his-tuygʻulari alohida ta’kidlanadi:

*Yoshligimning tarozusi beposangi,*  
 Bir pallasi *bahor* toshi bilan ogʻir:  
*Sevinchim koʻp, shodligim zoʻr, tilim biyron,*  
 Qaysi umr shunday yoshlik koʻrdi axir?!

Mazkur she’riy parchada har bir soʻz ikkinchisiga qoʻlini uzatib turgandek tasavvur uygʻonadi. *Yoshlik* soʻzining oʻzi posangisiz tarozu bilan aloqalantiriladi. Oʻzbek tilida *posangisiz tarozu* birikmasi “betayin” ma’nosida ishlatilish hollari kuzatiladi. Biroq mazkur birikmaning *tarozusi beposangi* tarzida predikativ qurilishda ishlatilishi Usmon Nosir she’ridan olingan mazkur parchada oʻziga xos mazmuniy ta’kidning qabariq ifodalanishiga imkon bergan. Shoir *tarozisi beposangi*

<sup>19</sup>Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.– Б. 185.

<sup>20</sup>Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981, – Б. 7.

birikmasini keyingi satrdagi *palla* soʻzi bilan aloqalantirish orqali matnning butunligini taʼminlaydi. Faqat bugina emas, ilk satrdagi *yoshlik* soʻzini keyingi satrdagi *bahor* soʻzi bilan maʼnodoshlikni namoyon qiladigan holatda uygʻunlashtira olgan. Natijada yoshlikka xos feʼl-atvor, bahorga xos oʻtkinchilik maʼnolari bilan birgalikda oʻzaro mazmuniy-estetik uygʻunlikda faollashadi. Ayni paytda alohida taʼkidlash lozimki, *sevinch*, *shodlik* va *tilning biyronligi* birliklari oʻrtasidagi maʼnodoshlik ham yoshlikka xos qabariq sifatlar tasvirining mantiqiy-ruhiy uygʻunligini taʼminlashga xizmat qilgan.

“Ikki oʻpich” sheʼrida ham *sovgʻa*, *hadya*, *tortiq*, *tuhfa*, *armugʻon*, *inʻom* sinonimik qatoriga mansub *tuhfa*, *armugʻon* maʼnodosh soʻzlari qoʻllanilgan:

Kimga *tuhfa*? Kimga *armugʻon*?

Shunday gullar ilinibdiki,

Qaritmaydi asti koʻngilni!

Mazkur soʻzlar soʻroq qurilma tarkibida kelib, maʼnoni kuchaytirishga hamda matnning sintaktik faolligini taʼminlashga xizmat qilgan. Keyingi satrlardan *tuhfa* va *armugʻon* soʻzlari orqali hadya qilinayotgan narsaning nima ekanligini anglashimiz mumkin. Shoir bunda ham kitobxon qiziqishini yanada orttirish maqsadida toʻliq va oshkora ifoda uslubidan voz kechadi. Yaʼni koʻngilni koʻtaradigan qandaydir gul tortiq qilingan. Biroq uning shakl va shamoyili, turi, koʻrinishi kabilar kitobxonning mustaqil tasavvurotiga qoldiriladi.

Benihoya hassos va dilgir shoir Usmon Nosir shodlikning ham, qaygʻuning ham rost va qabariq rasmlarini chizar ekan, sinonimlarning behad boy zaxirasiga muntazam murojaat qiladi, bir sinonimik qatordagi bir necha soʻzlarni harakatga keltiradi. Masalan, “Naxshon” dostonidagi quyidagi parchaga eʼtibor beraylik:

Xufton. *Qora* bulut

Yashirgan oyni,

Bulut soyasini

Oqizardi soy...

Tentib shamol kabi

Gadodek bejoy,

Sarsonlikning

*Siyoh* yoʻliga kirdim...

Kunlar – *hasrat* makon.

*Dard*. *Alam*. *Kadar*.

Oʻzligimni oʻzim bilmay.

Tilda “*Oh...*”

Koʻrinib turganiday, parchada ikki sinonimik qatorga mansub soʻzlar mavjud, yaʼni: 1) *qora*– *siyoh* va 2) *dard* – *alam* – *kadar*, shubhasizki, bu qatorga *oh* undovi ham mazmuniy-ruhiy jihatdan kira oladi. Ayni paytda mazmuniy jihatdan mazkur ikki sinonimik qatorda tabiiy uygʻunlik mavjud. Oʻquvchi ana shu tasavvur va taxayyul asosida qop-qora qaygʻu va gʻamning chinakam portretini bemalol koʻz oldiga keltirishi mumkin, tabiiyki, bu shoirning sinonimiyadan mohirlik bilan foydalanganligining yorqin dalilidir.

Mazkur “Naxshon” dostonida yana quyidagi misralarni oʻqish mumkin:

Qizim, *charchagansan*,  
*Tolgansan*, erkam.  
 Orom olgin... uxla,  
 O‘zi ham ja kech!

Parchadagi *charchamoq*, *tolmoq* so‘zlari sinonimlar, ammo ularning umumiy ma’nosini tashkil etadigan harakat-holatdagi belgining darajasi bir-biridan farq qiladi, bu belgi darajasi *tolmoq* fe’lida anchayin ortiq, uning ma’nosi “kuch-madori qurimoq, holdan toymoq” dan iboratdir. Shuning uchun ham so‘zga behad hassos munosabatda bo‘lgan Usmon Nosir mazkur holatni yanada aniq tavsiflash, tasvirlash maqsadida shu sinonimga murojaat qilgan.

Ijodkorning mahorati yana shundaki, u faqat tilda mavjud bo‘lgan, tayyor ma’nodosh so‘zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra ma’nodosh bo‘lmagan so‘zlarni ham shunday qo‘llaydiki, bu so‘zlar ham matnda xuddi ma’nodosh so‘zlar kabi idrok etiladi. Bunday kontekstual sinonim (muvaqqat sinonim)dan shoir unumli foydalanadi. Uning “Men ham boraman” she’rida ana shunday kontekstual sinonimlardan poetik ma’noni kuchaytirishda foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin:

Shamollardan bo‘lak  
 Hech na bormagan,  
*Tashna*, *qaqshoq*, xilvat  
 Qumli cho‘llarga  
 Bosib bordi qadam.

*Tashna* asosan odamga nisbatan qo‘llanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘z quyidagicha izohlanadi: *Tashna* [f-chanqoq, suvsagan],<sup>21</sup> *qaqshoq* so‘zi esa quruq va qattiq; qotgan<sup>22</sup> ma’nolarini ifodalaydi. She’rda kontekstual sinonimik so‘zlar qator kelib, ma’noni kuchaytirishga, voqea-hodisa tasvirini tiniqlashtirishga xizmat qilgan.

Shoirning “Quyosh bilan suhbat” she’rida ham xuddi shunday holatni kuzatamiz:

Eskilikka qarshi bir dunyo,  
 Ko‘zdan yiroq iflos mozi u  
*Kirli*, *alamli*, *dog‘li* xulyo

Bu parchada yangilik va eskilik, yangi dunyo va eski dunyo mazmunan zidlantirilyapti. *Dunyo* so‘zi matnda yangi tizim, yangi o‘lkani ifodalasa, qolgan barcha sifatlar hamda *xulyo* (xayollar) eski tizim, eski dunyoni anglatish uchun qo‘llanmoqda. Sifatlashlarning qatorlashib kelishidan kuchli nafratni sezish qiyin emas. Keltirilgan misralarda *kirli*, *alamli*, *dog‘li* so‘zlari ayni matnda bir ma’nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan.

Shoirning “Norbo‘ta” dostonida jangga ketayotgan Norbo‘taning xayolida o‘g‘lidan xavotir olayotgan ona gavdalanadi. Ona shunchaki xavotir olmaydi, u ko‘zida yosh bilan namoyon bo‘ladi. Onaning ko‘z yoshlari dardli, alamli:

Xayolida g‘arib onasi

<sup>21</sup>ЎТИЛ, 4-жилд. – Б. 24.

<sup>22</sup>ЎТИЛ, 5-жилд. – Б. 271.

Yosh to‘kadi har bir donasi  
 Yarog‘lanib *dard-u g‘am bilan*,  
*Qayg‘u, alam va sitam bilan*  
 Askar kabi o‘tar oldidan.

Mazkur misolda o‘zbekcha, forsha va arabcha qatlamlarga mansub *dard*, *g‘am*, *qayg‘u*, *alam va sitam* sinonimlari bir o‘rinda yonma-yon qo‘llanganligini ko‘ramiz. Bu sinonimlarni yonma-yon qo‘llash nutqda g‘alizlikni keltirib chiqarmaydi, aksincha, ma‘noni kuchaytirib badiiylikni yuqori pog‘onaga ko‘taradi.

Usmon Nosir o‘zbek tilining rang-barang imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishga harakat qilgan. Shoirning “Bodom gullagan kechasi” she‘ridan keltirilgan parchada *kuch va quvvat* ma‘nodosh so‘zlari biror ishni amalga oshirishga qaratilgan, biror maqsad uchun foydalanadigan narsa ma‘nolarini bildirgan:

Safarbar bo‘lsin  
 Buyuk ish planiga  
*Kuch, quvvat, ong!..*

Ushbu she‘rning keyingi misralarida *zarra*, *mayda*, *kichik* ma‘nodosh so‘zlarini ketma-ket qo‘llash aytilayotgan fikrni yanada ta‘sirchan ifodalaydi:

Har bir *zarra*,  
 Har bir *mayda*,  
*Kichik* narsani  
 Avaylashga o‘rgataylik.

Bunda *har bir* birikmasini takror qo‘llash orqali ta‘kidni kuchaytirgan, ya‘ni avaylashga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan narsa kichikdan kattaga qarab sanalgan. *Zarra* eng kichik parcha hisoblansa, *mayda* undan kattaroq, *kichik* esa “katta”ning ziddi o‘laroq birgalikda hamma va har qanday narsani avaylash zarurligining qabariq ifodalanishiga xizmat qiladi.

She‘rdan olingan quyidagi misralarda ham shoir birdan ortiq ma‘nodosh so‘zlarni ketma-ket qo‘llash orqali tasvir tiniqligini ta‘minlagan. *Ong* va *shuur* so‘zlari kishi fikrlash qobiliyati ma‘nolarida qo‘llaniladi. *Ong* so‘zi uslubiy betaraf bo‘lsa, *shuur* so‘zida badiiylik aniq sezilib turadi. Bu ma‘nodosh so‘zlarning misralarda qator kelishi esa badiiylikni bo‘rttirgan:

Yangi *ong-u*,  
 Keng *shuur*  
 Topib,  
 Temir otning *tizginini*  
*Qo‘liga oldi.* (“Bodom gullagan kechasi”)

Shoir bundan keyingi bandlarda ham ma‘nodosh so‘zlarni turli badiiy maqsadlarga bo‘ysundirgan. “Ong va shuur” sohibi inson traktorni – o‘zi boshqarishni o‘rgandi. Mazkur gap she‘riy shaklda *temir ot* (traktor) va *tizgin* (rul), *qo‘liga olmoq* (boshqarmoq) ko‘chimlari bilan ta‘sirchan ifodalangan.

Ushbu she‘rning keyingi bandlarida ham ma‘nodosh so‘zlarni turli badiiy maqsadlarga bo‘ysundirgan. Jumladan, *bardam*, *tetik* so‘zlari kuch-quvvatini yo‘qotmagan ma‘nolarida keksalarga yoki kasallarga nisbatan qo‘llanadi. Ayniqsa,

*bardam* soʻzi tilda faol ishlatiladi. Bu soʻzlarning misralarda qator kelishi esa maʼno kuchaytirish vazifasini oʻtagan:

Kolxozida traktorist,

*Bardam va tetik*

Jamoaga koʻngilli

Usta mexanik. (“Bodom gullagan kechasi”)

Maʼnodoshlik qatoriga mansub *puxta*, *pishiq* soʻzlari “Bodom gullagan kechasi” sheʼrida *qilmoq* va *bajarmoq* feʼllari bilan qoʻllangan. Bunda sifat ifodalagan “yuksak darajada”, “mukammal”, “oʻz oʻrnida” maʼnolari feʼl turkumiga mansub soʻz bilan birikib harakatlilikni yuzaga chiqargan:

Har bir ishni *puxta qilib*,

*Pishiq bajarib*.

Shoir sheʼrlarida turkiy va forsiy soʻzlarning bir sinonimik qatorda kelganligini quyidagi sheʼr parchasida koʻrishimiz mumkin.:

*Chechak* oʻtsa goʻyo *gullari*

Qirgʻoq chiroy bilan toʻladi. (“Qiz xatidan parchalar”)

*Gul* soʻzi jonli tilda ham, kitobiy tilda ham faol qoʻllangani holda *chechak* soʻzining gulni ifodalashi badiiy uslubda uchraydi. *Chechak* soʻzi XX asr boshlarida, xususan, jadid sheʼriyatida oʻta faol boʻlgan. Atoqli shoir Abdulhamid Sulaymon Choʻlpon sheʼriyatida mazkur soʻz “ozodlik”, “erk”, “istiqlol” maʼnolaridagikoʻchimni hosil qiladi. Masalan,

*Chechaklar* oʻsgʻusi koʻz yoshlarimdan,

Boʻgʻinlar ungʻusi oʻylashlarimdan.

Yoki:

Tikanli boqchalar *chechak* koʻrgʻusi,

Haq yoʻli, albatta, bir oʻtilgʻusi.

Choʻlponning mazkur soʻzga yuklagan maʼnosi Usmon Nosir sheʼriyatida ham kuzatiladi. Yuqorida keltirilgan shoirning “Qiz xatidan parchalar” sheʼridan olingan parchada ham *chechak* soʻzi nafaqat *oʻsimlik* yoki *gulni*, balki jarayon nomini ham ifodalaydi. Yaʼni, “gullari chaman-chaman boʻlib ochilganda sohillar chiroyli boʻlishi” haqidagi fikr shu tarzda ifodalanmoqda.

Endi Usmon Nosir sheʼriyatida sinonimik qatordagi bir necha soʻzlar ichidan birini, yaʼni muayyan badiiy maqsadga muvofiqʻini saralash, lingvopoetik maqsadga uygʻun holda tanlab qoʻllash masalasiga toʻxtalamiz.

Maʼlumki, oʻzbek tilida *goʻdak*, *bola*, *yosh bola* tarzidagi sinonim soʻzlar qatoridagi *goʻdak* soʻzida “koʻkrakdan ajratilmagan, odatda bir yoshgacha boʻlgan bola” maʼnosi mavjud. Shuningdek, bu soʻzda achinish, mehribonlik kabi maʼnolar ham reallashgan. Shu maʼno nozikligini yaxshi anglagan shoir “Nil va Rim” dostonida ushbu soʻzdan mohirlik bilan foydalanadi:

*Emchagida* bir tomizim suti yoʻq ona

*Goʻdagini* tosh ostiga bostirdi ana!

Shoir bu oʻrinda *bola* yoki *chaqaloq* soʻzlaridan birini qoʻllaganda, sheʼrning badiiyligi anchayin xiralashgan boʻlar edi. Zero, insoniyat taraqqiyotining bir bosqichi boʻlgan quldorlik tuzumida tugʻilgan bolalarga har bir sogʻlom fikrli kishi

achinmasdan, ular bilan ruhan birga azoblanmasdan va bunday tuzumni o‘ylab topganlarga mingdan ming la’natlar aytmasdan qolmaydi. Yoki shu baytning birinchi misrasida (*Emchagida* bir tomizim suti yo‘q ona) turkiycha *bag‘ir, ko‘krak, ko‘ks* va forsha *siyna* so‘zlariga sinonim bo‘lgan turkiycha *emchak* so‘zini keltirishida ham o‘ziga xos teranlik, Usmon Nosirga xos so‘zga hassoslik bor. Chunki birinchidan, *emchak* so‘zi sof o‘zbekcha so‘z, ikkinchidan ushbu so‘zda xalqonalik, milliylik ma’nolari mujassamlashgan. Shu bilan birga, shoir uzoq o‘tmishda hayotga bevaqt kelib qolgan inson bolalarining dard-anduhlariga o‘zini sherik deb his qiladi va bu azoblar unga begona emasligini aytmoqchi bo‘ladi.

Usmon Nosirning “Armina” turkumidagi “Sen sevasan” nomli she’ridan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

Sevar yoring sendan uzoqda,  
*Ichikkansan* bu yoqda yolg‘iz.  
 Lekin Vatan oshiq etgan qiz,  
 Sevingundan kuchli bu yoqda.

Parchadagi *ichikkansan* so‘zi dastlab e’tiborni tortadi, chunki *ichikmoq* fe’lining nisbatan kengroq tarqalgan ma’nosi “ota-onasini sog‘inib kasal bo‘lmoq” bo‘lib, asosan, bolalarning shunday holati ifodasi uchun qo‘llanadi. Ammo bu so‘zning asosiy, asl, bosh ma’nosi “kuchli darajada ko‘rishish, yetishish ishtiyoqida bo‘lmoq”dir. Bu ma’no-mazmunlardan kelib chiqilsa, mazkur so‘z *sog‘inmoq* so‘zi bilan ma’nodoshlikka ega, keltirilgan parchada mazkur so‘z o‘rnida ayni *sog‘inmoq* fe’li ham qo‘llanishi mumkin edi. Lekin hassos shoir aynan *ichikmoq* fe’lini qo‘llagan, bu so‘zga alohida imtiyoz bergan va lingvopoetik jihatdan benihoya to‘g‘ri tanlov bilan ish tutgan. Shoirning badiiy niyatiga ayni shu so‘z xolis xizmat qilgan. Chunki bu so‘zda sog‘inishning darajasi benihoya kuchli, ayniqsa, bu so‘zdagi sog‘inib kasal bo‘lib qolish ma’no ta’kidi mavjudligi nazarda tutilsa, mazkur imtiyozning jiddiy asosi borligi ayon bo‘ladi.

**Xulosa.** Sinonimlarni ketma-ket qo‘llash yoki tanlab qo‘llash natijasida badiiy asarning obrazli fikr ifodalashi hamda bo‘yoqdorligi kuchayib, estetik ta’sirchanligi ta’minlanadi. Sinonimlar Usmon Nosir she’rlarida tasvir tiniqligi, nazarda tutilayotgan asosiy g‘oyaga urg‘u berishni ta’minlash maqsadida qo‘llanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning mahorati yana shundaki, u faqat tilda mavjud bo‘lgan, tayyor ma’nodosh so‘zlardangina foydalanib qolmaganligidir. So‘zdan so‘zni zargarona farqlagan ijodkor sinonimlardan juda mohirlik bilan foydalangan va she’rlarining o‘ynoqi, rang-barang bo‘yoqlarda bo‘lishini ta’minlagan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахмонов Х, Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.
2. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
3. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998.
4. Махмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997.

5. Абдурахмонов. Ғ. Адабий асар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тилини ўқитиш методикаси масалалари. – Тошкент, Фан, 1966.
6. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.
7. Содиқов Қ. “Муҳокаматул-луғатайн” ни ўқиб ўрганиш. – Тошкент: ТДШИ, 2011.
8. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.



## THE ROLE OF MULTILINGUAL PLATFORMS IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING



**Supiyev Shavkat,**  
*Senior Lecturer of the Interfaculty  
Department of Foreign Languages*

**Abstract.** In the era of globalization and digital technology, multilingual platforms play a key role in foreign language learning. Thanks to accessibility, interactivity, and personalized learning, these platforms have transformed traditional approaches. This article explores the pedagogical advantages, cognitive benefits, and limitations of digital tools in the context of multilingual education.

**Аннотация.** В эпоху глобализации и цифровых технологий многоязычные платформы играют ключевую роль в изучении иностранных языков. Благодаря доступности, интерактивности и персонализированному обучению эти платформы трансформировали традиционные подходы. В данной статье рассматриваются педагогические преимущества, когнитивные выгоды и ограничения цифровых инструментов в контексте многоязычного образования.

**Annotatsiya.** Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ko'p tilli platformalar chet tillarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Ularning qulayligi, interaktivligi va shaxsiylashtirilgan o'qitish imkoniyatlari tufayli bu platformalar an'anaviy yondashuvlarni o'zgartirdi. Ushbu maqolada ko'p tilli ta'lim kontekstida raqamli vositalarning pedagogik afzalliklari, kognitiv foydalari va cheklovlari tahlil qilinadi.

**Keywords:** Foreign language learning, Multilingual platforms, Educational technologies, Adaptive learning, Gamification, Spaced repetition, Learner motivation, Personalized learning, Social interaction, Self-directed learning, Cognition and memory, Interculturality, Learning communities, Mobile applications, Duolingo, Busuu, Memrise.

**Ключевые слова:** Изучение иностранных языков, Многоязычные платформы, Образовательные технологии, Адаптивное обучение, Геймификация, Интервальное повторение, Мотивация учащихся, Персонализированное обучение, Социальное взаимодействие, Самостоятельное обучение, Познание и память, Интеркультурность, Учебные сообщества, Мобильные приложения, Duolingo, Busuu, Memrise.

**Kalit so'zlar:** Chet tillarni o'rganish, Ko'p tilli platformalar, Ta'lim texnologiyalari, Moslashuvchan o'qitish, O'yinlashtirish (gamifikatsiya), Oraliqli takrorlash, O'quvchilarni rag'batlantirish, Shaxsiylashtirilgan ta'lim, Ijtimoiy o'zaro ta'sir, Mustaqil o'rganish, Idrok va xotira, Madaniyatlararo aloqalar, O'quvchilar hamjamiyati, Mobil ilovalar, Duolingo, Busuu, Memrise.

### Introduction

Learning foreign languages has become an essential skill in a globalized world. Multilingual platforms—such as Duolingo, Babbel, Memrise, or Busuu—have redefined teaching methods by integrating digital technologies into the service of linguistics. In

In addition to diverse content, they offer immersive and interactive environments that promote language acquisition.

**What Is a Multilingual Platform.** A multilingual platform is a digital tool that enables the study of multiple languages through interactive modules, games, voice recognition, and learning communities. These tools often employ principles of gamification and adaptive learning.

**Examples.** **Duolingo** uses spaced repetition and virtual rewards to boost motivation.

- **Busuu** emphasizes interaction between native speakers and beginners.
- **Memrise** combines visual and auditory memorization techniques.

### **Duolingo: An Overview**

**Duolingo** is a free, user-friendly language-learning platform available as a website and mobile app. It offers courses in over 40 languages and is designed to help users learn new languages in an engaging and interactive way.

#### **Key Features:**

- **Gamified Learning:** Lessons are structured like games, with levels, rewards (like XP and streaks), and challenges that keep learners motivated.
- **Bite-Sized Lessons:** Users learn through short, focused exercises that include reading, writing, listening, and speaking tasks.
- **Adaptive Learning:** The platform adjusts the difficulty and content based on user performance, providing personalized practice.
- **Spaced Repetition:** Duolingo uses spaced repetition to help users remember vocabulary and grammar more effectively over time.
- **Community and Social Features:** Users can follow friends, compete on leaderboards, and participate in forums for language support and discussion.
- **Free with Optional Premium:** The basic version is free and supported by ads; a premium subscription (Duolingo Plus/Super) removes ads and adds extra features like offline access.

#### **Educational Approach:**

Duolingo combines principles of **gamification**, **cognitive science**, and **linguistics** to make language learning efficient and enjoyable. It's especially useful for beginners and for maintaining daily practice, though it may not fully replace traditional instruction for advanced fluency.

**Busuu** is a language learning app and platform that helps users learn new languages through interactive lessons, vocabulary practice, grammar exercises, and conversations with native speakers. It offers courses in more than 10 languages, including English, Spanish, French, German, Japanese, and more.

One of the key features of Busuu is its **community-based learning system**. Users can practice writing and speaking exercises, which are corrected by native speakers within the Busuu community. This makes the learning experience more realistic and engaging.

Busuu also offers **personalized study plans**, **offline mode**, and progress tracking. The lessons are designed for all levels, from beginner to advanced, and cover reading, writing, listening, and speaking skills.

It is available as a **mobile app** (iOS and Android) and also accessible through a web browser.

**Memrise** is a language learning platform that focuses on helping users memorize vocabulary and phrases using spaced repetition and multimedia content. It offers courses in many languages, including English, Spanish, French, German, Japanese, and others.

The platform uses **interactive flashcards, videos of native speakers, and fun quizzes** to make learning engaging and effective. One of Memrise's strengths is its use of real-life language, showing how words and phrases are used naturally in context.

Memrise also adapts to your learning speed and helps reinforce memory through **spaced repetition**, which is a scientifically proven method to help retain information over the long term.

It is available as both a **mobile app** and a **web platform**, and it's suitable for learners at all levels.

### 3. Pedagogical Advantages

#### 3.1. Accessibility and Flexibility

Platforms allow for self-paced learning at any convenient time, aligning with the self-directed learning model (Holec, 1981).

#### 3.2. Motivation and Engagement

Gamification (Deterding et al., 2011) enhances learner engagement and reduces anxiety related to making mistakes.

#### 3.3. Individualized Learning

Adaptive algorithms identify learners' weaknesses and provide differentiated instruction (Tomlinson, 2001).

### 4. Cognitive and Sociolinguistic Role

#### 4.1. Development of Cognitive Abilities

Platforms activate working memory, auditory, and visual perception, aiding better retention (Sweller, 1988 — cognitive load theory).

#### 4.2. Social and Intercultural Interaction

Some tools promote communication between native speakers and learners, supporting Vygotsky's (1978) sociocultural theory, which states that learning is mediated through social interaction.

### 5. Limitations and Criticism

- **Lack of Free Expression:** Oral and written production is often limited or strictly guided, which may hinder linguistic creativity.

- **Excessive Standardization:** Learning paths may be overly uniform, ignoring cultural or dialectal differences.

- **Technological Dependence:** Access to platforms depends on the availability of digital resources.

### 6. Conclusion

Multilingual platforms have significantly transformed the process of learning foreign languages. They offer dynamic, autonomous, and personalized learning experiences, integrating social and cultural components. However, they should complement—not replace—live instruction. The future lies in a harmonious combination of traditional pedagogy and digital tools.

## REFERENCE

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From game design elements to gamefulness: Defining "gamification"*. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
2. Holec, H. (1981). *Autonomy and Foreign Language Learning*. Oxford: Pergamon.
3. Sweller, J. (1988). *Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning*. *Cognitive Science*, 12(2), 257–285.
4. Tomlinson, C. A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. ASCD.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

## O'XSHATISHLARDA MADANIY KOD MASALASI

**Tolibova Muhabbat,**  
*Navoiy davlat universiteti*  
*tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'xshatishlar milliy tafakkur yaratilmasi bo'lib, uning yordamida inson olamning milliy lisoniy manzarasini voqelantirishi, o'xshatishlar millat dunyoqarashini o'zida aks ettiruvchi belgilik tabiatiga ega lingvomadaniy birlik ekanligi, o'zbek tili o'xshatishlarida madaniy kodning aks etishi muammolari yoritilgan. Til belgilar tizimi emas, balki madaniy fenomen, milliy mentalitetni aks ettirish vositasi ekanligi o'xshatishlarda yaqqol yuzaga chiqishi N.Eshonqul hikoyalari asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, lingvomadaniy birlik, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy kod, predmetli kod, biomorf kod.

**Аннотация.** В данной статье проблемы исследования о том, что аналогии-это создание национального мышления, с помощью которого человек реализует национальную языковую картину мира, что аналогии это лингвокультурная единица с характерной природой, отражающая мировоззрение нации, что в аналогиях узбекского языка отражается культурный код. Тот факт, что язык это не знаковая система, а культурное явление, средство отражения национального менталитета, наглядно выявляется в аналогиях анализируется на основе рассказов Н.Эшонкула.

**Ключевые слова:** сравнение, лингвокультурная единица, национально-культурная коннотация, культурный код, предметный код, биоморфный код.

**Annotation.** In this article, the research problems show that analogies are the creation of national thinking, through which a person implements a national linguistic picture of the world, that analogies are a linguistic and cultural unit with a characteristic nature reflecting the worldview of the nation, that the cultural code is reflected in the analogies of the Uzbek language. The fact that language is not a sign system, but a cultural phenomenon, a means of reflecting the national mentality, is clearly revealed in analogies analyzed on the basis of N.Eshonkul's stories.

**Keywords:** comparison, linguistic and cultural unit, national cultural connotation, cultural code, subject code, biomorphic code.

Antropotsentrik tilshunoslikning yuzaga kelishi zamirida til shaxsining o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratilishi natijasida bugun til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar tilshunoslik obyektiga aylanib ulgurdi. S.D.Kasnelson ta'kidicha, V. fon Gumboldt ushbu aloqadorlikni birinchilardan bo'lib e'tiborga olgan edi, u olamga til orqali kirib borish natijasida madaniyatning milliy xarakteri tilda aks etishi haqidagi g'oyani asoslab bergan. Til va madaniyat mustaqil fenomenlar bo'lib, ular ontologik birligini ta'minlaydigan til belgilarining ma'nosi orqali bog'lanadi. Til tufayli insoniyat madaniyatining uzluksizligi amalga oshiriladi, ajdodlar tomonidan yaratilgan tajribalar

to'planadi va o'zlashtiriladi [1,15]. Ushbu tajribalar har bir til jamoasi tomonidan olamning lisoniy manzarasini yaratishda o'ziga xoslik kasb etadi, o'ziga xoslik asosida lingvomadaniy birliklar, milliy-madaniy konnotatsiya yuzaga keladi, olam haqidagi bilimlarimiz olamning lisoniy manzarasini qamrab oladi.

Ma'lumki, milliy-madaniy konnotatsiya ikki va undan ortiq predmet va hodisalarning o'xshash va farqli jihatlarini anglatuvchi ruhiy jarayon qiyoslash [2, 26] vositasida voqelanadi, insoniyat tafakkuri olamdagi jami mavjudlikni qiyoslashlar orqali sintezlashtirar ekan, obyektiv olam unsurlari tilda yuzaga chiqqan ma'nolarning qiyoslash etaloni vazifasini bajaradi.

Qiyoslash murakkab mantiqiy kategoriya sifatida bilishning dastlabki bosqichi sanaladi, chunki u obyektning o'xshash yoki farqli tomonlarini aniqlaydigan kognitiv jarayon, voqelikni obrazli aks ettirish asosidir, qiyoslash tafakkur jarayoni ekan, aslida inson ijtimoiy hayotda biron-bir voqelikni boshqa voqelikka qiyoslash orqali tushunadi. Qiyoslashning tildagi ifodasi sifatida o'xshatish va metaforalarni ko'rsatish mumkin, ko'p hollarda qiyoslashlar milliy-madaniy konnotatsiya tashiydi.

Ko'chma ma'noga asoslangan, ya'ni umumiy o'xshash belgilarga ega bo'lgan bir narsa-predmet, harakat, voqea-hodisa, belgi-xususiyatni boshqasiga o'xshatishdan iborat deb qaralgan o'xshatishlar tilshunoslik taraqqiyotining ilk bosqichlarida nutqiy figura deb ko'rsatilgan bo'lsa, keyingi davrlarda uning mazmun-mohiyati xususida yangicha qarashlar yuzaga keldi. Uning shakllanish sabablari va vazifalari xususidagi ilmiy fikrlar yangicha talqin oldi. Ta'kidlash joiz, yondashuvlarning turlichaligi o'xshatishga doir ilk qarashlarni rad etmaydi, balki nutqiy figuradan-da kengroq hodisa ekanligini, ushbu obrazli tafakkur mahsuliga antropotsentrik nuqtai nazardan qarash lozimligini taqozo qiladi. Hodisalarning turli sinflariga mansub ikki tushuncha u yoki bu xususiyatiga ko'ra bir-biri bilan taqqoslanib, bu taqqoslash so'zda yangi ma'no ifodasini yuzaga chiqarar ekan, [3,167], o'zaro qiyos insonning yashash tarzi, qadriyatlarini, atrof-muhit, ijtimoiy-madaniy hayoti, milliy va diniy mansubligi, dunyoqarashi va saviyasi kabilar bilan chambarchas bog'liqlikda voqelanadi. Inson o'zi bilgan, ko'rgan, ongida to'plangan, tafakkurida sayqallangan, hayotiy tajribalari asosida o'zlashtirgan bilimlarini turli ko'rinishlarda, masalan, oddiy yoki obrazli tasvirda uzatadi, o'zining subyektiv munosabatini bildiradi, to'plangan bilimlarini baholaydi. O'xshatish voqelik va predmetlarni tavsiflashning muhim vositasi bo'lib, muallif dunyoqarashini ochib berishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, yozuvchining obyektiv voqelik faktlariga sub'ektiv-baholovchilik munosabatini ochib berishga xizmat qiladi. Aynan shu nuqtada madaniyat va til kesishadi, chunki til madaniyatning ajralmas qismi, uni o'zlashtirishning asosiy quroli, til ruhimiz voqeligidir, til milliy mentalitetning barcha belgilarini o'zida namoyon qila oladi. Tilshunoslikda til va madaniyat munosabatini o'rganishni maqsad qilgan lingvokulturologiya sohasi ushbu xulosalar natijasi o'laroq shakllanib, o'zining taraqqiyot pallasiga yetib kelganligi bugun barchaga birdek ayon.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan qaralganda, madaniyat, birinchi navbatda, millatning ajdodlari tomonidan to'plangan tajribasini saqlashiga nisbatan talqin etiladi. Madaniyat tilda aks etadi, chunki bu jihat doim matnda modellashirilgan bo'ladi [4,59], shunga ko'ra, millatning me'yorlari va qadriyatlarining yig'indisi bo'lgan madaniyat tilda

insonning milliy-madaniy tushunchalari doirasini ochib beruvchi mexanizm sifatida tushuniladi.

V.A.Maslova lingvokulturologiya an'alariga ko'ra rivojlangan til va madaniyatning umumiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: madaniyat til kabi insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir; madaniyat va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq; madaniyat va tilning subyekt har doim individ yoki jamiyat, shaxs yoki jamoadir [5, 25]. So'zlovchi shunchaki gapiruvchi sifatida emas, balki ma'lum bir til jamoasiga, millatga tegishli til egasi sifatida tushunilmog'i kerakki, u o'zida insoniyatga xos umumiy va milliy belgilarni jamlagan shaxs sifatida tushunilishi shart, V.V.Krasnix ta'kidi bilan aytganda, so'zlovchi bir vaqtning o'zida til subyekt, madaniyat subyekt, lingvomadaniy sub'ekt va kommunikatsiya subyekt sifatida paydo bo'ladi [6, 2].

Muayyan til birligiga yuklangan milliy-madaniy konnotatsiya har doim ham uning ifoda planida namoyon bo'lavermaydi, til birligi ifoda va mazmun planidan iborat bo'lgani kabi, ko'p hollarda milliy-madaniy konnotatsiya mazmun planida, ya'ni semantikada yoxud konstruksiya tarkibida verballashib, milliy-madaniy axborotni voqelantiradi. Milliy-madaniy konnotatsiya madaniy kodlarning turlari sanaluvchi somatik kod, predmetli kod, biomorf kod, makoniy kod, temporal kod, ma'naviy kod, antropomorf kod, teomorf kod, rang-tus kodi, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me'moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kodlarni hosil qiluvchi birliklarning ifoda va mazmun planida mavjuddir. "Madaniy kod o'zida madaniyat ustuvorliklarini aks ettiruvchi asosiy tushuncha, ko'rsatma, qadriyat va me'yorlar yig'indisi hisoblanadi. Lingvomadaniy kod esa madaniyat kodining verballashgan ko'rinishidir" [7, 91], tilda har qanday ma'noni verbal ifodalash mumkin, til madaniyatning obrazli kodlarini o'ziga singdiradi va kodning ifoda planida o'zgarish sodir bo'ladi, madaniy kodlar verballashib, lingvomadaniy kodga aylanadi [8, 6].

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, antik davrda o'xshatish nutqiy figura sifatida o'rganilib, bu kabi qarash uzoq davom etgan, o'tgan asrdan boshlab o'xshatishning hosil qilinishi turli xalqlarda ayrichaligi, o'xshatish asosidagi, etalonidagi farqlar olimlarning diqqat markaziga aylangan, natijada sabablar qidirilib va milliy-madaniy mansublik asosiy sabab deb ko'rsatilgan.

O'xshatishlarni mavzuiy jihatdan bir necha madaniy kodlarga ajratish mumkin, o'xshatishlar insonning obrazli tasavvurlarini kodlaydi, madaniy kodlarni o'xshatishlar asosida tadqiq qilish jarayonida ularni bir necha turlarga ajratish mumkin. Madaniy kodlar milliy tafakkur haqidagi aniq tasavvurlarni beradi, olamni anglash etaloni bo'lib xizmat qiladi, madaniy kodlar, asosan, milliy-madaniy konnotatsiyalarni ifodalovchi o'xshatishlarda bo'rtib turadi. Masalan: *Bir kuni u kosovday qora va shang'i xotini bilan g'ijillashib turganda, eshigi oldida bir arava to'xtaydi va eshik uch marta taqillaydi* (N. Eshonqul, Tun panjaralari). Keltirilgan misolda *kosovdek* o'xshatishining etalon leksemasi "o't, olovni to'g'rilash, tortish va shu kabilar uchun ishlatiladigan yog'och yoki temir tayoq" ma'nosiga ega. O'zbek xalqida "**Kosov uzun bo'lsa, qo'l kuymas**" maqoli ham mavjudki, *kosov* so'zi o'zbek ongida predmetli kod sifatida namoyon. D.Xudoyberganovanning ta'kidicha, predmetli kodlar aksariyat inson maishiy turmushidagi ashyolar nomlarining ramziy ma'no kasb etishi vositasida yuzaga keladi:

*Qozonda bori cho‘michga chiqadi, shohi ko‘rpa bo‘z yamoq, belida belbog‘i bor, to‘nini teskari kiymoq, g‘alvirni suvdan ko‘tarmoq* birliklaridagi *qozon, cho‘mich, ko‘rpa, belbog‘, to‘n, g‘alvir* kabi so‘zlar o‘zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning voqelik va undagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashida maishiy buyumlar xususidagi tushunchalarning qay tarzda vosita bo‘lganligini ko‘rsatadi, shu ma’noda, predmetli kod turg‘un o‘xshatishlarda etalon sifatida qo‘llanib, o‘zbek xonadonida keng qo‘llanuvchi maishiy turmush realiyasiga mansubdir. Kosovning egri-bugriligi, bajaradigan vazifasi, olov kovlashga mo‘ljallanganligi uning turlicha o‘xshatish etalonlarini voqelantirishiga sabab bo‘ladi, demak, uy-ro‘zg‘or bilan bog‘liq maishiy turmush realiyalarining ko‘plab o‘xshatish etalonlariga aylanishiga sabab ko‘p asrlik o‘zgarmas turmush tarziga ega ekanligidadir. Yuqorida keltirilgan misolda kosovning rangidan kelib chiqilib “qora” o‘xshatish asosi voqelantirilgan, natijada salbiy baho yaqqol yuzaga chiqqan. O‘xshatish millatning badiiy tafakkurida obrazlashtirilgan tasvir bo‘lib, millat qadriyatida qabul qilingan madaniy kodlardan biri sanaladi, madaniy kod milliy-madaniy konnotatsiya maydoni bo‘lib, lingvomadaniy bilimlar zaxirasini o‘zida to‘playdi.

Ma’lumki, o‘xshatishlar muayyan bir millatning dunyoqarash tarzi, tabiat va jamiyatga munosabati, dunyoni anglashdagi o‘zigagina xos tafakkur o‘lchovi va qiyoslash usuli bilan uzviy bog‘liq hodisa hisoblanadi, o‘xshatishlar turli xalqlar madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi vositalardan biri bo‘lib, ularda ajdodlarning o‘y-xayollari, tasavvurlari, milliy va madaniy qadriyatlari muhrlangan bo‘ladi, til egalari ongida muayyan qoliplar shaklida mustahkamlanib qolgan bo‘lib, o‘xshatish etaloni o‘xshatish subyekti bilan ma’lum bir belgida muntazam va qat’iy bog‘langan bo‘ladi. Qadimgi torli cholg‘u asbobi bo‘lgan tanbur Shashmaqomda yetakchi sanalib, tanbur azaldan nafaqat o‘zbek, tojiklarda, balki Eron, Turkiya, Xindiston kabi davlatlarda ham mavjud bo‘lgan. “Manbalarda keltirilishicha tanbur atamasi ikki so‘z birikmasidan xosil bo‘lgan bo‘lib “tan” – yurak, “bur” – tirnovchi, qitiqlovchi degan ma’nolarni anglatar ekan. Qadimdan tanburning ikki turi bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Ulardan biri chertib chalinuvchi, ikkinchisi kamonchali tanbur. “Katta musiqa kitobi”da Forobiy tanburning ikki torli Bag‘dod va Xuroson tanburi haqida ma’lumotlarni keltiradi. XIV asrlarda yashab o‘tgan Sharqning yana bir zabardast musiqiyshunosi Abdulqodir Marog‘iy tanburning kamon bilan chalinadigan yana bir turi haqida ma’lumot berib, uni “Nay tanbur” deb ataydi. Ushbu cholg‘u bugungi kunda “Sato” nomi bilan mashhur. Dastlab tanbur torlari ipakdan bo‘lib, keyinchalik ular mis simlar bilan almashtirilgan. Tanburning ikkitadan oltitagacha simi bo‘lgan turlari (setor, chortor, panjtor, shashtor) mavjud bo‘lib, maqom ijrochiligida odatda uning to‘rt torli turi qo‘llanilgan” [9, 9]. Keltirilayotgan misolda predmetli kod sifatida *tanbur* o‘xshatish etaloni “kechinmalar, his-tuyg‘ular” o‘xshatish asosi uchun xizmat qilgan, o‘zbek tanburning har bir torida o‘ziga xos tovush borligini, ular biridan farqlanish bilan birga, bir-biriga hamohang ekanligini, torlardan chiqayotgan sirli, dardli navolarni his qila oladi, tabiiy, inson qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni anglatishda bundan go‘zal o‘xshatish bo‘lmaydi: *Samandar vujudida qandaydir tarang tortilgan torlar boru, torlar bog‘dan kelayotgan ohanglarga aks-sado berayotganday tuyulardi. Ba‘zan torlar go‘yo tanbur torlariday g‘o‘ng‘illab ketardi.* (N.Eshonqul, Yalpiz hidi).

L.Elmslev ta’kidicha, til millatni tavsiflash uchun xizmat qiladi [10, 132], ushbu tavsifda millatga xos butun madaniyat aks etadi, ayniqsa, yangi va yangi ma’no qirralarida milliy mansublik bo’rtib turadi, hissiy-obrazli shakl ifodasi bo’lgan o’xshatish mavjud dunyoni inson ongida madaniy bo’yoq bilan qorishiq holda tasvirlaydi, ba’zida mavhum tushunchalarni real tushunchalarga qiyoslash yo’li bilan ifodalash orqali atrofimizdagi olamning milliy manzarasi haqida bilib olamiz va shu bilan birga, uni obrazli tavsiflaymiz, unga munosabatimizni bildiramiz, uni baholaymiz. Insoniyat til va tafakkurining rivojlanish bosqichida o’xshatishning turli shakllarining paydo bo’lish sabablarini aniqlash asnosida A.A.Potebnya o’xshatishni til va ongli fikrlashning boshlang’ich nuqtasi, degan xulosaga keladi. [11, 45-46]. O’xshatishda bir narsa-hodisaning nimaga asosan qiyoslanayotgani, ya’ni o’xshatish etaloni muhim standart sanaladi, o’xshatish asosidagi belgi o’xshatish subyektida me’yordan ortiqroq holda, o’xshatish etaloniga nisbatlanadi, biroq bunda o’xshatish etaloni ushbu belgiga ega bo’lmasa, unda o’xshatish ma’nosi bo’lmaydi. Sof o’xshatish etaloni o’xshatish konstruksiyasining milliy-madaniy konnotatsiya salmog’ini belgilaydi. “O’xshatish etaloni qanchalik original bo’lsa, o’xshatish konstruksiyasi ham shu darajada ohorli bo’ladi” [12, 278].

D.Xudoyberganova ta’kidicha “...xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o’xshatishlarda ham namoyon bo’ladi. Jumladan, buni o’zbek tilidagi inson haqidagi o’xshatishlarda ham ko’rish mumkin. O’zbek tilidagi insonga doir o’xshatishlar 8 ta ma’noviy guruhni tashkil etib, ularda hayvon, o’simlik, meva nomlarini bildiruvchi so’zlar etalon sifatida ko’p qo’llanganligi ona tilimizda muloqot qiluvchi til sohiblarining etnopsixolingvistik xususiyatlarini namoyon qiladi” [13,94], masalan, o’zbek ongida insonga doir o’xshatishlar ma’noviy guruhini tashkil etuvchi hayvon nomlarini bildiruvchi so’zlar, ya’ni biomorf kodlar etalon sifatida qo’llanganda, milliy-madaniy konnotatsiya bo’rtib turadi. F.Usmanovning “O’zbek tilidagi o’xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi tadqiqotida inson va u bilan bog’liq o’xshatishlarda o’zbek milliy madaniyati va qadriyatlarining aks etganligiga alohida e’tibor qaratilgan, inson guruhiga mansub o’xshatishlarni insonning tashqi olami va ichki olami bilan bog’liq o’xshatishlar deya turlarga ajratar ekan, tashqi olam guruhiga insonning tashqi ko’rinishi, harakat-harakatsizligi, jismoniy xususiyatlari, nutqiy faoliyati, fiziologik holati hamda insonlararo munosabatlari bilan bog’liq o’xshatishlarni, ichki olam guruhiga esa insonning ichki kechinmalari, kayfiyati, xarakter, shaxsiy sifatlar va axloqiy xususiyatlari hamda ijtimoiy holati aks etgan turg’un o’xshatishlarni kiritgan [7].

Bilamizki, “befahmlik; ongsizlik” o’xshatish asosi sifatida uy hayvoni bo’lgan *sigir* o’zbek ongida salbiy konnotatsiyaga ega va salbiy munosabatni ifodalovchi o’xshatishlarda namoyon bo’ladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida ham johil kishi sigirga o’xshatilgan: *Qara qarni to’da kor ud-teg yatur, yawa so’zga awnur o’zin semritür – Johil qorni to’ysa, sigirdek yotadi, ko’r, behuda so’zga g’arq bo’lib o’zini semirtiradi*. Mazmuni kuchaytirish maqsadida N.Eshonqul *qisir sigir* ko’rinishidagi o’xshatishni keltiradi: *Ikki-uch oydan keyin xotini uyga qaytib, bolasini emizib turganini ko’rdi-da, yana o’sha hid esiga tushdi. Bu hid juda tanish, shu bilan birga notanish edi*.

**Qisir sigirdan farqi yo ‘q, bir maymoq to ‘qolning ko ‘krak hidi o ‘ziga tanish bo ‘lishi g ‘azabini keltirdi va otasidan o ‘rgangan odatini qildi** (N.Eshonqul, Qultoy).

Biomorf kodli o ‘xshatishlarning hayvon nomlari bilan bog ‘liq bo ‘lgan ko ‘rinishi inson o ‘zini tabiatning bir bo ‘lagi sifatida tasavvur qilgani, ushbu hayvonlarni avvaldan bilishi, uning tasavvurida biror bir hayvonning tuzilishi, xususiyatlari bilan tanishlik mavjudligi uchun nutqida faol qo ‘llanadi va insonga xos ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni aks ettiradi, natijada quyidagi o ‘xshatish asoslari yuzaga keladi:

“Baquvvatlik” asosi: ... *kishandan ozod bo ‘lgan **sherdek** ajal hayqirib yurgan shaharga nisbatan g ‘azab meni tez-tez junbushga solardi.* (Tobut).

“Jasurlik” asosi: *Xuddi fil oldini to ‘sgan **qoplondardek**, daydi laychalar oldini hurib to ‘ssa, ular bilan talashib o ‘tirmasdi* (Bahovidinning iti).

“Befahmlik” asosi: *U kotibni **ayiqday** befahm odam bo ‘lsa kerak deb o ‘ylagandi.* (Bevaqt chalingan bong).

“Ochko ‘zlik” asosi: ...*uning ko ‘zlarida o ‘ljasidan ayrilgan **bo ‘rinikiday** ochko ‘z va qizg ‘anch bir ifoda yonardi.* (Bevaqt chalingan bong).

“Beo ‘xshovlik” asosi: **Ho ‘kizday** bo ‘lmay o ‘l-da, sen, Uljon. Kelib-kelib bir mayibga kuching yetdimi? *Qo ‘lini sindirib qo ‘yibsan-ku, juvonmarg.* Qultoy).

“Sovuqlik” asosi: *Darg ‘azab shamol uni iziga qaytarish uchun sochlaridan, etaklaridan tortqilayapti, pana-panada **ilonday** sovuq va badbashara qo ‘llar unga tosh otyapti* (N. Eshonqul. Momoqo ‘shiq). *Ilonday o ‘xshatishi yana bir o ‘rinda “o ‘rmalamoq” asosini hosil qilgan: Ko ‘nglimga **ilonday** shubha o ‘rmalab kirdi – kitob o ‘qiyverib, men kitobga aylanib qolganday edim* (N. Eshonqul. Qora kitob).

Ba ‘zan bir jonivorning gavda tuzilishi boshqa jonivorga, harakati boshqa jonivorga o ‘xshatilishi mumkin, masalan, aslida yakka tuyoqlilarga mansub, quloqlari uzun, sut emizuvchi, otdan kichik ish hayvoni (O ‘TIL, V, 63) bo ‘lgan *eshak* o ‘xshatish asosi sifatida xususiyatidan kelib chiqilib, o ‘zbek ongida “mehnatkash” o ‘xshatish asosini namoyon qiladi, keltirilayotgan misolda esa eshakning gavda tuzilishi ayg ‘irga, harakati biyaga qiyoslangan: *Bolalar, ayniqsa, uning eshagini minishga ishqiboz, zero, eshagi **naq ayg ‘irday** kelar, salkam **biyaday** chopar, qir-qiya demasdan yo ‘rg ‘alab ketaverar, uning hech bir fazilatiyu turish-turmushiga havas qilmaydigan tersotaliklar uning aynan eshagiga hasad qilishar...* (Farishta). Keltirilgan o ‘xshatish leksema denotatining tuzilishidan uzoqlashgan.

Ba ‘zi o ‘rinlarda o ‘xshatishning yuzaga kelishiga milliy-madaniy birlik sanaluvchi frazema asos bo ‘lishi mumkin, ma ‘lumki o ‘zbek tilida “arzimas narsadan katta muammo chiqarmoq” ma ‘nosidagi *sichqondan fil yasamoq* frazemasini mavjud, masalan: **Sichqondan fil yasama, deb o ‘zini tinchitgan bo ‘ldi** (M.Safarov, Ayrishox). Sichqonning o ‘ta kichkinaligi va filning ulkan gavdaliligini inson ko ‘z oldida jonlantirish va o ‘zaro zid qo ‘yish orqali holatga so ‘zlovchi bahosi berilgan. Tabiiy, ushbu zidlik o ‘xshatishlarda keltirilganda ham so ‘zlovchi bahosi obrazli tarzda bo ‘rtib turadi: «**Sichqonday gavdasiga filday eshak** minib nima qilar ekan?» – *deyishardi fasodga berilib.* (N.Eshonqul, Farishta).

“O ‘zbek tili o ‘xshatishlarining izohli lug ‘ati”da *it* o ‘xshatish etaloni sifatida 12 ta o ‘xshatish asosini voqelantirishi keltirilgan, ularda salbiylik bilan bir qatorda ijobiy konnotatsiya ham akslantirilgan bo ‘lib, o ‘zbek ongida *it* biomorf kodi alohida o ‘ringa

egaligi, o‘zbekning turmush tarzida itning o‘rni alohida qiymatga egaligi, insoniyatning ushbu jonivorga xos xususiyatlarni chuqur bilishi bilan bog‘liq. Masalan, N.Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida *it* o‘xshatish etaloni ikki o‘rinda “o‘lmoq” o‘xshatish asosini ifodalagan: 1. *Zamon otboqar itday o‘lim topgandi*. 2. *Bayna momo bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog‘li xalqning orini ko‘targan, nomini chiqargan Rayim polvonni quloq deya ta‘qib qilishlariga, so‘ng itday xor qilib, otib tashlashlariga yo‘l qo‘ygan...* (N. Eshonqul. Shamolni tutib bo‘lmaydi).

N.Eshonqulning “Momoqo‘shiq” hikoyasida *it* o‘xshatish asosi “xor bo‘lmoq” o‘xshatish asosini ifodalagan: *Bu yerda na ilm-u fanni, na san‘atni, na qo‘shiqni tushunishadi; hammalari ota-bobolaridan qolgan kataklarda itday turmush kechirishadi* (N. Eshonqul. Momoqo‘shiq). E‘tibor qaratilsa, ko‘p hollarda o‘xshatish asosida hayvon nomlari keluvchi o‘xshatishlarni kinoyaviy o‘xshatishlar tashkil qiladi. “Kinoya-o‘xshatish a) insonga; b) jonivorlarga; v) predmetlarga; g) o‘rin-joy yoki makonga qaratil”gan [14, 16].

O‘xshatish xususida so‘z yuritganda, o‘xshatish asosi baholovchi hamda milliy-madaniy konnotatsiya evaziga qurilganligini qayd etish lozim. U o‘zida o‘xshatish subyektining muayyan xususiyatlarini jamlaydi. Masalan, o‘zbek ongida *bola* leksemasi “himoyaga muhtoj”, “quvnoq”, “sodda”, “erka” konnotatsiyalari bilan mavjud, o‘zbek xalqi – bolajon xalq, ayniqsa, soddadil kishilarga nisbatan *boladek beg‘ubor* o‘xshatishlarini ko‘p qo‘llaydi. Shuningdek, kichkina, beg‘ubor, sho‘x, beqaror, beozor kabi xususiyatlarga ham ega va o‘xshatish etaloni ushbu xususiyatlarni yuzaga chiqaradi: *U erini xuddi bolasiday ehtiyot qilar, bolasiday ko‘ngliga qarar, bolasiday xarxashasini ko‘tarar, bolasiday mehribonlik qilardi* (N.Eshonqul, Farishta) gapidagi o‘xshatish etaloning (bolasiday) takror qo‘llanishi katta yoshli kishining ruhiy holatini kuchliroq ifodalashga xizmat qilgan. Shu o‘rinda o‘xshatish etaloni va asosi milliy kontekstga bo‘ysunishini ta‘kidlash o‘rinli.

“Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularning o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barkarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi” [15,6].

Inson his-tuyg‘ulari bilan idrok etadigan va uning aqliy faoliyati natijasi bo‘lgan jami mavjudlik bizning ongimizda assotsiativ tarzda bog‘lanishi mumkin, chunki o‘xshatish dunyoni uning belgilari vositasida idrok etish usullaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi [16, 190], tabiiy, inson o‘zini, tana tuzilishini, harakatlarini va xususiyatlarini atrofida mavjud, u bilan yonma-yon bo‘lgan boshqa obyektlar bilan taqqoslaydi, o‘xshashliklarni tasavvur qiladi, natijada tilda an‘anaviy ravishda turli xil qiyoslashlar yuzaga keladi, o‘xshatishlar til egasi ongida olamning milliy lisoniy manzarasini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Inson tilida ma‘lum bir assotsiatsiyalar to‘plami mavjud bo‘lib, ular uning hayotiy faoliyati davomida turg‘unlashib, mukammallashib, chuqurlashib boradi, aslida ushbu assotsiatsiya til egasi ongida muayyan o‘xshatish etalonlari sifatida mustahkam o‘rin egallagan bo‘ladi. Demak, milliy mentalitet va ma‘naviy madaniyat til birliklarida, eng avvalo, ularning majoziy ma‘nosida gavdalanadi,

tilning milliy-madaniy xususiyatlarini bo‘rttirib ko‘rsata oladigan eng yorqin obrazli vositalardan biri bo‘lgan o‘xshatishlar milliy-madaniy konnotatsiya tashuvchisi sifatida badiiy matnda sayqallanib boraveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М. Л.: Наука, 2015.
2. Yvonne T. Comparative Constructions: An introduction. Linguistic Discovery, Dartmouth College Library // On the expression of comparison: Contributions to the typology of comparative constructions from lesser-known languages, 2018, Vol 16.
3. Гальперин, И.Р. Очерки по стилистике английского языка. [Электронный ресурс] / И.Р. Гальперин. – <http://enative.narod.ru/theory/manuals.htm>
4. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. В кн.: Ф. Соссюр Труды по языкознанию. М., 1977.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2011.
6. <https://istina.msu.ru/media>. Красных В.В. Основные постулаты и некоторые базовые понятия лингвокультурологии.
7. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори дисс.авторреф. Тошкент. 2020.
8. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) //Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001.
9. Мамазияев Х. Мақом санъатида мусиқа чолғуларининг тадрижи // SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022, № 2. – Б.9. <https://scientists.uz/uploads>
10. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка // Зарубежная лингвистика. – Т. 1. – М.:Прогресс, 1999.
11. Потенция А. Язык и мысль. – М., 1990.
12. Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
13. Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
14. Мавлонова Ў. Америка насрида киноянинг поэтик ифода хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри ...дисс.авторреф. – Бухоро, 2023.
15. Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати.– Тошкент: Маънавият, 2013.
16. Сеченов И.М. Кому и как разрабатывать психологию. Психологические этюды. СПб., 1973.

## Badiiy uslubda frazemalarning milliy-madaniy xoslanishi

**Rahmatova Yulduz,**  
*Navoiy davlat universiteti*  
*Tayanch doktoranti (PhD),*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilshunosligida gap qolipli frazemalarning badiiy uslubda milliy-madaniy bo'yoqni namoyon qilishi, ijodkorlar frazemalarni okkazional qo'llash orqali yuzaga keltirishi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy uslub, frazema, lingvomadaniy birlik, realiya, milliy bo'yoq, okkazional ma'no.

**Аннотация.** В статье показано, что в узбекском языкознании фразеологизмы, образующие предложения, проявляют национально-культурную окраску в художественном стиле, а создатели создают фразеологизмы посредством окказионального применения.

**Ключевые слова:** художественный стиль, фразеология, лингвокультурная единица, реалья, национальная окраска, окказиональное значение.

**Annotation.** The article shows that in Uzbek linguistics, phraseological units forming sentences exhibit national and cultural coloring in an artistic style, and the creators create phraseological units through occasional use.

**Keywords:** artistic style, phraseology, linguistic and cultural unit, reality, national coloring, occasional meaning.

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmida frazemalar leksikologiya ilmining tarkibiy qismi sifatida grammatik, semantik, uslubiy yo'nalishda jiddiy o'rganila boshlangan bo'lsa, asrning so'ngiga kelib tilning frazeologik fondi eng ko'p madaniy ma'lumotlar tashuvchisi ekanligiga e'tibor qaratila boshlandi, chunki ular xalqning madaniyati, orttirgan tajribalari, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan obrazli tafakkuri va o'ziga xos xulq-atvori bilan bog'langan. Shu sabab badiiy uslubda qo'llangan frazemalar ko'p o'rinlarda ijodkorlarning qaysi til jamoasiga mansubligini, ularning qadriyatlarini aks ettirib keladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Frazemalarning badiiy uslubdagi estetik, milliy-madaniy imkoniyatlarini yoritishda, frazemalarga xos lisoniy xususiyatlarni tavsif qilishda V.N.Teliya, V.M.Maslova, Sh.Rahmatullayev, Z.Jumayevalarning ilmiy asarlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Uchbu maqolani yozish jarayonida komponent tahlil, tasniflash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, insoniyat taraqqiyoti maishiy ehtiyoj, masalan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan. Aynan kiyim borasida fikr yuritadigan bo'lsak, milliy va diniy mansubligi nuqtai nazaridan, o'zbek xalqida o'ziga xos kiyim turlari mavjud va kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi halqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillardan hozirga qadar *ro'mol, mursak, kamzul, salla, yaktak, nimcha, kovush-mahsi, etik, do'ppi, telpak, chopon, olacha, to'n, belbog', qars* kabi kiyim turlaridan foydalanishgan. Masalan, salla so'zini olaylik. Ma'lumki o'zbek tilida *salla ol desa, kalla olmoq, ichagini (ichak-chavog'ini) boshiga salla qilmoq* kabi frazemalar mavjudki, xalqning o'ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari milliy-madaniy bo'yoqqa ega frazemalarni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. *Salla* so'zi "uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha bo'ladigan, do'ppi, kuloh, telpak ustidan o'raladigan sidirg'a mato, doka; musulmon erkaklarning bosh kiyimi" degan ma'noni anglatib, frazema tarkibida tilda komponentning ma'nosi yoki uning obrazi bilan bog'liq voqelikni gavdalantiradi. Masalan: *Yaqinda bankda pul bo'lmay qolgan ekan, uch oyligimizni yonidan to'ladi. Yaxshi odam... Sal injiqligi bor... Yaxshi gapni yaxshi ko'radi. Uch-to'rtta kallasi qizigan yordamchilari bor. O'shalar ahmoq. Sallani ol desa kallani oladiganlardan...* (A.Yo'ldosh, Boy).

Ushbu frazemada bo'yoqdorlik kuchli bo'lsa-da, ijodkorlar ularni okkazional qo'llash orqali individuallik va yorqinlik, betakrorlik berish imkoniyatini ko'zlaydilar, natijada frazemaning tarkibini ham o'zgartiradilar, milliy-madaniy bo'yoqqa ega komponentni ikkinchisi bilan almashtiradilar, masalan, *salla ol desa, kalla olmoq* frazemasini T.Malik yangicha bir okkazional ko'rinishda qo'llab, *salla* so'zini *do'ppi* so'zi bilan almashtirgan: ***Do'ppiga qo'shib faqat boshni emas, oyoq-qo'lni ham qiyma-qiyma qilib olib keladi*** (T.Malik.Davron).

Frazemaning obrazlilik uning ichki shakliga, ya'ni semantikasiga asoslanadi, komponentning obrazlilik boshlang'ich denotativ ma'noning ko'chishi bilan bog'liq. Milliy-madaniy xususiyatga ega frazemalardagi obrazlilik semantikasi ikki planda, ya'ni shakl va ifoda planining uyg'unligi asosida hosil bo'ladi. Badiiy asarda *salla desa, kallani olmoq* qo'shma gap qolipli ushbu frazema o'rnida ***igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqmoq*** varianti tanlangan. Masalan: *To'g'ri, juda to'g'ri: igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o'tirmasag-u, sizning o'ringizga o'sha odamlarimizdan birini kirgizsak.* (A.Qahhor, Sinchalak). Abdulla Qahhor o'zbek milliy turmush tarzini badiiy yo'sinda betakror ifodalagan, o'zbek hayoti va turmush tarzini asarlarida so'z kabi katta miqdorda qo'llangan frazemalar orqali bergan. Ijodkor jonli nutqqa xos frazemalarni badiiy qayta ishlab, ularning ma'nosini yangilagan, tarkibdagi ifodani o'zgartirgan, ifoda poetiklik kasb etib, xalqona birliklarga yaqin yangi variantlar paydo bo'lgan.

Badiiy uslubda frazema ishtirok etishining muhim xususiyatlaridan biri ularda ma'noning emotsional-ekspressivlik bilan aloqadorligi, frazemaning poetizm darajasiga ko'tarilishidadir. Har qanday badiiy axborot shunchaki obrazlilikni yuzaga chiqarish bo'lmay, u ma'lumotning aniqligi va o'zaro yaxlitligi bilan bir qatorda, milliy-madaniy mansublik, millatga xos xarakter yoki uning tavsifidan darak beradi. O'quvchi uchun tarkibdagi leksik birliklarning ma'no imkoniyatlari qanchalik tanish bo'lsa, berilayotgan ma'lumot shunchalik keng qamrovli bo'ladi. O'quvchi frazema vositasida nazarda

tutilgan ma’noni to‘la tasavvur qila oladi. O‘quvchining til haqidagi bilimlari yuqori bo‘lsa, u endi tanlangan ifodada ko‘zda tutilgan badiiy mazmunga xos bo‘lgan belgilarni hammaga ma’lum va tushunarli bo‘lgan birliklar bilan emas, balki frazema bilan bilan ifodalagandagina ko‘zda tutilgan maqsadni ro‘yobga chiqarish mumkinligini biladi. Demak, har qanday birlik, ayniqsa, frazemalar badiiy ifodada nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik xususiyatlarni ham o‘zida mujassamlashtirgani bois faol qo‘llanadi.

Z.Jumayevaning ta’kidicha, pazandachilik bilan aloqador xilma-xil lisoniy assotsiatsiyalar shu kasb-kor egalarining ish jarayoni, qolaversa, ular tomonidan tayyorlangan taomlarning u yoki bu xususiyatlari muayyan obrazlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.<sup>23</sup> O‘zbek tilida *zuvala* so‘zi “bitta non yasash yoki bir marta ugra kesish bilan loyiq qilib yumaloqlangan xamir” uzual ma’nosini bildirib, “asos, negiz, tarkib” ko‘chma ma’nolarini ham anglatadi. *Zuvala* non tayyorlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, nonni pishirishga asosdir, o‘zbek ongida so‘z ko‘chma ma’noda shu qadar faolki, *zuvalasi bir joydan olingan, zuvalasi pishiq* frazemalari yuzaga kelgan. Masalan, «*zuvalasi pishiq*» frazemasi o‘zbek ongida xamirni tayyorlash jarayonining assotsiativ tarzda tiklaydi. Xamirni ko‘p qorish, unga yetarlicha ishlov berish zuvalaning to‘la yetilishiga, pishiq bo‘lishiga, ya’ni nonning sifatli bo‘lishiga olib keladi. Ushbu harakat frazemaga ko‘chib *zuvalasi pishiq* frazemasi “a’zoyi badani chiniqqan”<sup>24</sup>, «jismanan pishiq-puxta, yoshiga nisbatan baquvvat, pishiq odam»<sup>25</sup> kabi frazemaning uzual ma’nosini hosil qiladi. ...*zuvalang pishiq yigit ko‘rinasan, So‘zlaring samimimy va chin yurakdan*. (N.Qobul Qalb qasrining sultoni). Ot+sifat qolipli ushbu frazemaning ot+fe’l qolipli (*zuvalasi pishirilgan*) varianti ham mavjud, masalan: *Vahshiylashgan to‘daning «zuvalasi» bolalikda pishirilgan, avvalo, o‘z uyini qo‘shni bolalardan himoya qiladi. R.Hasanov, Surxondanmisiz, Qo‘qondanmi?*). Keltirilgan misolda frazemaning tarkibi *zuvalasi bolalikda pishirilgan* tarzida kengaytirilgan.

Ijobiy yoki salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan kishilarning xususiyatlaridagi o‘xshashlikni, o‘zaro qarindoshligini ta’kidlash maqsadida “har jihatdan bir-biriga o‘xshash odamlar” degan ma’noni anlatuvchi *zuvalasi bir joydan olingan / zuvalasi bir yerdan olingan / zuvalasi bir joyda qorilgan / zuvalasi bir joydan uzib olingan* kabi variantdosh frazemalar qo‘llaniladi.

*Zuvalasi bir joydan olingan* varianti: *Sizga gapirib, ovozdan ajrash hech narsa emas. Botirov bilan sizning zuvalangiz bir joydan olinganga o‘xshaydi*. (B.Rahmonov, Oltin odamlar).

*Zuvalasi bir joydan uzilgan* varianti: *Odam bolasining zuvalasi bir joydan uzilgan bo‘lsa, ularga uzun-uzun yillar ham, past-baland tog‘laru issiq-sovuqlar ham to‘sqinlik qilolmas ekan*. (R.Karimov, La’li Badaxshon).

*Zuvalasi yaxshi joydan olingan* varianti: *Avvaliga ro‘yxushlik bermagani bilan zuvalasi yaxshi joydan olingan ekan, Xojar boldizining yonini olganday bo‘ldi*. (K.Avaz, Qo‘nalg‘a).

<sup>23</sup> Жумаева З. Фразеологик birliklarнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан.б-ча. фалс. д-ри ...дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – Б.14.

<sup>24</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фраземаларининг изоҳли луғати. – Т., 1992. – Б.102.

<sup>25</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. –Т., 2006. – Б.162.

*Zuvalasi bir joydan olingan* frazemasining semantikasi saqlangan holda *zuvalasi mana shu tuproqdan olingan / zuvalasi shundoqqina ko‘chirib olingan / tuprog‘i bir joydan olingan, lekin zuvalasi har xil kabi tarkibiy o‘zgarishlarda qo‘llanuvchi variantlari ham kuzatiladi.*

Ushbu frazemaning okkazional ko‘rinishi G‘.G‘ulom tomonidan yaratilgan, xalq tilida faol qo‘llanuvchi ushbu frazemaga shoir shunday ishlov berganki, badiiy va milliy bo‘yoq qorishmasidan hosil bo‘lgan betakror ifoda yuzaga kelgan: *Ikki o‘rtada so‘z bergandik, tomirmiz deb, Zuvalasi ayrim bitta xamirmiz deb.*

Tilning frazeologik tarkibi – ko‘zgu bo‘lib, unda lingvomadaniy jamoa o‘zini milliy anglashini identifikatsiyalaydi<sup>26</sup>, frazemalarda til jamoasining obrazli tasavvuri milliy-madaniy mansublik asosiga qurilgan bo‘lib, millatning yashash tarzi, tasavvur va tafakkuri muhrlangan shaklda ifoda etiladi.

Ba‘zi frazemalar bilan bog‘liq turli rivoyat, aqida, tushunchalar mavjudligi ma‘lum, bunday frazemalarning ma‘nosiga tarkibdagi so‘zlar ishora qilmaydi, masalan: *Abdurasul esa bosh chayqadi-da, qattiq bir pishqirib Davlatyorga aytdi: Dumi xurjunda ish qilib qo‘yibsanda, uka!* (P.Tursun, O‘qituvchi.) “Dumi xurjunda frazemasi esa maxsus latifa bilan bog‘lanadi. Latifaning qisqa mazmuni quyidagicha: Afandi eshagini sotish uchun bozorga olib ketayotganida eshak loyga botib, dumi iflos bo‘ladi. Yuvib tozalay desa, suv topilmaydi. Eshakning dumini kesib, xurjunga solib oladi, bozorda xaridorlar eshakning dumini so‘rashsa, «Dumi xurjunda», deb javob beradi. Xaridorlar aynab ketaveradi, eshak sotilmay qoladi. Demak, eshakning sotilmasligiga Afandi qilgan «dumi xurjunda» ish sabab bo‘ladi”.<sup>27</sup> *Dumi xurjunda* frazemasi “o‘lda-jo‘lda, tumtoq, chatoq” ma‘nosini anglatib, *Abdurasul esa bosh chayqadi-da, qattiq bir pishqirib Davlatyorga aytdi: Dumi xurjunda ish qilib qo‘yibsanda, uka!* (P.Tursun, O‘qituvchi.) uzual ma‘no ifodasi uchun xizmat qilmoqda.

“Yelkasi yerga tegmagan” frazemasi “yengilmagan, doim yutib chiqqan, teng keluvchi topilmagan” (O‘TFL, 80) uzual ma‘nosi uchun vosita bo‘lgan. S.Ahmadning “Ufq” romanidan olingan quyidagi parchada esa mazkur frazemaning “yelkasi yer ko‘rmagan” varianti o‘g‘lining kelajakda zo‘r polvon bo‘lishi, hech qachon yengilmasligi haqidagi kechinmalari frazema orqali ifodalangan: *Yiqilgan polvonlarning yelkasiga o‘sha to‘nlarni tashlab, bolamni duo qilinglar, saflaringda yelkasi yer ko‘rmay yursin, deb katta qozonda osh damlab yedirib kelganlar.* (S.Ahmad, Ufq). Ushbu frazemaning jonli nutqda *yelkasi yer iskamagan* varianti ham qo‘llanib keladi: *Agar unga yiqilib bersa, ellik yil yelkasi yer iskamay kelgan, shu oxirgi kurashdan keyin polvonlikni tashlab, umrining qolganini toat-ibodat bilan o‘tkazaman, deb ahd qilib qo‘ygan* (S.Ahmad, Ajdaho o‘tgan yo‘llarda).

**Xulosa va takliflar.** Badiiy uslubda, ayniqsa, she‘riyatda frazeologik okkazionalizmlar badiiy ifodaning asosini ifodalaydi. Shu asosga urg‘u beriladi. Bu asos lug‘atda mavjud so‘zlar orqali voqelantirilsa, ijodkorning ko‘zda tutgan maqsadi aniq ifodalanmay qoladi. Shuning uchun tasvir ob‘ekti asosining xuddi ko‘zlangan qirrasini ochish uchun okkazional ma‘no yuklangan frazema tanlanadi. Tanlash imkoniyati

<sup>26</sup> Телия В.Н. Фразеология русской культуры. – М.: Русский язык, 1999. – С.156.

<sup>27</sup> Шоабдурахмонов Ш. Аскарлова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.142.

cheklangan bo‘lsa, mavjud frazema ijodkorning didiga mos tushmasa, u o‘z didiga mos keladigan yangi shaklni yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жумаева З. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан.б-ча. фалс. д-ри ...дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – Б.14.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фраземаларининг изоҳли луғати. – Т., 1992. – Б.102.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати . Иккинчи жилд. –Т., 2006. – Б.162.
4. Телия В.Н. Фразеология русской культуры. – М.: Русский язык, 1999. – С.156.
5. Шоабдурахмонов Ш. Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.142.

## O‘ZBEK TILIDA “TARBIYA” SEMANTIK MAYDONI ATOV BIRLIKLARINING SHAKLLANISH MANBALARI VA TARIXIY-SEMANTIK TAHLILI

**Karimova Latofat** ,

*Navoiy davlat universiteti*

*“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “tarbiya” atamasining arab tilidagi etimologiyasi, tarixiy shakllanish jarayoni va o‘zbek tilida mazmunan qanday rivojlanganligi tahlil etiladi. “Tarbiya” so‘zining ilk lug‘aviy ma‘nolari, arab va islomiy pedagogik manbalardagi qo‘llanishi, Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy kabi mutafakkirlarning qarashlari, shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy va o‘zbek ma‘rifatparvarlarining asarlarida bu tushunchaning talqini bayon etiladi. Mustaqillikdan keyingi davrda “tarbiya” konseptining semantik maydonida yuz bergan kengayish, u ijtimoiy, axloqiy va fuqarolik tarbiyaning ko‘p qirrali tizimiga aylangani ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, etimologiya, axloq, islomiy ta‘lim, semantik maydon, komil inson.

**Abstract.** This article explores the etymology of the term “tarbiya” in Arabic, its historical development, and semantic evolution within the Uzbek language. It analyzes the early meanings of the word, its use in Islamic pedagogical literature, and the perspectives of scholars such as Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Ghazali. The concept is also examined through the works of Mahmud al-Kashgari, Alisher Navoi, and Uzbek enlighteners. Special attention is given to the expansion of the semantic field of “tarbiya” in the post-independence era, where it encompasses moral, civic, and spiritual education.

**Keywords:** tarbiya, etymology, morality, Islamic education, Uzbek enlighteners, semantic field, perfect human being.

Arab tilidagi “tarbiya” (تربية) leksemasi ر ب ب (r-b-b) fe‘l ildiziga borib taqaladi. Ushbu ildizdan rivojlangan رَبَّ (rabb) so‘zi lug‘aviy jihatdan “parvarish qiluvchi”, “o‘stiruvchi”, “kamolga yetkazuvchi” ma‘nolarini anglatadi [1]. Bu ildizga asoslangan تربية ot shakli arab tilida dastlab moddiy yoki jismoniy narsa (o‘simlik, bola, hayvon)ni bosqichma-bosqich o‘stirish, mukammal holatga yetkazish mazmunida qo‘llanila boshlagan. Keyinchalik bu so‘z axloqiy, ruhiy va intellektual rivojlanishni ham anglatadigan pedagogik-axloqiy tushunchaga aylangan.

Ilk marta “tarbiya” so‘zining hozirgi o‘zbek tilidagi “tarbiyalash, kamolga yetkazish” ma‘nosiga yaqin mazmunda ishlatilgan yozma manbalardan biri XIII asrda tuzilgan mashhur arab tili lug‘ati “Lisān al-Arab” bo‘lib, unda bu atama quyidagicha izohlanadi:

“التربية: إنشاء الشيء حالاً فحالاً إلى حد التمام”, ya’ni: “Tarbiya – biror narsani bosqichma-bosqich yetuklik darajasiga olib chiqishdir” [2].

Bu izohdan ko‘rinadiki, “tarbiya” so‘zi dastlab biologik va tabiiy o‘shish mazmunida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning semantik maydoni kengayib, insoniy xulq, axloq va ijtimoiy yo‘nalishdagi tarbiyaviy jarayonlarni ham qamrab olgan. Ayniqsa, IX–XI asrlarda yozilgan adabiy va falsafiy asarlarda – xususan, Al-Johiz, Ibn Qutayba, al-G‘azzoliy kabi mutafakkirlar ijodida bu so‘zning ijtimoiy-pedagogik mohiyatda ishlatilganligi kuzatiladi. Shundan so‘ng, “tarbiya” atamasi arab tilida ilmiy-pedagogik termin sifatida shakllanib bordi.

Islom olamida bu so‘z VIII-IX asrlarda shakllangan ilmiy-adabiy asarlar, xususan, ta‘lim va axloqiy tarbiya haqidagi kitoblarda keng qo‘llanila boshlangan. Ayniqsa, mashhur islom ulamolari, masalan, Al-Farobiy, Ibn Sino, Imom G‘azzoliy kabi mutafakkirlarning asarlarida “tarbiya” tushunchasi ta‘lim-tarbiya jarayonining muhim qismi sifatida yoritilgan.

O‘zbek tilida “tarbiya” so‘zining qo‘llanilishi esa islom madaniyatining tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu so‘z diniy va dunyoviy ta‘lim-tarbiya jarayonlarida ishlatilgan. Shu bois, bu so‘z o‘rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, ilmiy va ta‘limiy hayotida muhim o‘rin egallagan.

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da *tarbiya* so‘zining kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi: arabcha TARBIYAT(UN) shakliga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga cho‘ziq i unlisini i unlisiga almashtirib, so‘z oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan: tarbiyat – tarbiya; “boqdi”, “tarbiyaladi” ma‘nosini anglatuvchi “rabba” fe‘lidan [3] hosil qilingan II bob masdari bo‘lib [4], o‘zbek tilida jismonan va axloqan parvarishlash ma‘nosini anglatadi. O‘zbek tilida bu so‘zdan tarbiyachi oti, tarbiyala fe‘li, tarbiyali sifati yasalgan [5]. Hozirgi kunda “tarbiya” so‘zi tarbiya, ta‘lim va o‘qitish jarayonlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Abu Nasr Forobiy ta‘lim va tarbiyaga birinchi marta ta‘rif bergan olim sanaladi: “Ta‘lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma‘lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, – deydi olim. – Ta‘lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta‘lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, yani shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bolgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir” [6]. Umuman, Forobiy o‘z davridagi yoshlarning ta‘lim olishlari, bilim egallashlari, hunar egallashlari, faoliyat ko‘rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta‘lim-tarbiyada g‘oyat muhimdir.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy til boyliklarini o‘z ichiga olgan ulkan manbadir. Unda “tarbiya” so‘zining zamonaviy ma‘nosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatilishi kuzatilmaydi, chunki u davrda “tarbiya” atamasi arabcha kelib chiqishi tufayli lug‘atdan o‘rin ololmagan. Ammo asarda “tarbiya” tushunchasiga yaqin bo‘lgan turkiy so‘zlar va iboralar mavjud bo‘lib, ular tarbiya, odob, ta‘lim va axloqiy qadriyatlarini bildiradi. Bular:

1. Erdäm - odob, axloq, tarbiya. Shuningdek, maqol keltirilgan: “Erdäm başi tül” [7]. Ma‘nosi: odobning boshi til. Shirin tilli bo‘lgan kishi yuqori martaba topadi.
2. Edgü – yaxshi, ezgu; yaxshi tarbiya olgan yoki yaxshi xulqli odam (DLT, 33).

3. Bilge – dono, aqlli; tarbiya va bilim orqali yuqori darajaga yetgan shaxs (DLT, 35).

4. Törü – qonun, tartib; bu so‘z tarbiya va intizomni ifodalaydi (DLT, 42).

5. Tüzlük – to‘g‘rilik, rostlik; yaxshi tarbiya natijasida shakllangan fazilat (DLT, 33).

6. Elgü – yaxshi inson; odobli va yaxshi tarbiyalangan shaxs (DLT, 43).

7. Tört yolu – to‘rt yo‘l; yaxshi va yomon xulqni tanlash masalasida ishlatiladi, tarbiyaviy yo‘l-yo‘riqni ifodalaydi (DLT, 35).

Shuningdek, asarda jamiyatda tarbiya, odob va tartibni ta‘minlash bilan bog‘liq hikmatli iboralar va maqollar ham uchraydi. Bular:

Bilgili bosh erdük biligsiz bosh igitmez.

(Bilimli bosh davlatni boshqaradi, bilimsiz esa boshqara olmaydi.)

Bu ibora tarbiya va bilimning jamiyatdagi rolini ko‘rsatadi.

Kishi öz tögärig bilse, bilge bolur.

(Inson o‘z chegarasini bilsa, dono bo‘ladi.)

Bu tarbiyaning chegaralarni anglash orqali kamolotga erishishga yo‘naltirilganligini ta‘kidlaydi.

Alisher Navoiy ham tarbiya masalasiga katta e‘tibor qaratgan va bu mavzuda qator asarlar yaratgan. Uning quyidagi asarlari tarbiya bilan bog‘liq:

1. “Mahbub ul-qulub” asari axloqiy-ta‘limiy qarashlar bilan boyitilgan bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, odob-axloq qoidalari, yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritiladi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Navoiyning ushbu asarida “tanbeh” janri tarbiya, o‘g‘itlar uchun asoslangan. Navoiyga qadar hech qaysi asarda bu janr alohida ilova qilinmagan edi.

2. “Hayrat ul-abror” “Xamsa” tarkibiga kiruvchi ushbu asarda insoniy fazilatlar, yaxshi odatlar, halollik, adolat va ta‘lim-tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z boradi.

3. “Lison ut-tayr” ramziy-didaktik doston bo‘lib, unda insonning kamol topishi, yaxshi xulq-atvor va ta‘limning muhimligi aks ettirilgan.

4. “Farhod va Shirin” dostoni faqat sevgi haqida emas, balki adolat, mardlik, mehr-oqibat va yaxshi tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati haqida ham hikoya qiladi. A.Navoiy asarlarida tarbiya ma‘nosida, asosan, “adab”, “tavoze”, “hidoyat”, “tarbiyat” so‘zlari ko‘p qo‘llanilgan.

O‘zbek ma‘rifatparvarlari asarlarida tarbiya shunchaki bola yoki yosh avlodni o‘rgatish emas, balki komil insonni voyaga yetkazish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvda axloq, ilm, odob, vatanparvarlik tushunchalari markazga chiqadi. Ular uchun tarbiya – jamiyatni isloh qilishning yagona yo‘li. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” jummalari orqali tarbiyaga millat taqdiri darajasida yondashganini ko‘ramiz.

Ma‘rifatparvarlar uchun tarbiyaning asosi – axloqdir. “Adab”, “odob”, “halollik”, “vijdon”, “kamtarlik” kabi so‘zlar “tarbiya” bilan semantik bog‘liqlikda ishlatilgan: “Adab – tarbiyaning asosi va insonni inson qiladigan eng oliy fazilatdir. Adabsiz kishidan na ilm, na hunar, na manfaat kutilur” [8].

“Tarbiya” ko‘p hollarda ilm olish, ziyo tarqatish, dunyoqarashni kengaytirish bilan bevosita bog‘lanadi: “Aqlli odamlar o‘z farzandlarini yoshligida tarbiyalaydurlar” [9].

Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshidagi o‘zbek ma’rifatparvarlarining asarlarida tarbiyaga milliy va vatanparvarlik tarbiyasi – ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi vosita sifatida ham qaraladi: “Farzandlarimizni vatan va xalq xizmatiga tarbiya qilmas ekanmiz, ertaga bizdan so‘raydilar” [10].

Sho‘ro davrida o‘zbek jamiyatida “tarbiya” tushunchasi mafkuraviy yo‘nalishda yangicha semantik mazmun kasb etdi. Tarbiya bu davrda ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarga sodiqlik, mehnatsevarlik, kollektivchilik, kommunistik axloq kabi tushunchalar bilan bog‘landi. Tarbiya endi faqat axloqiy emas, balki texnikaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikni ham o‘z ichiga olgan keng semantik qamrovga ega bo‘ldi. “Tarbiya” leksemasi o‘z ma’nodoshlar tizimini yangilab, ilgari ustuvor bo‘lgan milliy-axloqiy komponentlar o‘rnini mafkuraviy-siyosiy birliklarga bo‘shatdi. Shu bilan birga, uning semantik maydoni kengaydi, biroq mazmuni marksistik-lenincha g‘oyalar bilan chegaralandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, “tarbiya” konsepti mafkuraviy yuklamadan xoli bo‘lib, o‘zining asl milliy-ma’naviy asoslariga qaytdi. Tarbiya tushunchasining semantik maydoni kengaydi, u faqat axloqiy yoki ma’rifiy jarayon emas, balki shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish vositasi sifatida talqin qilina boshladi. Avvalgi davrlarda mavjud bo‘lgan mafkuraviy birikmalar o‘rnini “milliy g‘urur”, “vatanparvarlik”, “ma’naviy poklik”, “insonparvarlik”, “ona tiliga hurmat” kabi ijobiy-mazmunli birliklar egalladi. Bu davrga xos bo‘lgan ayrim leksik birliklar quyidagilardir: *ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, yoshlar tarbiyasi, oila tarbiyasi, xalqchil tarbiya, ruhiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, komil inson tarbiyasi, mustaqil fikrlovchi avlod tarbiyasi.*

Tarbiya semantik maydoni hozirgi davrda *ijtimoiy barqarorlik, shaxsiy mas’uliyat, huquqiy ong, ekologik madaniyat, axborot madaniyati* kabi yangi semantik qatlamlar bilan boyidi. Bu esa, tarbiya maydonining ko‘lamini kengaytirish barobarida uning mohiyatini chuqurlashtirdi, ya’ni tarbiya endilikda shaxsni ma’naviy, jismoniy, aqliy, estetik, ijtimoiy, fuqarolik jihatdan rivojlantiruvchi ko‘p qirrali ijtimoiy hodisaga aylandi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “tarbiya” leksemasi islomiy madaniyat va diniy-ta’limiy manbalar asosida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tilida pedagogik, axloqiy va ma’naviy parvarish mazmunida qo‘llanib kelgan. Forobiy va Navoiy asarlarida esa bu tushuncha chuqur falsafiy asosda yoritilib, xalqimiz tafakkurida ko‘p qatlamli, madaniy va axloqiy qiymatga ega semantik birlik sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Tarbiyaning turkiy xalqlar hayotida ham muhim o‘rin tutganligi turkiy yozma yodgorliklar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy asari orqali bizgacha yetib kelgan “erdäm”, “edgü”, “bilge”, “tüzlük” kabi istilohlarda o‘zining ifodasini topganligi buning yorqin dalilidir. O‘zbek ma’rifatparvarlarida esa tarbiya konsepti milliy, diniy va dunyoviy qadriyatlarning sintezidan iborat bo‘lib, ular tarbiya vositasida millatni uyg‘otish, islohotga yetaklash maqsadini ko‘zlaganlar. Tarbiya har doim halollik, vijdon, aql, odob, sadoqat kabi axloqiy birliklar bilan bog‘langan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn Manzūr. Lisān al-‘Arab (لسان العرب). – Bayrut: Dār Ṣādir, 1955. Jild 1. – B. 364.
2. Ibn Manzūr. Lisān al-‘Arab. Beirut: Dār Ṣādir, 1998. Jild 17. – B. 398.
3. Баранов Х. К. Арабско-русский словарь. Изд. “Русский язык”, М.: 1976. С. 281
4. Иброҳимов Нематулло, Юсупов М. ва бошқалар. Араб тили грамматикаси I жилд. “Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Т.: 2002.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II jild. Toshkent “Universitet”, 2003. – B. 420.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. “Yangi asr avlodi”, Toshkent, 2016. B. 286.
7. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk (Q.Sodiqov nashri). Toshkent, 2017. – B. 55.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 10
9. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 21.
10. Avloniy A. Maktab va tarbiya haqida maqolalar // Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 48.

## O'ZBEK SHEVALARIDA AFFIKSATSIYA USULIDA SO'Z YASALISHI

**Raxmonov Navro'z,**

*Navoiy davlat universiteti dotsenti,*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek shevalarida affiksatsiya usulida so'z yasalishi masalasi, uni o'rganishning ahamiyati, adabiy tilga sinxron va diaxron jihatdan munosabati, etnolisoniy xususiyatlari tahlil qilingan.

**Annotation.** This article analyzes the issue of word formation by affixation in Uzbek dialects, the importance of studying it, its synchronic and diachronic relationship to the literary language, and its ethnolinguistic features.

**Аннотация.** В статье анализируется проблема словообразования путем аффиксации в узбекских диалектах, важность ее изучения, ее синхроническая и диахроническая связь с литературным языком, ее этнолингвистические особенности.

**Kalit so'zlar:** so'z yasalishi, yasama so'z, affiksatsiya, so'z yasash qoliplari, sheva, etnos

**Keywords:** word formation, coinage, affixation, word formation patterns, dialect, ethnicity

**Ключевые слова:** словообразование, вымышленное слово, аффиксация, модели словообразования, диалект, этнос

**Kirish.** Hozirga qadar shevashunos olimlarimiz tomonidan to'plangan boy dialektal materiallar ularni hozirgi o'zbek adabiy tilining bo'limlari bilan aloqadorlikda o'rganish, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida tatbiq etish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Dialektlarda so'z yasalishi masalasi ham shular jumlasidan. "So'z yasalishi muammosining tadqiqi dialektlarni o'rganish bilan uzviy bog'liq. O'zbek so'zlashuv nutqi materiallari o'zbek tili so'z yasalishida hali aniq bo'lmagan ayrim masalalarning yechimi uchun foydali ma'lumotlar bera oladi"<sup>28</sup>. Zero, jonli shevalar o'zida yozma adabiy manbalarda, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham uchramaydigan ba'zi grammatik shakllar, leksik birliklarni saqlab qolganki, ularni to'plash va ilmiy asoslarda o'rganish g'oyatda muhim xulosalar chiqarishimizga asos bo'ladi.

### **Adabiyotlar tahlili:**

O'zbek tilshunosligida so'z yasalishining nazariy masalalari A.G'ulomov, A.Hojiyev, Y.Tojiyev kabi olimlarning tadqiqotlarida monografik tarzda yoritilgan. O'zbek shevalarida esa ayni hodisa nihoyatda kam o'rganilgan bo'lib, U.Ibragimovning "Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida so'z yasalishi" (Qarshi, 2020),

<sup>28</sup> Гулямов А.К. К Некоторым вопросам аффиксации в узбекском языке // Айюб Гуломовнинг илмий мероси. – Тошкент, 2005. –Б.15.

N.Raxmonovning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalari morfologik xususiyatlarining lingvoareal tadqiqi” (Samarqand, 2019) nomli tadqiqotlarini, shu bilan birga, dissertatsiya, darsliklarda yo‘l-yo‘lakay berilgan misollarni ko‘rsatish mumkin. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, X.Doniyorov, N.Rajabov, M.Mirzayev, B.Jo‘rayev, Q.Muhammadjonov, S.Ibrohimov, T.Yo‘ldoshev, M.Murodova kabi qator shevashunoslarimizning mashaqqatli mehnati samarasi o‘laroq yuzaga kelgan tadqiqotlarda muayyan dialektlarda yasalgan so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin.

### **Tadqiqot metodologiyasi:**

Ushbu maqolada shevalardagi so‘z yasalishi masalalsini yoritishda tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvoareal tadqiq metodlaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar:**

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagidek, shevalarda ham affiksatsiya usulida so‘z yasalishi eng faol usul bo‘lib hisoblanadi. Bu usul tadqiqotlarda *affiksatsiya, suffiksatsiya, morfologik usul, so‘z yasovchi qo‘shimchalar vositasida so‘z yasalishi* kabi atamalar bilan nomlanib kelinmoqda. Bu usulning afzalligi shundaki, ijtimoiy leksikada mavjud bo‘lgan so‘zlardan yangi-yangi so‘zlar yasash imkoniyati yuqori. Buxoro shevalarini maxsus o‘rgangan shevashunos M.Mirzayev bu shevalarda -chi so‘z yasovchisining etimologik jihatdan turlicha bo‘lgan so‘zlardan (o‘zbekcha, tojikcha, arabcha, ruscha-international) so‘z yasash imkoniyati mavjudligi, Buxoro guruh shevalarida *tegirmonchi, nag‘orachi, vadpravotchi, foytunchi, tingtingchi (eski ko‘rpalardan chiqqan paxtani maxsus charxlar vositasida tozalab va yumshatib beruvchi shaxs)* kabi so‘zlar uchrashini qayd etgan<sup>29</sup>.

O‘zbek adabiy tilidagi yasama so‘zlar bilan shevalardagi yasama so‘zlar o‘xshash bo‘lsa-da, shevalardagi o‘ziga xos xususiyatlar asosida yangi-yangi so‘zlarning yasalishi bilan o‘zbek adabiy tilidan farqlanadi. Masalan, Qashqadaryo qipchoq shevalarida *sutni qatiqqa aylantirishda kerak bo‘ladigan ozgina suzmani ifodalovchi ko‘nargi* so‘zi keng tarqalgan bo‘lib, morfem jihatdan uch qismdan (ko‘na+r+gi) tashkil topgan: ya‘ni asosi sifat (ko‘na), -r fe‘l yasovchi, -gi ot yasovchi qo‘shimcha sifatida so‘zning morfem tarkibini shakllantirgan. So‘z yasalish tuzilishida esa bu so‘z quyidagicha tahlil qilinadi: *ko‘nar* (fe‘l), *-gi* so‘z yasovchi vosita, ya‘ni fe‘ldan ot yasalgan.

O‘zbek dialektlarida til tarixining dastlabki davrlarida qo‘llangan *o‘trikchi (yolg‘onchi), jupkarchi (chaqimchi), ushakchi (g‘iybatchi)* kabi so‘zlar hozirgi tilimiz nuqtayi nazaridan tub sanalsa-da, tarixan yasama so‘zlar bo‘lgan. Darhaqiqat, so‘z yasash qoliplari lisoniy ong mahsuli sifatida qadimiy hodisa. Buni A.Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridagi quyidagi qaydlari ham to‘la tasdiqlaydi: *“mansabda andoqki, qo‘rchi va suvchi va xizonachi va kerak yarog‘chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi... yo‘sunluq ko‘pdur... hunar va peshada andoqki, qushchi va borschi va qo‘ruqchi va tamg‘achi va halvochi va kemachi va qo‘ychi... andoqki, qush hunarida dog‘i bu istiloh bordur: turnachi va kiyikchi va tovushqonchi”*<sup>30</sup>.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan yasashga asos qism va yasovchi vositaga ajralmaydigan *siylamoq, o‘dag‘aylamoq* kabi so‘zlarning yasalish asosi qipchoq

<sup>29</sup> M.Мирзаев. Ўзбек тилининг Бухоро гуруҳи шевалари. –Т. .: Фан, 1969. –Б.49-50

<sup>30</sup> Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн. –Б.18

tipli o‘zbek shevalarida mustaqil ma’no ifodalaydi: *Siyingni* bilib o‘tir. *Siying* borida bu yerdan ket kabi (siy – hurmat); *o‘dag‘aylamoq* fe‘lining asosi *o‘dag‘ay* (do‘q) tarzida shevalarda mavjud. Qiyoslang: *siy+la – hurmat+la*, *o‘dag‘ay+la – do‘q+la*. Anglashiladiki, yasama so‘zning yasalish asosini “hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud so‘z”dan qidirish mantiqsiz. Sababi tilning bunyodkori bo‘lgan xalq lisoniy ongida so‘z yasalishi “adabiy tilda mavjud bo‘gan so‘z”ga zarurat sezmagani, balki bu ehtiyoj o‘rnini kundalik turmushda ishlatiladigan mahalliy so‘zlar egallagan.

Ayrim so‘zlarning etimologiyasini aniqlashda shevalarda yasalgan so‘zlarni sharhlay bilish ham muhim. A.Ishayev o‘zining “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” nomli risolasida dialektal lug‘atlarning ahamiyati, jumladan, ularning o‘zbek adabiy tilidagi ayrim so‘zlarning etimologiyasini aniqlashga yordam berishini, bu fikriga misol tariqasida F.Abdullayevning bir maqolasida “ag‘isaq” (oqsoq) va “asqatmoq” so‘zlarining keltirilganini qayd etadi: *ag‘isaq* (Qarnoq) bo‘sh, omonat, zo‘rg‘a turgan (ag‘+i+saq – og‘uchan – oqsoq so‘zi ham shundan); *asqatmoq* (And., O‘sh) foyda keltirmoq; yordam ko‘rsatmoq (asig‘ yetmak).<sup>31</sup> O‘g‘uz tipli shevalarda uchraydigan *qo‘nshi* so‘zi metateza natijasida hozirgi adabiy tilda *qo‘shni* shaklini olganligini ham sheva materiallari asosida sharhlash mumkin. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

So‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan morfemalarga ajralmasa-da, ularning asosi yoki yasovchi vositasi shevalarda haligacha saqlangan. Masalan, DLT da xamirni yoyishda ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or buyumi – *o‘qlovni* ifodalashda *yug‘urg‘uch* so‘zi keltirilgan. Garchi bu so‘zda *-g‘uch* shakli ot yasovchi tarzida ko‘rinib tursa-da, uning asosi *yug‘ur* so‘zi o‘zbek adabiy tilida mustaqil morfema sanalmaydi. Qipchoq tipli o‘zbek shevalarida esa “xamirni yoyish” ma’nosida *yug‘urmoq* so‘zi mustaqil ma’noda qo‘llanadi. *Xamirdi yug‘urub qo‘yay*.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar etnosning turmush tarzi, mashg‘ulotlari, qiziqishlari, hududda tarixan hunarmandchilik, bog‘dorchilik, novvoylik kabi qator sohalarning rivojlanganligi, kasb, sohalar taraqqiyoti xususida ham qiziqarli ma’lumotlar bera oladi. Chunonchi, shevashunos M.Mirzayev Buxoro dialektida uchraydigan quyidagi shaxs oti yasovchilarni keltirib o‘tadiki, bu shevalar tadqiq etilgan davr Buxoro vohasidagi ijtimoiy hayot, kasb-kor xususida muayyan tasavvurga ega bo‘lamiz: *-kor: gilkor (ad.shuvoqchi)*, *-gar: na:lgar (ad.taqachi)*, *-boz: bedonaboz (ad. bedanavoz)*, *-tarosh: shonatarosh (taroqchi)*, *po‘sttarosh (teri tarashlovchi)*, *-paz: kulchapaz*, *-toz: ko‘boritoz (chavandoz)*, *gilembof (gilam to‘quvchi)*, *qolinbof (qolin to‘quvchi)*<sup>32</sup> kabi. Shuningdek, o‘zbek shevalarida keng uchraydigan *shuvoxchi* (suvoqchi), *teyirmonchi* (tegirmonchi), *tannurchi* (tandir yasaydigan kishi), *namatchi*; Nurota o‘zbekcha-tojikcha ikki tilli hududlari shevalarida uchraydigan *xolzanak*, *naxzanak (tikach turlari)*; qipchoq tipli shevalarda uchraydigan *ulijun*, *tirijun (chorva hayvonlarining qirqimdan keyingi junlarining nomlari: bahorgisi ulijun (o‘lik jun)*, *kuzdagisi tirijun (tirik jun)*, *to‘ngmoy (charvi yog‘i)*, *alacha (qo‘lda to‘qilgan gilam)*, *holigilam (qo‘y junidan to‘qilgan qalin gilam)* kabi so‘zlar hudud aholisining

<sup>31</sup> Bu haqda qarang: Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Т.Фан, 1990. –Б.11.

<sup>32</sup> Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. –Тошкент, 1969. –Б.49-50.

turmush tarzi, mashg'uloti, sohalar taraqqiyoti xususida qimmatli ma'lumotlarni o'zida saqlab kelmoqda.

**Xulosa.** Shevalardagi so'z yasalihi lisoniy qoliplarning mahsuli sifatida qadimiyligi, shu bilan birga, etnosning tafakkur tarzi, voqelikni anglash darajasi, turmush tarzi, qadriyatlarini kabilar xususida ham keng va to'laqonli ma'lumot bera olishi bilan diqqatga sazovor. Shu boisdan hozirgacha yaratilgan tadqiqot ishlari va lug'atlarda saqlangan so'z yasalihi borasidagi sheva dalillarini mukammal, tizimli tahlil qilish, zarur xulosalar chiqarish har jihatdan zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев Ф.А.Хоразм шевалари. –Тошкент: ЎзФА нашр., 1961. – Б.348.
2. Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. –Тошкент, 2022.
3. Гулямов А.К. К Некоторым вопросам аффиксации в узбекском языке // Айюб Гуломовнинг илмий мероси. –Тошкент, 2005.
4. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Т.Фан, 1990.
5. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). –Тошкент, 2017. (Нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиков) –482б.
6. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. –Тошкент, 1969.
7. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясаиши тизими.–Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 168б.

## PRAGMATIKA VA SUBYEKTIV MUNOSABATLAR: DIALOG KONTEKSTIDA

**Qurbonova Yulduz,**

*Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Jo'rayeva Sevinch**

*O'zbek tilshunosligi kafedrasi  
1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Dialogning badiiy asar tilining badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita ekanligi. Badiiy matnlarda personajlar ruhiy holati, atrofdagilarga munosabatini, voqealar rivojini ko'rsatishda dialogik nutq muhim pragmatik vosita ekanligi.

**Kalit so'zlar:** Matn, nutq, dialog, personaj, pragmatika, verbal, noverbal.

**Аннотация.** Диалог является важным средством усиления художественно-эстетического воздействия языка художественного произведения. Диалогическая речь является важным прагматическим средством показа душевного состояния персонажей, их отношения к окружающим, развития событий в художественных текстах.

**Ключевые слова:** Материя, мышление, диалог, личность, прагматика, вербальный, невербальный.

**Annotation.** Dialogue is an important means of enhancing the artistic and aesthetic impact of the language of an artistic work. Dialogic speech is an important pragmatic means of showing the mental state of characters, their attitudes towards others, and the development of events in literary texts.

**Keywords:** Matter, thinking, dialogue, personality, pragmatics, verbal, non-verbal.

**Kirish.** Har bir shaxs muloqot jarayoniga kirishar ekan fikrini, his-tuyg'isini, munosabatini yozma yoki og'zaki shaklda bayon etish jarayoni oldida maqsad turadi. Muloqot, jumladan nutqiy muloqot inson faoliyatining maxsuli bo'lib u psixologiya va falsafaning juda chigal muammolaridan biridir. Muloqot, ya'ni odamlarning bir-biri bilan aloqa aralashuvi, bir qarashda oddiy bir narsadek tuyiladi, ammo insoniy faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan muloqotning qanchalik murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini tasavvur qilsak, uning naqadar murakkabligini ko'rish mumkin.

Nutqning paydo bo'lishi, uning yuzaga chiqish jarayoni, ko'rinishlari, maqsad va natijasi inson nutqiy faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha soha vakillarini birday qiziqtirishi tabiiy.

Nutqning paydo bo'lishidan tortib uning voqelanishi va samarasini qamrab oluvchi jarayon asosida, albatta, muloqotga bo'lgan zarurat yotadi. Shuning uchun mazkur ehtiyojni boshlang'ich asos sifatida belgilash va shunga ko'ra keyingi bosqichlar to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Pragmatik nuqtai nazardan adresant – xabar – adresat tizimida, avvalo, so'zlovchi yoki yozuvchining nutq qaratilgan shaxs bilan muloqotga kirishish maqsadiga sabab bo'lgan fikr keyingi bosqich, ya'ni fikrning

voqelanishi – og‘zaki yoki yozma tarzda namoyon bo‘lishini ta‘minlaydi. “Ma‘lumki, nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unurning ishtiroki majburiydir, ya‘ni so‘zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o‘quvchi) to‘g‘ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoq, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot a‘zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g‘ayrilisoniy vositalarning ham o‘rni benihoya muhim, hatto ko‘pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasiz muloqot jarayoni voqe bo‘lolmaydi”<sup>33</sup>. Inson nutq yo‘naltirilgan shaxs bilan muloqotga kirishishdan oldin ifodalaydigan fikrlarini ko‘ngildan o‘tkazadi, so‘z tanlaydi. Nutqiy muloqotga kirishishda so‘zlovchi oldiga qo‘yilgan maqsad va ichki ma‘noning shakllanishini ta‘minlovchi til birliklarining tanlanishi muloqotning pragmatik samarasini belgilab beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dialogda ishtirok etuvchi birliklar muayyan uslubiy vazifani bajaradi. Til birliklarining nutqiy vaziyatga mos kelishi hamda so‘zlovchi ko‘zlagan maqsadiga erishishida ishtirok etishi va nutqning emosional-ekspressivligini ta‘minlashida dialog muhim vosita sifatida qatnashadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** A.R.Luriyaning ta‘kidlashicha, “Psixologlar tomonidan olib borilgan nutqning rivojlanishiga oid tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma‘noning keng nutqqa ko‘chishi ichki nutq vositasida amalga oshadi.”<sup>34</sup> Demak, ichki nutq asosida shakllangan fikr tashqi nutqda nutqiy muloqot ishtirokchilari miqdoriga qarab monolog, dialog va polilog kabi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida nutqning bu ko‘rinishlari, ularning sintaktik sathda tutgan o‘rni, funksional-semantik imkoniyatlari ma‘lum darajada o‘rganilgan.<sup>35</sup> Monologik nutq yakka shaxsning voqelik faktlariga munosabati, ruhiy kechinmalari ifodasi bo‘lsa, polilogik nutq ma‘lum mavzu va maqsad atrofida kechgan ko‘pchilikning fikr almashishi sifatida namoyon bo‘ladi. “Dialogik matn ikki shaxsning mavzuiy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig‘indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir”<sup>36</sup>.

**Tahlil va natijalar.** Dialogning pragmatik tabiatini belgilashda kommunikativ vaziyat muhim o‘rin tutadi. Bunda muloqot ishtirokchilarining o‘zaro munosabatini, nutqiy vaziyatdagi mavqei, odob-axloqi, ma‘naviy saviyasini ko‘rsatishda dialogning o‘rni beqiyos. Chunki “Har qanday diskurs ishtirokchilari o‘ziga berilgan imkoniyatlar yordamida munosabatga kirishadi. Uning nutqdagi hokimlik darajasi o‘sha vaziyatning o‘zida xatti-harakatda ham sezila boshlaydi”<sup>37</sup>. Til birliklarining tanlanishi va dialogik nutqda amal qilishida bu omillar badiiy asar tilining estetik ta‘sirchanligini ta‘minlashga

<sup>33</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент:Фан,2008.-Б.30-31.

<sup>34</sup> Лурия А. Р. Травматическая афазия. – М., 1947. С.85–86.

<sup>35</sup> Ҳазраткулов А. Диалогическая речь в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. - Самарканд, 1966.; Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида туликсиз гаплар : Филология фанлари номзоди... дисс.- Тошкент, 1968. - 58 б.; Шодмонов Э. Слова-предложения в современном узбекском языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. -Ташкент, 1970. -30 с.; Шомаксудов А.Сўзлашув стили.// Ўзбек тили стилистикаси масалалари.-Тошкент,, 1972. –Б. 37.; Халдарова С.М. Семантико-структурные особенности диалогической речи в современном узбекском языке:.. Автореф.. дисс ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1974.-С.5.; Лафасов Ў. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1996. -74 б.

<sup>36</sup> Саидхонов М. Диалогик нутқнинг коммуникатив таҳлили //Ўзбек тили ва адабиёти , 2004. - №2. –Б. 71.

<sup>37</sup> Ҳакимов М.Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: филол. фанлари док. ...дис. автореф. -Т.:2001. –Б.30.

xizmat qiladi. Dialogning badiiy asar tilining badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita ekanligini yozuvchi Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» asaridan olingan quyidagi parcha misolida ko'rib o'tamiz. Parchada dialogda nutqiy vaziyatda mavqei nisbatan past bo'lgan Anziratning voqea rivoji davomida rivojlanib boruvchi munosabati yaqqol ifodalangan. Asarda dialog boshlanishida Anziratning muloqotga kirishishdan maqsadi himoyaga asoslangan. Bunda noverbal harakatlar –o'g'lining boshini quchoqlashi, ovozinig qaltiroq, zaif va alamli ekanligi uning ruhiy holati tasvirini berishga xizmat qilgan:

*O'g'lini boshini quchoqlab olib, qaltiroq tovushda:*

*- Unday demang! - dedi u zaif va alamli tovushda. Unday deb bolani buzmag. Hali tirik ekanman, hech kimga urishga yo'l qo'ymayman, eshityapsizmi?! Yo'l qo'ymayman... Hech kimga kaltaklatib ham qo'ymayman... Men o'lganimdan keyin urasiz bularni...*

Dialogda ikkinchi ishtirokchi - Ne'mat uzunning xotini tomonidan noverbal harakatlarning amalga oshirilishi voqealar rivojining tezlashishi va dialogning keyingi bosqichiga yo'l ochadi:

*- Oho! - dedi Ne'mat uzunning xotini, butun qishloq eshitsin deganday qo'llarini beliga qo'yib, gavdasini likillatib, battar shang'illay boshladi.-Oho, hali men oppoqman ham dersiz, hali bolani ham sen tug'ding dersiz? Yo'q, nega ham g'arlik qilib, ham baland kelasan...*

Ma'lumki, nutq qaratilgan shaxsga nisbatan “Siz” olmoshining qo'llanishi tilimizda hurmat ifodasi sifatida qaraladi. Bu olmoshning dialogik nutqda birlik shaklga almashishi muloqotchilar o'rtasida munosabatlarning yomonlashuvini aks ettiradi:

*U birdan sensiray boshladi.*

*- Bolani men emas sen tuqqansan, buzuqlikni sen qilgansan, yana bolangni ham buzasan, birovlarni ur, deb o'rgatasan!.. O'ynash orttirib, qishloqni sharmanda qilganing yetmaganday bolangni ham bosmachilikka o'rgatasan, senga kim qo'yibdi gapirishni? Oldin etagingdagi dog'ni yuvib ol. Keyin gapirasan. Oldin bolalaringni tiyib yur, katta bo'lsa, bularniyam o'ynashlikka o'rgatasan...*

Muloqotning keyingi bosqichida Anziratning norozilik ifodalovchi xatti-harakati kuchayadi. Uning nutqida hurmat bildiruvchi ifodalar o'rnida betaraf birliklar qo'llaniladi.

*-Bas qiling !.. Telbalarday o'kirib o'rnidan turdi Anzirat. Unga oxirgi gap juda o'tib ketgan, u dag'-dag' titrar edi. Ko'zlaridan yosh quyilib oqar, lekin artishni hayoliga ham keltirmasdi.*

*-Bas qiling, hozir chopib tashlayman! U pechkaning oldida turgan boltaga tashlandi.*

*- Chopib tashlayman... jonimdan to'yib ketdim. Boltani ko'tarib oldinga yugurdi.*

*- Tinch qo'yasanmi, yo'qmi?! Nega meni uyimga bostirib kirib ayg'oqlik qilasan.. Nega bolalarimga kun bermaysizlar? Men senlarga nima gunoh qildim, nima ayb qildim...senlarga...arpalaringni xom o'rdimmi? Eringni o'ynash qildimmi?! Nega hammang menga osilasan?!*

*Uning vajohati qo'rqinchli edi. Ko'zlari quturganday qizarib ketgan, ro'moli tushib, oqish sochlari to'zib ketgandi. Lablari g'azabdan titrar, qo'llari qaltirar edi.*

- *Hammang meni gap qilasan, hammang alamingni mendan olasan. Nima, o'zlaring oppoqmi?! O'zlaring hech ayb qilmaganmisanlar?! Aybimni bilmaydi deb o'ylaysizlarmi?! Hammangni o'ldiraman...o'ldiraman!..* (85-bet)

Bundan tashqari matn bilan, jumladan dialogik nutq bilan bog'liq masalalarni zamonaviy tilshunoslik talablari asosida tadqiq etgan tilshunoslardan biri M.Hakimov o'zining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasida mavzu mohiyatini va u bilan bog'liq tomonlarni pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilishga intilgan. U jahon tilshunosligida erishgan yutuqlarga tayangan holda tilshunoslikda hozirga qadar munozarali hisoblangan nutqiy akt nazariyasiga e'tiborni qaratib, matnda ochiq (eksplitsit) va yashirin (implitsit) fikr ifodalash usullarining o'ziga xos xususiyatlari, fikr ifodalashda tagma'noning roli kabi masalalarga oydinlik kiritgan. M. Hakimovning mazkur tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishda yaratilgan ishlardan keng qamrovli ekanligi, mukammalligi bilan ajralib turadi, xarakter, aniq bir tip sifatida shakllanishiga yordam beradi».<sup>38</sup>

Shu o'rinda bir narsani qayd etish lozimki, tilshunoslikda dialogik nutqning o'ziga xos xususiyatlari, nutqning turli ko'rinishlarida qo'llanish imkoniyatlari, struktural qurilishi, gender jihatdan o'ziga xosligi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar kamchilikni tashkil qiladi. Dialogning badiiy matnlarda tutgan o'rni<sup>39</sup>, vazifalari<sup>40</sup> «asarlarda *dialog* ikki va undan ortiq kommunikantning o'zaro muloqoti, tortishuvi, bir-birini inkor etuvchi turli xil e'tiqodi va xarakterini tasvirlash vositasi»<sup>41</sup> sifatida qo'llanishi, subyektiv modallikni ifodalashning qulay vositasi<sup>42</sup> ekanligi ko'plab tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Bir qator tadqiqotlarda dialogik nutqning yuzaga kelishi shart-sharoitlari, nutqning boshqa ko'rinishlaridan farqli jihatlari, uning tarkibida qo'llanuvchi sintaktik birliklar va ularning funksional-semantik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Dialogik nutq ochiq tarzda ifodalangan turli nutqiy vaziyatlarni qamrab oladi va unda so'zlovchining ijtimoiy va psixologik roli yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnlarda personajlar ruhiy holati, atrofdagilarga munosabatini, voqealar rivojini ko'rsatishda dialogik nutq muhim pragmatik vosita sifatida ishtirok etadi. Dialogda so'zlovchi o'z fikrlarini ochiq bayon etishda xabar mazmunidagi gaplarga tayanadi. Uning gaplari xabar ifodalashdan tashqari baho mazmuniga ham ega bo'ladi. Dialogda verbal va noverbal vositalarning o'zaro uyg'unlikda bo'lishi badiiy asar tilining bo'yoqdorligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

<sup>38</sup> С чего начинается личность: сборник. -М., 1984. -С.99.

<sup>39</sup> Кўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Т.: Ёш гвардия, 1973. -191 б.

<sup>40</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1981. -

<sup>41</sup> Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: Филол.фанлари номзоди ... дисс. - Тошкент, 1993. –Б.13.

<sup>42</sup>Лафасов Ў. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1996. -174 б.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Саидхонов М. Диалогик нутқнинг коммуникатив таҳлили //Ўзбек тили ва адабиёти , 2004. - №2. –Б. 71.
2. Лафасов Ў. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1996. -174 б.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент:Фан,2008.-Б.30-31.
4. Лурия А. Р. Травматическая афазия. – М., 1947. С.85–86.
5. Ҳазраткулов А. Диалогическая речь в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. - Самарканд, 1966.; Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида туликсиз гаплар : Филология фанлари номзоди... дисс.- Тошкент, 1968. - 58 б
6. Ҳакимов М.Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: филол. фанлари док. ...дис. автореф. .-Т:,2001. –Б.30.
7. С чего начинается личность: сборник. -М., 1984. -С.99.
8. Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Т.: Ёш гвардия, 1973. -191 б.
9. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1981.
10. Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол.фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1993. –Б.13.

## PEDAGOGIK TERMINLARNI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA UCHRAYDIGAN ASOSIY QIYINCHILIKLAR

**Djabborov Dilrux,**

*Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Maqola ingliz tilidagi pedagogik terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklarni tizimli ravishda tahlil qiladi. Tahlil natijasida yettita muammo bloki ajratildi: (1) konseptual nomuvofiqlik va to‘liq ekvivalentning yo‘qligi (masalan, assessment, scaffolding, inclusive education), (2) polisemiya va sinonimiyaga bog‘liq chalkashliklar hamda “soxta do‘stlar”, (3) uslubiy-pragmatik uyg‘unlashtirish (ilmiy, normativ, didaktik registrlar orasida izchillik), (4) morfografik va fonetik moslashtirish (transliteratsiya/transkripsiya, defis, bosh harf, qisqartmalar), (5) so‘z yasash va kompozitsiya modellari (-lik, -chi, -kor; birikmalar), (6) standartlashtirish va variantlilik (o‘quv rejalari, darsliklar, axborot tizimlari bo‘yicha terminning barqaror formasi), (7) foydalanuvchi-kognitiv omillar (tushunarlilik, ixchamlik, qabul qilinuvchanlik).

**Kalit so‘zlar:** pedagogik terminologiya; ingliz–o‘zbek tarjima; konseptual ekvivalentlik; polisemiya; soxta do‘stlar; standartlashtirish; morfologik moslashuv; transliteratsiya; qisqartmalar; korpus tahlili; funksional adekvatlik; terminbank.

**Аннотация.** Статья системно анализирует ключевые трудности перевода педагогических терминов с английского на узбекский язык. Выделены семь блоков проблем: (1) концептуальная неэквивалентность и отсутствие полных соответствий (assessment, scaffolding, inclusive education), (2) полисемия, синонимия и «ложные друзья переводчика», (3) стилистико-прагматическое согласование (научный, нормативный, дидактический регистры), (4) морфографическая и фонетическая адаптация (транслитерация/транскрипция, дефис, прописные, аббревиатуры), (5) словообразовательные и композиционные модели (-lik, -chi и др.; словосочетания), (6) стандартизация и вариативность (устойчивость формы в учебных планах, учебниках, ИС), (7) когнитивные факторы пользователя (понятность, краткость, приемлемость).

**Ключевые слова:** педагогическая терминология; англо-узбекский перевод; концептуальная эквивалентность; полисемия; ложные друзья; стандартизация; морфологическая адаптация; транслитерация; аббревиатуры; корпусный анализ; функциональная адекватность; терминбанк.

**Annotation.** This article offers a systematic account of the main challenges in translating pedagogical terminology from English into Uzbek. Seven problem clusters are identified: (1) conceptual nonequivalence and lack of full matches (e.g., assessment, scaffolding, inclusive education), (2) polysemy, synonymy, and false friends, (3) stylistic-pragmatic alignment across scientific, regulatory, and didactic registers, (4) morphographic and phonetic adaptation (transliteration/transcription, hyphenation, capitalization, acronyms), (5) word-formation and compounding patterns (e.g., -lik, -chi; multi-word terms), (6) standardization and variant control across curricula, textbooks, and information systems, and (7) user-cognitive factors (clarity, brevity, acceptability).

**Keywords:** pedagogical terminology; English–Uzbek translation; conceptual equivalence; polysemy; false friends; standardization; morphological adaptation; transliteration; acronyms; corpus analysis; functional adequacy; termbank.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga yozma tarjima qilish – murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tarjimon nafaqat ikki tildagi so‘z va jummalarni moslashtiradi, balki ikki xil til tizimi va madaniyatini uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Tarjima jarayonida tarjimon keng til bilimiga, dunyoqarashga, boy tajribaga hamda madaniy bilimga ega bo‘lsa-da ham, ba‘zan grammatik farqlar, leksik noaniqliklar va madaniy nomuvofiqliklar tufayli jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Ushbu faslda ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida eng ko‘p uchraydigan muammolar ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Bular qatoriga lingvistik tafovutlar (grammatik, leksik, stilistik farqlar), tarjima nazariyalaridagi muammolar (ekvivalentlik va adekvatlik masalalari), madaniy tafovutlarni ifodalash, idiom va frazeologizmlarni tarjima qilish, ijtimoiy kontekst va uslubga mos so‘z tanlash, yozma nutqning uslubiy xususiyatlarini yetkazish, tarjimaning texnik jihatlari (strukturani saqlash, format, punktuatsiya) hamda amaliy misollar bilan tarjima tahlillari kiradi.

Ingliz va o‘zbek tillari lingvistik tizimi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Ingliz tili grammatik qurilishi va sintaksisi bo‘yicha analitik til bo‘lib, unda so‘zlar tartibi va yordamchi so‘zlar orqali ma‘no ifodalanadi; o‘zbek tili esa agglyutinatív xususiyatga ega bo‘lgan turkiy til bo‘lib, so‘z o‘zaklariga ko‘plab qo‘shimchalar qo‘shish orqali grammatik ma‘no ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi zamon va ravishdoshlik kategoriyalari asosan yordamchi fe‘llar va sintaktik tuzilma orqali berilsa, o‘zbek tilida fe‘l o‘zgartirish qo‘shimchalari orqali ifodalanadi. Ingliz tili SVO (egalik–fe‘l–to‘ldiruvchi) so‘z tartibini qo‘llaydi, o‘zbek tili esa SOV (egalik–to‘ldiruvchi–fe‘l) tartibiga mansub. Bu farqlar sabab, murakkab ingliz gaplarini o‘zbek tilida qayta tuzish, bo‘laklar tartibini o‘zgartirish talab etiladi – aks holda, tarjima matni tushunarsiz yoki noto‘g‘ri bo‘lib qolishi mumkin.

Grammatik tafovutlar tarjimada eng katta qiyinchiliklardan biridir. Ingliz tilida artikl, jins (grammatik gender) va ko‘plikni ifodalovchi ayrim kategoriyalar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday tizimlar yo‘q yoki boshqacha shakllangan. Masalan, ingliz tilidagi “the” artikli konkret ma‘no bersa, o‘zbek tilida unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos element yo‘q – tarjimon “the” bilan ifodalangan aniqlikni boshqa vositalar orqali (joydagi tartib, olmosh yoki izoh) yetkazishiga to‘g‘ri keladi. Xuddi shunday, inglizcha “he/she” kabi jinsga xos olmoshlar o‘zbek tilida umumiy “u” shaklida beriladi, bu ba‘zan noaniqlikka olib kelishi mumkin. Zamon va mayl tafovutlari ham murakkab: masalan, ingliz tilidagi davomiy zamonlarni ifodalash uchun o‘zbek tilida ko‘pincha qo‘shimcha so‘zlar yoki fe‘l konstruksiyalari qo‘llanadi (masalan, “is writing” – “yozmoqda” tarzida).

Leksik darajadagi farqlar ham muhim o‘rin tutadi. Har bir til lug‘aviy tarkibida o‘ziga xos ma‘no nozikliklari va so‘z birikmalari mavjud. Ba‘zi inglizcha tushunchalar o‘zbek tilida aynan bir so‘z bilan ifodalanasligi mumkin, tarjimon lug‘aviy bo‘shliqlar (lacuna) bilan ishlashga majbur bo‘ladi. Masalan, “privacy” atamasining o‘zbek tilida to‘liq ekvivalenti yo‘q – “shaxsiy hayot daxlsizligi” kabi birikma orqali ifodalashga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ingliz tilidagi sinonimlar va ko‘p ma‘noli so‘zlarni to‘g‘ri

ajratib, kontekstga mos tarjima qilish talab etiladi. Tarjimon soʻzlarning biror ijtimoiy yoki emosional konnotatsiyasini ham hisobga olishi lozim – masalan, “slim” va “skinny” soʻzlari ikkalasi ham “ozgʻin” maʼnosini bersa-da, birinchisi ijobiy maʼnoda (xushbichim) qoʻllanishi, ikkinchisi esa salbiy (haddan ziyod oriq, nosogʻlom) ohangga ega.

Bundan tashqari, inglizcha va oʻzbekcha uslub va iboralar tizimida sezilarli tafovutlar bor. Ingliz tilida gaplar odatda ixcham, aniq tuziladi; oʻzbek tilida esa imkon boricha sodda va ravon uslubga intilish kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida “I think that it is important” kabi subʼektiv mulohaza soʻz boshida ochiq aytilsa, oʻzbekcha ilmiy uslubda koʻpincha “muallif fikricha, bu muhim” kabi bir oz bilvosita shaklda ifodalanishi mumkin. Ingliz tilida rasmiy uslubda ham qisqa jumlar va aktiv voz kechish hollari uchrasa, oʻzbek tilida rasmiy-ilmiy nutqda koʻpincha murakkab gaplar, ravon bogʻlovchilar bilan boyitilgan jumlar ishlatiladi. Bu farqlar tarjimada matn uslubini muvofiqlashtirish zaruratini tugʻdiradi – tarjimon matn mazmunini oʻzgartirmagan holda, uni oʻzbek oʻquvchisi kutgan uslubiy meʼyorlarga moslashtirishi kerak.

Ingliz va oʻzbek tillari orasidagi grammatik, leksik va stilistik tafovutlar tarjimon uchun jiddiy sinovdir. Tarjimon soʻzma-soʻz tarjima qilmasdan, har ikkala tilning ruhini va grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, egiluvchan yondashishi talab etiladi. Bunday yondashuvsiz tarjimada tuzilishdagi xatolar (soʻz tartibining buzilishi), noaniq maʼnolar yoki uslubiy nomuvofiqliklar paydo boʻlishi mumkin, bu esa ilmiy matn sifatini pasaytiradi.

Tarjima nazariyasida ekvivalentlikning bir necha darajalari ajratiladi – lugʻaviy, frazeologik, matn sathidagi va boshqalar. Mukammal ekvivalentlikka erishish koʻpincha amalda qiyin yoki imkonsiz, chunki tillar oʻrtasida toʻliq muvofiqlik boʻlmaydi. Masalan, ingliz tilidagi biror hazil yoki sheʼriy iborani oʻzbek tilida aynan ekvivalent ifodalash mushkul – tarjimon mazmuniy ekvivalentlikni saqlagan holda, boshqa shakldagi ifodani topishi kerak boʻladi. Adekvatlik esa shu jarayonda muhim rol oʻynaydi: tarjimon original matndagi niyatni, uslubni va janr xususiyatlarini inobatga olib, mantiqan va stilistik jihatdan toʻgʻri tarjima qiladi. Baʼzan tarjima soʻzma-soʻz boʻlmasa-da, maqsadli auditoriya uchun adekvat boʻlishi kerak, yaʼni oʻqib tushunarli va taʼsirchan boʻlishi lozim

Tarjima nazariyotchilari, masalan, Y.Nida, P.Nyumark, V.Komissarov ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarini turlicha talqin qiladilar. Gʻarb nazariyasida Y.Nida formal ekvivalentlik (soʻzma-soʻzga yaqin tarjima, original shaklini imkon qadar saqlash) va dinamik ekvivalentlik (mazmun va taʼsirni muhimroq deb, erkinroq tarjima) farqlarini kiritgan. Rus va oʻzbek tarjimashunosligida esa adekvat tarjima tushunchasi keng qoʻllanib, asliyatga maksimal darajada yaqin va ayni paytda oʻquvchi uchun tushunarli tarjima maʼnosini anglatadi.

Ekvivalentlikka erishish yoʻlida bir qator muammolar yuzaga keladi. Avvalo, har bir soʻzning hamisha toʻgʻri va yakka ekvivalenti boʻlmaydi – tarjimon kontekstga qarab maʼno tanlashi kerak.

Ikkinchidan, frazeologik birliklar, iboralar va obrazli soʻzlar koʻpincha bevosita tarjima qilinsa maʼno yoʻqoladi (bu holat keyingi boʻlimlarda batafsil koʻrib chiqiladi). Shuningdek, matnning umumiy uslubi va ruhini saqlagan holda ekvivalent ifoda topish juda muhim: ilmiy matnda ortiqcha badiiylik yoki tazyiq (subʼyektiv ohang) yaramaydi, badiiy matnda esa aksincha, quruq ilmiy uslub jonlilikni yoʻqotadi. Bu nuqtai nazardan, tarjimon har bir segment uchun maqbul ekvivalent qidirar ekan, matnni butun holda adekvat saqlashga eʼtibor berishi zarur.

Oʻzbek tarjimashunosligida Q.Musayev, G.Salomov, I.Gʻafurov, N.Qambarov kabi olimlar ekvivalentlik nazariyasiga oid ishlar olib borgan. Xususan, Quadrat Musayev “Tarjima nazariyasi asoslari” asarida ekvivalentlik va adekvatlikning tarjimada asosiy mezon ekanini taʼkidlab, “adekvat tarjima – bu mazmun va ifoda shaklining maqsadga muvofiq birligi” degan fikrni ilgari suradi. Tarjimada, ayniqsa, badiiy tarjimada ekvivalentlik tamoyillariga rioya qilmaslik asarning ruhini yoʻqotishga olib kelishi, faqat soʻzma-soʻz ekvivalentlar ketidan quvish esa tarjimani gʻayritabiyy qilishi mumkin. Demak, tarjimon har doim ekvivalentlik va adekvatlik oʻrtasida muvozanatni topishi kerak – yaʼni, originalga xos jihatlarni imkon qadar yetkazgan holda, tarjima tilining meʼyoriy talablariga ham mos matn yaratishi darkor.

Ingliz va oʻzbek tillari faqat lingvistik emas, balki ularga asos boʻlgan madaniyat jihatidan ham katta tafovutlarga ega. Til madaniyat mahsuli boʻlgani uchun undagi koʻplab soʻz va iboralar muayyan xalqning tarixi, urf-odatlar, turmush tarzi bilan chambarchas bogʻliq. Bir tildagi madaniy realiyalar (realia)ni boshqa tilga tarjima qilish esa eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Tarjimada madaniy tafovutlar eʼtiborga olinmasa, matn maʼnosi notoʻgʻri talqin qilinishi yoki oʻquvchi uchun tushunarsiz boʻlib qolishi mumkin.

Madaniy tafovutlar turli koʻrinishda namoyon boʻladi. Masalan, kundalik turmush va urf-odatlar: ingliz tilida oddiy “tea” soʻzi nafaqat choy ichimligini, balki ayrim holatlarda ingliz madaniyatidagi tushlik va kechki ovqat oraligʻidagi yengil tamaddi (afternoon tea) marosimini anglatadi; oʻzbek tilida esa “choy” soʻzi doʻstlar davrasidagi suhbat va mehmondorchilik ramzi sifatida ham ishlatiladi. Tarjimon bu kabi soʻzlarni shunchaki lugʻaviy maʼnosi bilan tarjima qilsa, asosiy maʼno va madaniy yuk yoʻqolib qoladi. Shu bois bunday hollarda kontekstni tushuntiruvchi izoh yoki mos analog topilishi lozim. Yana bir misol: “Halloween” yoki “Bonfire Night” kabi ingliz madaniyatiga xos bayram nomlari oʻzbek tilida hech qanday maʼno uygʻotmaydi – tarjima vaqtida ularni asl nomi bilan qoldirib, kerak boʻlsa, qisqacha izoh berish maʼqul (masalan: “Halloween (Har ruh bayrami, har yili 31-oktabrda nishonlanadi)” tarzida). Xuddi shunday, oʻzbek madaniyatiga oid “kelin salom”, “mahsi”, “challari” kabi soʻzlarni ingliz tiliga tarjima qilish qiyin – odatda ular transliteratsiya qilinadi yoki tushuntiriladi.

Madaniy konnotatsiyaga ega soʻzlar tarjimasida ham ehtiyot boʻlish kerak. Masalan, “pig” (choʻchqa) soʻzi ingliz tilida asosan neytral maʼnoda hayvon nomini bildirsa, oʻzbek madaniyatida choʻchqa haqidagi tasavvurlar (islom taʼsiri tufayli) salbiy va jirkanch maʼno kasb etadi. Natijada, ingliz matnidagi “pig” soʻzini oʻzbekcha matnda

odatdagidek “cho‘chqa” deb tarjima qilish nojo‘ya hissiyot uyg‘otishi mumkin. Tarjimon bunday vaziyatda ekvivalent so‘z yoki neytralroq atama tanlashi mumkin (masalan, “hayvon” deb umumlashtirish) yoki kontekstga qarab boshqacha konstruktsiya orqali mazmuni beradi. Yana bir misol: ingliz tilida kimnidir “fox” (tulki) deb atash ayyorlikni bildirsa, o‘zbek tilida “tulki” qabilidagi metafora unchalik odatiy emas, lekin “miyig‘ida kuladi” kabi iboralar orqali mazmuni yetkazish mumkin.

Geografik va tarixiy realliyalar ham alohida e‘tibor talab qiladi. Ingliz tilida “the Tower of London”, “Westminster” kabi atamalar bor, ular muayyan joylarni anglatadi va shu bilan birga katta madaniy yuk ko‘taradi. Tarjimon o‘zbek tilida ularni nomini aynan olib, qo‘shimcha ma‘lumot berishi mumkin (masalan, “London qal‘asi (Tower of London)”). Aks holda, o‘quvchi uchun bu nom oddiy bir binomi bo‘lib qolishi, uning tarixiy qiymati tushunilmasligi mumkin.

Madaniy tafovutlar bo‘yicha qisqacha fikr shuki, tarjimada uzatish murakkab, ammo hal qilsa bo‘ladigan vazifa. Bunda tarjimon nafaqat tilshunos, balki bir qadar etnograf va madaniyatshunos bo‘lib ish tutishi talab etiladi. Madaniyatlararo muloqotni ta‘minlash uchun zarur hollarda moslashtirish (adaptatsiya) usullarini qo‘llaydi, ya‘ni begona madaniy unsurlarni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarliroq shaklga keltiradi. Ba‘zida esa “begonasiga ham begona” qoldirish (ya‘ni, xorijiy unurni tarjimada ham begona shaklda qoldirib, o‘quvchiga yangi madaniyatni tanishtirish) maqsadga muvofiq bo‘ladi – bu holatda izohlar va lug‘atlar yordamga keladi. Asosiy maqsad – matn mazmunini ham, ruhini ham imkon qadar to‘laqonli yetkazish, buning uchun esa madaniy komponentlarni hisobga olish nihoyatda muhim.

Idiomatik iboralar va frazeologizmlar – har qanday tilning eng boy va murakkab qatlamlaridan biri bo‘lib, ularni tarjima qilish tarjimondan alohida mahorat talab qiladi. Idiomas ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, mutlaqo boshqa ma‘no berib qo‘yishi yoki mazmunini yo‘qotishi mumkin. Buning sababi shuki, frazeologik birliklar tarkibidagi so‘zlar ko‘pincha ko‘chma ma‘no kasb etadi yoki ularning ma‘nosi tarixiy, madaniy omillar asosida shakllangan bo‘ladi. Shuning uchun har bir idiomni tarjima qilishda, avvalo, uning asl ma‘nosini, kelib chiqish kontekstini tushunib olish, so‘ngra o‘zbek tilida imkon qadar mazmunan muvofiq va stilistik jihatdan mos ifoda topish lozim.

Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklari orasidagi farq shundaki, ko‘p hollarda bir til idiomini ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, kulgili yoki mantiqsiz eshitiladi. Masalan, ingliz tilidagi “to kick the bucket” idiomasi so‘zma-so‘z “chelakni tepmoq” degani bo‘lsa-da, aslida “vafot etmoq” ma‘nosini anglatadi. Uni o‘zbek tiliga “chelakni tepdi” deb tarjima qilib bo‘lmaydi – o‘zbekchada bu ma‘no yo‘q. Buning o‘rniga, “olamdan o‘tmoq”, “dunyodan ko‘z yumdi” kabi mos ekvivalentlar qo‘llanadi. Bunday mos ekvivalent topish imkoni bo‘lmasa, tarjimon idiomani izohlovchi paraphrastik tarjima qilishi kerak bo‘ladi. Yuqoridagi misolda, “bevaqt olamdan o‘tib ketdi” kabi.

Ba‘zi hollarda inglizcha idiomaga o‘zbek tilida tayyor idiomatik muqobil topiladi. Masalan, “Birds of a feather flock together” degan maqol-idiom “Qushlar pati bilan,

odamlar qavmi bilan” tarzida tarjima qilinib, mazmun ham, shakl ham bir qadar yaqin ifodalanadi. Ammo ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri moslik yo‘q – tarjimon mazmunini boshqa yo‘l bilan bera oladi, lekin original idiomaning obrazliligi yoki ohangini yo‘qotishi mumkin. Tarjimashunos G‘.Salomov til qarindoshligi va adabiy an‘analarning muhimligini ta’kidlab, turli tizimli tillar o‘rtasida milliy rangga ega frazeologizmlarni tarjima qilishda alohida qiyinchiliklar tug‘ilishini qayd etadi. Ya’ni, o‘zbek va ingliz xalqlari uzoq tarixiy madaniy aloqaga ega bo‘lmagani bois, ularning ko‘plab obrazli iboralari bir-biriga begona.

Zamonaviy tarjimashunoslik va tilshunoslik bu muammolarni chuqur o‘rganib, yechimlar taklif qilib kelmoqda. Masalan, maxsus ikki tilli korpuslar, avtomat tarjima dasturlari tarjimonda ayrim sohalarda yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ammo shuni unutmamak kerakki, ijodiy yondashuv va madaniy tushuncha faqat inson tarjimonga xos fazilat bo‘lib, eng zo‘r texnologiyalar ham hali badiiy nozikliklarni to‘liq his eta olmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADADIVOTLAR RO‘YXATI**

1. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. — 3rd ed. — London: Routledge, 2018.
2. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. — London: Prentice Hall, 1988.
3. Catford, J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. — Oxford: Oxford University Press, 1965.
4. Vinay, J.-P.; Darbelnet, J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995.
5. House, J. *Translation Quality Assessment: Past and Present*. — London: Routledge, 2015.
6. Hatim, B.; Mason, I. *Discourse and the Translator*. — London: Longman, 1990.
7. Nord, C. *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. — Amsterdam; New York: Rodopi, 2005.
8. Sager, J. C. *A Practical Course in Terminology Processing*. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1990.

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “MA’NAVIYAT” TUSHUNCHASI LAKUNALARINI TO‘LDIRISH VA TARJIMA JARAYONIDA MAZMUNNI QAYTA YARATISH USULLARI

**O‘ralova Sabina,**

*Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Maqola ingliz va o‘zbek tillarida “ma’naviyat” tushunchasining tarjimasida yuzaga keladigan lakunalarni (mazmuniy bo‘shliqlarni) aniqlaydi va mazmuni qayta yaratish (re-creation) uchun janr-pragmatik yondashuvni taklif etadi. Tahlilda “ma’naviyat”ning semantik yadrosi va periferiya qatlamlari (axloqiy-ruhiy qadriyatlar, ijtimoiy-ma’naviy muhit, tarbiya, intellektual-estetik rivoj) ingliz tilidagi “spirituality”, “moral culture”, “ethical consciousness”, “moral-spiritual development” kabi qisman mos birliklar bilan kognitiv ramkalar va kollokatsion profil orqali qiyoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat; spirituality; lakuna; mazmuni qayta yaratish; tarjima strategiyalari; eksplisitatsiya; tavsifiy parafraza; gibrid yechim; pragmatik moslashuv; aksiologik mazmun; kognitiv ramka; kollokatsion profil.

**Аннотация.** Статья рассматривает лакуны при переводе понятия «ма’навиат» между узбекским и английским языками и предлагает жанрово-прагматический подход к воссозданию содержания. Ядро и периферия значения («нравственно-духовные ценности», социально-моральная среда, воспитание, интеллектуально-эстетическое развитие) сопоставляются с частичными соответствиями английского языка — spirituality, moral culture, ethical consciousness, moral-spiritual development — с опорой на когнитивные фреймы и коллокационные профили.

**Ключевые слова:** ма’навиат; духовность; лакуна; воссоздание содержания; стратегии перевода; экспликация; описательная парафраза; гибридная передача; прагматическая адаптация; аксиология; когнитивные фреймы; коллокационный профиль.

**Annotation.** This article addresses lacunae that arise when translating the Uzbek concept ma’naviyat into English and proposes a genre-pragmatic toolkit for content re-creation. We map the concept’s semantic core and periphery (moral-spiritual values, socio-moral milieu, education/upbringing, intellectual-aesthetic development) against only-partial English matches—spirituality, moral culture, ethical consciousness, moral-spiritual development—using frame-based modeling and collocational profiling.

**Keywords:** ma’naviyat; spirituality; lacuna; content re-creation; translation strategies; explicitation; descriptive paraphrase; hybrid rendering; pragmatic adaptation; axiological meaning; frame semantics; collocational profile.

Tarjima jarayonida lakuna tushunchasi muhim nazariy kategoriya bo‘lib, u bir tildagi ma’no yoki tushuncha boshqa tilda bevosita ekvivalent ifodaga ega bo‘lmagan holatlarni anglatadi. Boshqacha aytganda, lakuna – manba til madaniyatiga xos bo‘lgan

va maqsad tilida “bo‘shliq” sifatida namoyon bo‘ladigan birlikdir. Masalan, V.Gak lakunani “tilning lug‘aviy qatlamidagi bo‘shliq, zarur so‘zning yo‘qligi” deb ta’riflaydi.

Xuddi shuningdek, fransuz olimlari J.Vine va J.Darbelne bir tildagi so‘z uchun boshqa tilda mutlaq muqobil topilmaganda lakuna hodisasi yuzaga keladi, deb ta’kidlashgan. Demak, tarjimada lakuna – bu ekvivalentlikning yo‘qligi, ya’ni manba til mazmunini oddiy leksik vositalar bilan to‘la uzatilmaligidir. Sh.I.A. Sternin qayd etganidek, hatto tillar o‘rtasida umumiy tushunchalar bo‘lsa ham, har bir tilda boshqa tilda yo‘q bo‘shliq, nomlanmagan tushunchalar ko‘plab uchraydi.

Tarjimada madaniy tafovutlarni engib o‘tish uchun ikki qarama-qarshi strategiya qo‘llanishi mumkin: domestikatsiya (o‘zlashtirish) va xorijiyashtirish. Lavrens Venuti tomonidan ommalashtirilgan bu tushunchalar tarjimada matnni qanchalik darajada maqsad til madaniyatiga moslashtirish yoki asli begonaligini saqlash bilan bog‘liq.

Har qanday konsept yoki matn tarjima qilinishi mumkinmi yoki yo‘qmi degan masala – tarjimashunoslikdagi translatability muammosidir. Roman Yakobson ta’kidlaganidek, til tizimlari semantik jihatdan farqlangani bois, ayniqsa she’riy va madaniy yodgorliklarni tarjima qilishda “tarjima imkonsizligi” haqida so‘z yuritiladi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ma’no to‘liq yoxud qisman bo‘lsa-da, boshqa tilga ko‘chirilib uzatilishi mumkin – bunda bevosita ekvivalent topilmasa, tavsiflovchi iboralar, izohlar yoki boshqa kompensator usullar yordamga keladi. Tarjimada ekvivalentlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin: Nida nazariyasiga ko‘ra formal ekvivalentlik (so‘zma-so‘z yaqinlik) va dinamik ekvivalentlik (funksional-ta’sir uyg‘unligi) farqlanadi. Lakuna holatlarida aynan dinamik, ya’ni funksional ekvivalentlikka erishish ustun qo‘yiladi, chunki maqsad – mazmun va ta’sirni qayta yaratishdir, so‘zlarning shakliy o‘xshashligini emas. Ba’zi hollarda “tarjima sathi nolinchilik” kuzatiladi, ya’ni manba til birligi maqsad tilda hech qanday tayyor nomga ega emas. Bunday vaziyatlar tarjimomni ijodkorlikka undaydi va ko‘pincha qo‘shimcha matn elementlari kiritish (ekspplitsitatsiya) yoki izoh berish kabilar orqali ma’no tiklanadi. Ayni paytda, ayrim lug‘aviy birliklar “tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar” sifatida ham tasniflanadi. Masalan, muayyan milliy atamalar, madaniy realiyalar yoki diniy tushunchalar. Tarjimon vazifasi – shunday hollarda ham taslim bo‘lmay, adevat ifoda topish yoki yaratuvchan yechim orqali o‘quvchiga asl mazmuni yetkazishdir.

Ingliz tilidagi ruhiy-ma’naviy mazmunga boy badiiy matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklar til va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlardan, diniy hamda falsafiy konseptual ziddiyatlardan hamda maqsad auditoriyaning tayyorgarligidan kelib chiqadi.

Ingliz tilida “spirit”, “soul”, “ghost”, “spiritual”, “sacred” kabi ko‘plab atamalar mavjud bo‘lib, bular o‘zbek tilida bir nechta so‘z va birikmalar orqali ifodalanadi: “ruh”, “jon”, “arvoh”, “ma’naviy”, “muqaddas”, “ruhiy” va hokazo. Masalan, “spirit” so‘zi kontekstga qarab ruh, kayfiyat, jo‘shqinlik yoki hatto alkogolli ichimlik (“spirits”) ma’nolarini berishi mumkin. O‘zbek tarjimoni mazmuni to‘g‘ri ajratib, mos muqobilni tanlashi lozim; bu esa ba’zan qiyinchilik tug‘diradi. “Soul” va “ruh” tushunchalarini olaylik: ingliz tilida “soul” ko‘proq jon, insonning o‘lmas qismini bildirsa, o‘zbek tilida “ruh” diniy-falsafiy ma’noda shunga yaqin. Biroq “ruhiy” so‘zi o‘zbekchada psixologik

holatni ham anglatadi (masalan, ruhiy kasallik – mental illness). Tarjimada “spiritual experience” iborasini “ruhiy tajriba” deb bersak, u “psixologik tajriba” deb tushunib qolinishi mumkin. Shu sabab, termin tanlash – nozik masala. Zaruratga ko‘ra, tarjimon “ma’naviy tajriba” yoki “ruhiy-ma’naviy kechinma” kabi qo‘shimchali iboralar yordamida aniqlik kiritadi.

Ruhiy mazmundagi matnlar ko‘pincha diniy yoki mafkuraviy kontekstga ega bo‘ladi. Ingliz tilida yozilgan asarlar asosan xristian sivilizatsiyasi backgroundiga tayanadi: Injildan iqtiboslar, nasroniy an‘analari, ibodatxona hayoti va hokazo. O‘zbek o‘quvchilari esa islomiy madaniyat vakillari bo‘lib, ba’zi xristian atamalarini tushunmaydi yoki boshqacha talqin qilishi mumkin. Masalan, ingliz adabiyotida ishlatiladigan “prodigal son” (Injildagi «Yo‘qotilgan o‘g‘il» masalidan) iborasi behuda sarflaguvchi, yo‘ldan ozgan farzand ma’nosini ifodalaydi; o‘zbek kitobxonlari bu iborani Injil kontekstini bilmasa oddiy ma’noda qabul qilishi hech gap emas. Tarjimon shu kabi alluziyalarni payqab, qo‘shimcha izoh kiritishi yoki ekvivalentini topishi kerak (masalan, o‘zbekchada “adashgan qo‘y” iborasi mavjud, lekin u boshqa diniy kontekstda). Yana bir misol: “Good Samaritan” – Xushxabar (Yangi Ahd)dan olingan ibora bo‘lib, begona insonga yaxshilik qiluvchi odamni anglatadi; o‘zbek madaniyatida “yaxshi samariyalik” tushunchasi yo‘q, tarjimada buni “mehrbon notanish kishi” deb tushuntirish talab etiladi. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, madaniy lakunalar tarjimon oldida jiddiy to‘siq bo‘lib, ularni bartaraf etish madaniyatlararo bilimni talab qiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “ma’naviyat” so‘zi o‘zbek tilida keng va milliy ohangga ega. Mustaqillik davrida “ma’naviyat” atamasi keng targ‘ib etilib, jamiyatda axloqiy tarbiya, milliy g‘urur va ma’rifat bilan bog‘landi. Inglizcha “spirituality” esa ko‘proq shaxsning ichki ruhiy olamini, jamiyatdan ko‘ra individuallikni ta’kidlaydi. Tarjimonda bu farqni hisobga olmaslik noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz matnida “spirituality in the workplace” mavzusi – ya’ni “ish joyida ma’naviylik” deganda, G‘arbda bu xodimlarning ma’noli hayotga intilishi, ishga ham bir tur ruhiy qoniqish manbai sifatida qarashi tushuniladi. Agar buni o‘zbekchaga “ish joyida ma’naviyat” deb aynan tarjima qilsak, o‘quvchi buni korxonada diniy targ‘ibot yoki axloqiy qoidalar joriy etilishi deb tushunishi mumkin. Balki bunday holatda “ish joyida ma’naviy ruhiyat” yoki “ishga ma’no berish” kabi yumshoqroq, tushuntiruvchi ifodalar maqsadga muvofiqdir. Bu misol konnotativ lakunani ko‘rsatadi – so‘zning turli madaniy yuklamasi tarjimada farqlanadi.

Ruhiy mazmunga ega asarlar ko‘pincha baland uslubda, obrazli, timsollarga boy tilda yoziladi. Masalan, Hermann Hesse’ning “Siddhartha” (nemis yozuvchisi asari, lekin ingliz tilida mashhur) – ruhiy kamolot haqidagi qissa; undagi nasr juda sokin, falsafiy ohangda. Buni o‘zbekchaga o‘tkazishda ham xuddi shunday ohangni saqlash oson emas: tarjimon bir vaqtning o‘zida soddalik va mantiqiy teranlikni ifodalovchi til topishi kerak bo‘ladi. Yoki she’riy parchalar masalasi: agar asarda ruhiy tajriba she’riy til bilan tasvirlangan bo‘lsa, buni ma’nosini yo‘qotmagan holda o‘zbek tiliga ag‘darish nihoyatda murakkab. Poetik tarjima muammolari umumiy ma’lum bo‘lsa-da, ayniqsa ruhiy she’riyatda (masalan, ingliz tilidagi diniy madhiya yoki ibodat she’rlari) bu qiyinchilik ikki hissa ortadi. Tarjimon ko‘pincha adekvat proza tarjima berib, izohlar bilan asl ohang va mazmuni tushuntirishga majbur bo‘ladi.

Tarjima kim uchun mo‘ljallangani ham muhim ahamiyatga ega. Agar ingliz tilidan o‘zbek tiliga ma’naviy-falsafiy asar tarjima qilinayotgan bo‘lsa, uning o‘quvchilari umumiy madaniyat darajasi, turli diniy va madaniy tushunchalardan xabardorlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, akademik kitobxon Injil yoki Toradagi ko‘pchilik syujetlarni biladi, rus va jahon adabiyoti orqali “original gunoh” (original sin) kabi iboralarga duch kelgan. Yosh kitobxon yoki maxsus tayyorgarligi yo‘q o‘quvchi esa bu kabi atamalardan bexabar bo‘lishi mumkin. “Original sin” atamasini tarjima qilish uchun oddiy o‘quvchi tushunadigan shakl topish lozim: “tug‘ma gunoh” deb tarjima qilsak ham, islom aqidasi bunday tushuncha yo‘qligi uchun tushunarsiz qolishi mumkin. Ehtimol, “nasroniy talqinidagi ilk gunoh (Odam Ato bilan Havvo qilgan gunoh)” kabi izoh talab qilinadi. Bu misollar ko‘rsatadiki, tarjimon mo‘ljallangan auditoriya tasavvuriga ega bo‘lmog‘i va shunga yarasha tarjima uslubini tanlamog‘i darkor.

Yuqorida keltirilgan muammolar “spirituality” mazmunli matnlarni tarjima qilish nechog‘li mashaqqatli ekanini ko‘rsatadi. Biroq, ayni shu muammolarni hal etish jarayonida tarjimonlar yangi yondashuv va usullarni ishlab chiqmoqdalar – bu esa tarjima nazariyasini boyitib, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlaydi.

Tarjimonlar lakuna va madaniy bo‘shliqlarni yengib o‘tish, yo‘qolgan ma’no qatlamlarini tiklash uchun turli strategiya va usullardan foydalanadilar. Quyida eng muhim va amaliyotda keng qo‘llaniladigan usullar bayon etiladi:

Ekspplitsitatsiya (ochiq ifodalash): Tarjimaning bu usulida asl matnda yashirin bo‘lgan ma’no ochib beriladi, ya’ni tushunarsiz so‘z yoki ibora kengroq, tushuntiruvchi tarzda tarjima qilinadi. Lakunani to‘ldirishning eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘li shu: qo‘shimcha so‘z yoki ibora qo‘shib bo‘lsa ham, ma’no tushunarli qilinadi. Masalan, ingliz tilidagi “Pilgrim’s Progress” asaridagi “the Slough of Despond” degan alegorik nomni o‘zbekchaga “Umidsizlik botqog‘i” deb tarjima qilish – ekspplitsitatsiyaning yorqin namunasi (so‘zma-so‘z ma’nosi beriladi). Xuddi shuningdek, “karma” tushunchasini “karma (qilmish-qidirmish qonuni)” deb ochiqlash, yoki “confession” atamasini “katoliklarda gunoh izhor etish marosimi – konfessiya” kabi tarjima qilish ham shu jumlagacha kiradi. Ekspplitsitatsiya matn ichida ochiq izoh berishdir, o‘quvchi tushunishi uchun nimani nazarda tutayotgani qo‘shimcha so‘zlar bilan ifodalanadi.

Annotatsiya va izoh: Bu usul ham ma’no ochiqlashga qaratilgan, biroq farqi shuki, izoh matnning asosiy tanasidan ajratilgan holda beriladi. Bu ilmiy izohlar, lug‘aviy izohlar, yoki sahifa ostidagi eslatma (footnote) ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, tarjima qilinayotgan romanda “Ash Wednesday” (Xristianlarda Katta ro‘za boshlanish kuni) tilga olinsa, tarjimada shu atamani o‘zicha qoldirib, sahifaning ostida “Ash Wednesday – xristian an’anasida Katta ro‘zaning birinchi chorshanbasi, peshonaga kul surtish marosimi bilan o‘tadi” qabilida eslatma berish mumkin. Annotatsiya o‘quvchiga notanish madaniy yoki ruhiy tushunchani matndan chalg‘imasdan, alohida tushuntirish imkonini beradi. Badiiy tarjimada izohlardan me’yorida foydalanish lozim: ortiqcha izoh san’atkorlikka putur yetkazishi mumkin, ammo murakkab ma’naviy realiyalarni umuman izohsiz qoldirish o‘quvchi uchun qiyinlik tug‘diradi. Shunday muvozanatni topish tarjimon mahoratiga bog‘liq.

Kontekstual moslash (adaptatsiya): Bu mahalliyashtirish strategiyasining bir ko‘rinishi bo‘lib, unda tarjimon manba madaniy hodisasiga maqsad til madaniyatidan

funksional ekvivalent qidiradi yoki uni kengroq tushunchaga almashtiradi. Masalan, ingliz tilidagi matnda ruhiy marosim sifatida “Mass” (katoliklar ibodati) zikr etilsa, tarjimon buni “xizmat” yoki “ibodat” deb umumlashtirishi mumkin, yoki maqsad auditoriya xristianlikdan yiroq bo‘lsa, “yakshanba xizmati (nasroniylarning ommaviy ibodati)” kabi ham qo‘shimcha tushuntirish bilan berishi mumkin. Yana bir misol: “rosary” so‘zi katoliklarning duoyi tasbehini bildiradi; tarjimon o‘zbekchada “tasbeh” so‘zini qo‘llashi mumkin, chunki u ham marjon shaklidagi duo vositasi (bu – adaptatsiya, ya’ni mahalliy analog orqali ifodalash). Albatta, tasbeh – islomiy tushuncha, rosary – xristiancha; to‘liq moslik yo‘q, lekin ikkalasi ham ibodat paytidagi qo‘lga olinadigan tizimli duo vositasi. Agar maqsad – o‘quvchiga o‘xshash funksiyani tushuntirish bo‘lsa, bunday moslashga yo‘l qo‘yiladi. Adaptatsiya o‘quvchining madaniy tajribasiga yaqinlashtirishdir; bunda ba’zan manba madaniy unsuri qurbon qilinadi, lekin umumiy mazmun saqlanadi.

Funksional ekvivalentlik: Bu, aslida, adaptatsiyaning ma’lum bir shakli bo‘lib, tarjimon manba til birligiga maqsad tilida funksional jihatdan muqobil bo‘lgan birlikni izlaydi. Ekvivalentlik darajasi semantik jihatdan emas, balki funksional-ta’siriy jihatdan o‘lchanadi. Masalan, ingliz tilida kimnidir madh etish uchun ishlatiladigan “You are an angel” iborasini o‘zbek tilida “Sen bir farishtasan” deb tarjima qilinsa, bu funksional ekvivalent bo‘ladi – har ikki ibora maqtov va minnatdorlik ifodalaydi, garchi madaniy-konnotativ farqlari bo‘lsa ham (xristian tasavvuridagi farishta va islom tasavvuridagi farishta tushunchalari biroz farq qiladi, lekin odamni farishtagagina qiyoslash g‘oyasi umumiy). Ruhiiy-ma’naviy matnlarda funksional ekvivalentlik ko‘p qo‘l keladi. Masalan, ingliz matnida biror ruhoniya xitoba “Your Grace” deyiladi (bu cherkov mansabdoriga hurmatli murojaat), tarjimon uni “Hazrat” deb berishi mumkin – bu aynan “marhamatli zot” degani emas, lekin o‘zbek kitobxonini diniy arboblarga “Hazrat” deb murojaat qilish odatini biladi. Shunday qilib, funksional ekvivalent topish orqali tarjimon begona tushunchaga yaqinroq milliy ko‘rinish beradi, natijada o‘quvchida kutilgan ta’sir uyg‘otiladi.

Transliteratsiya va o‘z holicha qoldirish: Ba’zan eng maqbul yo‘l – manba til atamasini asl shaklida qoldirib, uning tarjimasini bermaslik, faqat izoh bilan cheklanishdir. Bu xorijiy lashtirishning keskin shakli. Agar biror tushuncha mutlaqo noyob va tarjima qilinsa, mazmuni juda ko‘p yo‘qoladigan bo‘lsa, tarjimon transliteratsiya qiladi, ya’ni so‘zni o‘zbekcha imloga moslashtirib yozadi. Masalan, “nirvana”, “karma”, “chakra” kabi atamalar ko‘pincha shunday qilinadi – “nirvana”, “karma”, “chakra” tarzida. Keyin, zarur bo‘lsa, izohda yoki matn davomida mazmuni tushuntiriladi. Badiiy asarda ham, agar muallif biror tushunchani ataylab begona qolishiga ahamiyat bergan bo‘lsa, tarjimon uni begona qoldirishi mumkin. Misol uchun, E.Gilbertdan olingan “Eat Pray Love” asarida hind madaniyatiga oid “guru”, “ashram” kabi so‘zlar ko‘p uchraydi – tarjimada ularni “guru”, “ashram” deb qoldirish va ilk uchrashuvda izoh berish ma’qul. Bu usul bilan tarjimon o‘quvchini asl madaniyat bilan to‘qnash keltiradi, bunda begonalik hissi atay qoldiriladi. Albatta, har bir matnda bunday usul hamma joyda qo‘llanavermaydi – ba’zan oddiy o‘quvchi uchun bu ortiqcha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu bois, transliteratsiya qilish qarori hamisha matnning umumiy uslubi va maqsad auditoriyaning imkoniyatlari bilan muvofiqlashtiriladi.

Kompensatsiya (ma’noni boshqa joyda tiklash): Ayrim hollarda tarjimon ma’lum bir bo’shliqni aynan o’sha joyda to’ldira olmasa, matnning boshqa qismida kompensatsiya qiladi. Masalan, she’riy tarjimada muayyan metaforani saqlab bo’lmasa, keyingi satrlarda unga muqobil yangi metafora yaratish mumkin. Ruhiiy matnlarda ham shunday: agar bir diniy atama oddiy so’z bilan almashtirilgan bo’lsa (begona terminologiyani qisqartirish maqsadida), tarjimon keyinroq biror dialog yoki tavsifda asl matndagi ruhiy rangni boshqa detal orqali berib qo’yishi mumkin. Bu usul asosan umumiy muvozanatni saqlash uchun qo’llanadi – bir joyda yo’qolgan ma’no boshqa joyda “qoplanadi”.

O’zgarishsiz qoldirish va kontekstga tayanish: Ba’zan tarjimon ongli ravishda hech narsa qo’shmaydi ham, almashtirmaydi ham – balki o’quvchi kontekst orqali tushunib oladi deb ishonadi. Bu, ayniqsa, ko’p takrorlanadigan tushuncha bo’lsa va asar davomida uning mazmuni asta-sekin ochilib boradigan bo’lsa, qo’llanadi. Masalan, Paulo Koeloning “Alkimyogar”ida “Personal Legend” degan kalit tushuncha bor (qahramonning orzu-iste’dod yo’li, taqdir yo’li degan ma’noda). O’zbekcha tarjimada tarjimon uni “Shaxsiy Afsona” deb so’zma-so’z qoldirishi mumkin – avvaliga o’quvchi buni to’liq tushunmasligi tabiiy, lekin asar rivojida bu Personal Legend nima ekani izohlanadi, ko’plab takror va voqealar orqali ma’no oydinlashadi. Asar oxiriga kelib, o’quvchi bu tushunchani anglashi aniq bo’ladi. Demak, ba’zan lakunani to’ldirish uchun maxsus chora shart emas – asarning o’zi bir maktab bo’lib, o’quvchi tarjima davomida yangi tushunchani o’rganadi. Bu usul faqat shu shart bilan o’zini oqlaydiki, tarjimon matnni shunday silliq va ravon etkazadiki, o’quvchi begona so’z yoki ibora tufayli asarni tark etmaydi, balki mantiqan anglab olishga harakat qiladi.

Yuqoridagi strategiyalar bir-birini inkor etmasdan, aksincha, ko’pincha birgalikda qo’llanadi. Tarjimon konkret lakuna holatida ulardan birini yoki bir nechtasini uyg’unlashtirib, ijodiy yechim topishi mumkin. Masalan, domestikatsiya va xorijiyashtirish qarama-qarshi yondashuvlar bo’lsa-da, tarjimon matnning muayyan qismlarida birini, boshqa qismlarida ikkinchisini tanlashi mumkin – hammasi asl asar ruhi va maqsadli o’quvchi manfaatidan kelib chiqadi. Asosiysi, bu strategiyalarning qo’llanishi natijasida lakuna to’ldirilib, manba matnning semantik va pragmatik qimmati maqsad til o’quvchisiga yetkaziladi.

Nazariy mulohazalarni yanada yoritish maqsadida, ingliz tilidagi ma’naviyat bilan bog’liq mazmunni o’zbek tiliga o’girish bo’yicha bir necha amaliy misollarni ko’rib chiqamiz. Quyidagi misollarda lakunani to’ldirish strategiyalari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

“Dunyoning ruhi” – begona tushunchaning so’zma-so’z tarjimasi. Dunyo bo’ylab mashhur bo’lgan Paulo Coelho qalamiga mansub “The Alchemist” (“Alkimyogar”) romanida Ruhiiy Makon va Koinot ruhi kabi falsafiy tushunchalar talaygina. Asarda keltirilgan markaziy konseptlardan biri – “Soul of the World”, ya’ni “Dunyoning ruhi”. Ushbu ibora bilan muallif butun olamning yagona ruhiy-mantiqiy birligi g’oyasini ifoda etadi. Romaning o’zbek tilidagi tarjimasida tarjimon bu atamani “Dunyoning ruhi” deb so’zma-so’z tarjima qilgan. Bir qarashda, bu aynan lakunani to’ldirmasdan, begona iborani qoldirishga o’xshaydi – chunki “Dunyoning ruhi” iborasi o’zbek kitobxonini uchun odatiy tushuncha emas. Biroq asar davomida Alkimyogar qahramonga “Dunyoning ruhi”

mohiyatini tushuntiradi, ya'ni bu atama kontekstual izoh orqali kitobxon ongida asta-sekin shakllanadi. Tarjimon esa aynan so'zma-so'z tarjima qilib, qo'shimcha izoh kiritmagan. Bu yerda muallifning g'oyasi o'quvchiga yangilik sifatida, falsafiy kashfiyot sifatida taqdim etilishi muhim edi. Tarjimon agar "Dunyoning ruhi" o'rniga, masalan, "Koinot ruhi (hamma narsa yaxlit bir ruh)" kabi tushuntirma berganida, badiiy niyatga putur yetishi mumkin edi. Shu bois, u xorijiy lashtirish yo'lini tanlagan va o'quvchini Coelho o'yab topgan tamoyil bilan yuzmayuz qoldirgan. Natijada, o'quvchi bir vaqtning o'zida yangi tushunchani o'rganadi va asar falsafiy jozibasi saqlanadi. Bu misolda lakuna formal ravishda to'ldirilmaganday tuyulsa-da, kontekst va takror izohlar orqali ma'no tiklangan: tarjimon muallifga sodiq qolgan holda, ma'naviy konseptni o'z holicha qabul qildirishga erishgan.

"Faqat yurak bilangina ko'ra olasiz..." – ma'naviy g'oyaning adekvat ifodasi. Jahon adabiyotining yana bir durdonasi – Antoine de Saint-Exupéryning "The Little Prince" ("Kichkina shahzoda") qissasi – o'zining ma'naviy-falsafiy qatlamlari bilan mashhur. Asardagi eng nodir iqtiboslardan biri, Fox (Tulki) aytgan pand-nasihat: "One sees clearly only with the heart. What is essential is invisible to the eye." Bu jumla insonning faqat qalb ko'zi bilan Asl Haqiqatni ko'ra olishi, eng muhim narsalar ko'zga ko'rinmasligi haqida chuqur falsafiy xulosa beradi. Ushbu ibora o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: "Faqat yurak bilangina to'g'ri ko'rish mumkin; eng muhim narsa ko'zga ko'rinmaydi". Tarjimaning bu varianti asardagi ma'no va ohangni juda nozik tarzda aks ettira olgan. E'tibor qiling: "one sees clearly" iborasi "to'g'ri ko'rish mumkin" deb, "what is essential" esa "eng muhim narsa" deb juda tabiiy o'girilgan. Bu yerda na murakkab realiya va na madaniy lakuna yo'qdek – chunki qalb (yurak) va ko'z obrazlari Sharq va G'arb madaniyatida ham mavjud, tushunarli. Tarjimon aslida to'g'ri ekvivalentlarni topish orqali begona madaniy konteksni o'zbek o'quvchisi uchun qiyinchiliksiz qabul qiladigan shaklga keltirgan. "Yurak bilan ko'rish" iborasi Sharqda ham, xususan bizning o'zbek tasavvurimizda ham bor – xalqona "ko'ngil ko'zi bilan ko'rmoq" degan iborani eslash mumkin. Exupéry mazkur iborani universallikka da'vo bilan yozgan, tarjimon ham uni domestikatsiya yo'li bilan milliy ifoda ranglariga moslashtirgan. Natijada asarning chuqur ma'nosi to'liq saqlangan, jumlaning badiiy og'irligi ham o'zbek tilida hech kamaymagan. Bu misol muvaffaqiyatli tarjima namunasi sifatida ko'rsatadiki, ba'zan turli madaniyatlarda ma'naviy konseptlar kesishadi, ular uchun tilimizda allaqachon ekvivalent obraz va iboralar topiladi – tarjimon vazifasi shunchaki o'sha mos ifodani aniqlab, o'rinli qo'llashdir.

Ma'naviyatga oid tushunchalarni tarjima qilish tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarjimon nafaqat ikki tilni, balki ikki madaniyatni va dunyoqarashni ham chuqur bilishi lozim. Tarjimon tayyorgarligida lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda madaniy kompetensiyaga alohida urg'u berilishi talab etiladi. Xususan, diniy bilimlar, turli xalqlarning falsafiy qarashlari tarixi, an'anaviy ma'naviy qadriyatlari haqida xabardorlik tarjimon uchun ayni muhim jihatlardir. Misol tariqasida, ingliz tilidan o'zbek tiliga Injil syujetiga ishora qiluvchi bir iborani tarjima qilish kerak bo'lsa, diniy bilimga ega tarjimon buni darhol payqaydi va to'g'ri yechim topadi; aks holda, lakuna payqalmay qolib, tarjimada mazmun tushunarsiz yoki noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin. Shu bois, filologik tarjimonlik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun diniy va madaniy semantikani

tushunishga yordam beruvchi maxsus kurslar (masalan, Dinshunoslik asoslari, Madaniyatlararo muloqot, Linguokulturologiya) kiritish foydali bo'ladi.

Tarjimonni tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar – aynan mana shunday lakunalar bilan ishlash bo'yicha mashqlar – katta samara beradi. Masalan, talabalarga tarjima qilish uchun madaniy realiyalarga boy matnlar berilib, ularni tahlil qilish topshirig'i berilishi mumkin. Unda har bir talaba lakunani topib, o'z tarjima variantini taklif qiladi, guruh bo'lib muhokama qiladi. Bunday mashqlar orqali bo'lajak tarjimonlar turli strategiyalarni qo'lida sinab ko'radi, natijada kelajakda matn bilan ishlaganda tez va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Ilmiy adabiyotda qayd etilishicha, lakunalar va lakunarlik hodisasini chuqur o'rganish va taqqoslash lingvistik tadqiqotlar uchun ham, tarjimon kadrlar malakasini oshirish uchun ham katta imkoniyatlar ochadi. Darhaqiqat, har bir hal etilgan lakuna – bu tarjimonning yangi bilimidir, ikki til leksik-semantik tizimini bog'laydigan navbatdagi ko'prikdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Верецагин Е. М.; Костомаров В. Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Русский язык, 1990.
2. Попова З. Д.; Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. — Москва: АСТ; Восток–Запад, 2007.
3. Телия Т. М. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
4. Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. — Москва: Гнозис, 2002.
5. Карасик В. И. Языковой круг: Личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002.
6. Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т. 2: Интегральное описание языка и системная лексикография. — Москва: Школа «Языки русской культуры», 1995.
7. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. — New York; Oxford: Oxford University Press, 1997.
8. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. — New York; Oxford: Oxford University Press, 1992.

## O‘ZBEK TILIDAGI MA’NAVIYAT VA INGLIZ TILIDAGI SPIRITUALITY UMUMIY MA’NOLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

**Nosirova Iroda,**

*Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti  
Lingvistika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi ma’naviyat va ingliz tilidagi spirituality tushunchalari asosidagi frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki tilda insonning ruhiy dunyosi, axloqiy qadriyatlari va ruhiy poklanishiga oid iboralar va ularning ma’naviy-mazmuniy jihatlari o‘rganiladi. Maqola madaniyatlararo tilshunoslik va tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan qimmatli tahlilni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, spirituality, frazeologik birlik, qiyosiy tahlil, madaniyatlararo tilshunoslik.

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительный анализ фразеологических единиц, основанных на понятиях “ма’naviyat” в узбекском языке и “spirituality” в английском языке. Изучаются выражения, отражающие духовный мир человека, моральные ценности и стремление к духовному очищению в обоих языках, а также их семантические и культурные особенности. Исследование направлено на выявление сходств и различий в содержании и способах выражения фразеологизмов с точки зрения межкультурной лингвистики и теории перевода. Статья имеет как теоретическую, так и практическую значимость в освещении взаимосвязи языка и культуры.

**Ключевые слова:** ма’naviyat, spirituality, фразеологическая единица, сравнительный анализ, межкультурная лингвистика, теория перевода

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of phraseological units based on the concepts of ma’naviyat in Uzbek and spirituality in English. Expressions related to the human spiritual world, moral values, and spiritual purification are studied in both languages, focusing on their semantic and contextual meanings. The article offers a valuable analysis from the perspective of intercultural linguistics and translation theory.

**Keywords:** ma’naviyat, spirituality, phraseological unit, comparative analysis, intercultural linguistics

**Kirish (Introduction).** Har bir xalqning ma’naviy xazinasi hisoblanadigan frazeologiya sohasi xalqning tarixini, urf-odatlarini, madaniyatini, an’analarini, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi ko‘zgusi hisoblanadi.

“Olam lisoniy manzarasining frazeologik birliklar vositasida in’ikos etuvchi bir qismi. Olamning frazeologik manzarasi xalqning ruhiyati, milliy mentaliteti, uning olamni idrok qilishiga doir egallagan ijtimoiy-madaniy tajribasini emotsional-ekspressiv tarzda aniq va yorqin aks ettirib, nisbatan turg‘un, shuningdek, muayyan xalqning o‘zigagina xos bo‘lgan, maxsus manzara hisoblanadi” [1;65-b.]

Bugungi kunga kelib, dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularning shakllanish omillarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Muayyan xalqning dunyoqarashi, urf-odat va an‘analarini o‘zida aks ettiruvchi ma‘naviyatga oid frazeologik birliklarni ilmiy-nazariy asoslash, mazkur birliklarni ma‘mo tuzilishi va lingvomadaniy jihatdan yoritish, har bir tildagi ekvivalentini aniqlash orqali yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Shuning uchun zamonaviy o‘zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar semantik, grammatik, lingvomadaniy, kognitiv va boshqa turli aspektlarda faol o‘rganilmoqda.

“Tilning frazeologik fondi lisoniy madaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti sifatida millat mentaliteti va madaniyati haqidagi qimmatli madaniy axborotlar manbai hisoblanadi. O‘rganish obyekti sifatida frazeologizmlar o‘ziga xos til birligi sanalib, ifoda va mazmun planiga ega. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik sath tor va keng doirada tushunilmoqda, turg‘un so‘z birikmalarini ifodalovchi atamalar ham turli-tuman bahsli ta‘rifga egadir”. [2;4-b.]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ma‘naviyatga oid frazeologik birliklarning tarixiy ildizlarini o‘rganish, nafaqat tilshunoslarga, balki xalqlarning madaniy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini ham anglashga yordam beradi. Mazkur frazeologik birliklar tarixan ijtimoiy hayotda ahamiyatli o‘rin tutgan va hozirgi kunda ham jamoatchilik, ma‘naviyat va shaxsiyatning muhim jihatlarini o‘zida ifoda etadi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq mazkur soha alohida tarmoq sifatida monografik tarzda yetarlicha o‘rganilmagan.

Shu sababli ushbu maqolaning yozish jarayonida tilshunos olimlarimiz Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, B.Yo‘ldoshevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari” [4], A.Mamatovning ”O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari”[5], “Ocherki po fransuzkoy frazeologicheskoy stilistike”[6]”, “English and Uzbek graduonyumic phrasemes in hyponymy” [7] kabi kitoblaridan va mavzuga oid ilmiy maqolalardan asosiy material sifatida foydalanildi.

Aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida milliy-madaniy dunyoqarashning frazeologik sathi yuzasidan olib borilgan ishlarni yetarlicha o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Bu esa xalqning ma‘naviyati, urf-odatlari, an‘analari, milliy-madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar va ularni talqin etish bilan bog‘liq murakkab jarayonlarni monografik asosda tadqiq etish zarurati mavjudligini tasdiqlaydi. Shundan kelib chiqib, ishimizda o‘zbek tilidagi ma‘naviyat va ingliz tilidagi spirituality ga oid frazeologik birliklarni, ularning har ikki tildagi umumiy va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil etish maqsad qilib qo‘yildi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O‘zbek tilidagi ma‘naviyat va ingliz tilidagi spirituality tushunchalari asosidagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi usullardan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Har bir xalq tili va madaniyatida insonning ma'naviy dunyosi alohida o'rin tutadi. O'zbek tilidagi ma'naviyat tushunchasi insonning ruhiy dunyosi, axloqiy fazilatlari va jamiyatdagi qadriyatlari majmuini bildirsa, ingliz tilidagi spirituality atamasi ham xuddi shunday – insonning ruhiy-irodaviy holati, ilohiylik va ichki ruhiy poklanishiga ishora qiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ma'naviyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “**MA'NAVIYAT** [a.–axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar] insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k. tasavvurlari va tushunchalari majmui”[8; II. 565-b].

Ma'naviyatga oid frazeologizmlar o'zining ma'nosi va ishlatilishida insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlar va an'anaviy qadriyatlarni yoritadi. Ayniqsa, ma'naviyat kabi inson ruhiyatiga taalluqli tushunchalar o'ziga xos frazeologik ifodalarga ega.

O'zbek tilidagi *ko'ngil ko'zi ochiq iborasi* – dilida yaxshilik va ezgulik bo'lgan, odamlarga mehribon ma'nosini anglatadi. O'zbek madaniyatida bu ibora tajribali va dono odamlarni tasvirlashda qo'llaniladi. O'zbek xalqida bunday odamlar, ko'pincha, yoshi ulug', hayotda ko'p narsani ko'rgan va o'z hayotiy tajribalariga asoslanib harakat qiladigan kimsalar sifatida tan olinadi. Bu ibora ham dono, ko'p narsadan xabardor odamni ulug'lash uchun ishlatiladi. Mazkur frazema o'zbek xalq og'zaki ijodida ham keng tarqalgan bo'lib, u, ko'pincha, aql-zakovat, tajriba va chuqur kuzatuvchanlikni ifodalaydi. O'zbek lingvomadaniyatida bunday til birliklari orqali insonlarning qanday bo'lishi, qanday fazilatlar ulug'lanishi kerakligi haqida tushunchalar aks ettiriladi va o'zbek xalqining hayotiy tajriba va dono qarorlar qabul qilishga katta ahamiyat berishini aks ettiradi.

Tilimiz ana shunday rang-barang ma'naviyatga oid frazeologik birliklarga boy. Ular insonning ma'naviy dunyosi, odob-axloq, ruhiy holati, vatanparvarlik, iymon-e'tiqod kabi tushunchalarni ifodalashda qo'llanadi. Masalan, *Ko'ngli nurlanmoq – xursand bo'lmoq, ma'naviy zavq olmoq* turg'un birikmasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, ustozning so'zlarini eshitib ko'nglim nurlandi. Tilimizdagi ma'naviyatga oid *yuragi yumshoq* frazeologik birikmasi rahmdil, mehribon ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Onam yuragi yumshoq inson.

Ingliz tilida mazkur ma'no *kind hearted – mehribon yurakli* frazeologik birikmasi orqali ifodalanadi. *She is a kind-hearted woman (U mehribon yurakli ayol).*

O'zbek tilida ruhiy holatini ifodalovchi til birliklari qatorida iboralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilimizda *o'zini to'g'ri tutish* turg'un birikmasi mavjud bo'lib, u odob saqlash, insofli bo'lish ma'nosini o'zida ifoda etadi. Masalan, U har qanday holatda ham o'zini to'g'ri tutar edi.

O'zbek tilida mazkur turg'un birikma ma'nosiga yaqin his-tuyg'ularini nazorat qilmoq ma'nosini *o'zini qo'lga olmoq* iborasi yordamida ham ifodalaymiz. Xalqimizning milliy-madaniy o'ziga xosliklarini ifodalovchi mazkur frazema so'zlashuv va badiiy uslubda faol qo'llanuvchi lingvomadaniy birlik sanaladi. Masalan, U noxush xabarni eshitsa ham, o'zini qo'lga oldi.

Ingliz tilida his-tuyg'ularini boshqarish ma'nosini *Pull oneself together – o'zini yig'ib olmoq, tinchlanmoq* til birligi o'zida aks ettiradi. Masalan, *After explanation, he tried himself together – tushuntishdan so'ng u o'zini yig'ib olishga harakat qildi.*

Tilimizda munosabatni butunlay uzmoq ma’nosidagi *tamomila yuz o’girmoq* frazeologik birligi qo’llanadi. Masalan, Hayotda ma’naviyatsiz odamdan yuz o’girish kerak. Ingliz tilida ham xuddi shu ma’noga yaqin *Cut (someone) off* turg’un birikmasi mavjud bo’lib, u aloqa va munosabatni butunlay uzmoq ma’nosini ifodalaydi. Masalan, *After the argument, he cut his brother off completely. Tortishuvdan keyin u akasi bilan munosabatni butunlay uzdi.*

Har ikkala tilda ham ruhiy holat, axloqiy qadriyat va ruhiy poklik tushunchasi muhim o’rin tutadi. O’zbek tillaridagi ma’naviyat va ingliz tilidagi spirituality umumiy ma’noli frazeologik birliklarni quyidagi jadval asosida ham qiyoslashimiz mumkin:

O’zbek tilidagi frazeologizm	Ingliz tilidagi ekvivalent
Ko’ngli ochiq	Open-heart
Dilini ozod tutmoq	Have a clear conscience
Ruhini yengil tutmoq	Lighten ones’s heart
Kayfiyatni ko’tarish, ruhiy yengillik hosil qilish	Lift one’s spirits
Vijdoni pok bo’lish	Have a clear conscience
Sof ko’ngilli inson	Pure in heart
Ruhiy jihatdan yaqin inson	Kindred spirit

Bu kabi frazeologik birliklar inson ruhiyatini ifodalashda ikki tilda ham asosiy semantik vazifaga ega.

Frazeologik birliklarning shakllanishida milliy mentalitet va diniy qadriyatlar ham muhim rol o’ynaydi. Masalan, ingliz tilida God-fearing man iborasi mavjud bo’lib, diniy ruhiy poklikni bildirsa, o’zbek tilida esa taqvoli inson iborasi unga ma’no jihatdan yaqin turadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations).** O’zbek va ingliz tillarida ma’naviyat va spirituality konsepsiyasi asosida shakllangan frazeologik birliklar inson ruhiyatiga, axloqiy qadriyatlariga va ruhiy poklik holatiga bevosita bog’liq. Har ikki til frazeologiyasida bu iboralar insonning ichki dunyosini ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, madaniyatlararo tarjimada bunday birliklarni semantik va konnotativ jihatdan to’g’ri talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har ikki tilda qiyos qilinayotgan frazeologik birliklar ma’lum darajada xalqning qadriyatlarini, madaniyatini, urf-odatlarini o’zida aks ettirishi bilan birga, xalqning o’tmishini va kelajagini yotitishda muhim vosita sanaladi. Ikki tildagi tahlilga tortilgan til birliklari mavzuiy va mantiqiy shakllanishi bo’yicha bir-biridan farq qilishi bilan birga ayrim umumiy jihatlarni ham ifodalaydi. Ingliz tili frazeologiyasida milliy an’analarni o’zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar bilan bir qatorda, xalqaro frazeologizmlar ham ko’p uchraydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2024. – B 65.
2. Nurmammedov Y. Frazеologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Samarqand, 2021. – B.4.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 4.
4. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент,1993. – 46 б.
5. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000. – 56 б.
6. Mamatov A.E. "English and Uzbek graduonymic phrasemes in hyponymy". Монография. The language denotes the men and culture corporatively. LAMBERT Academic Publishing, 2019.
7. Маматов, А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Ташкент: Изд. Укитувчи, 1989.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 12 жилдлик. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2-жилд. 2001. – 704 бет.



## OYDIN HOJIYEVA SHE'RLARIDA QO'LLANGAN ZOOLOGIYA TERMINLARI ASOSIDA HOSIL QILINGAN (ZOOMORF) METAFORALAR



**Mardanov Uktamjon,**  
*Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*  
*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sevimli o'zbek shoirasi Oydin Hojiyeva she'rlarida o'ziga xos tarzda mahorat bilan qo'llangan zoologiya terminlari asosida hosil qilingan (zoomorf) metaforalar atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** termin, metafora, zoomorfik metafora, antroposentrik paradigma, zoologiya terminlari, an'anaviy metafora, ko'chma ma'no, semantika.

**Kirish (Introduction)** Bugungi globallashtirish jarayonida muntazam rivojlanib boruvchi sohalardan biri terminologiya hisoblanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi turli-tuman aloqa va munosabatlarning rivojlanishida, turli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi, fan va ta'lim bilan bog'liq ilmiy bilimlar integratsiyasi, barcha sohalarda bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamining tobora kengayishi sohaviy terminologiyaning jadallik bilan boyishiga turtki bermoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)** Jahon tilshunosligida terminologiya sohasi, uning nazariy masalalari, terminosistemalarni tartibga solish, terminga qo'yilgan talablarni zamonaviy yondashuvlarga mos ravishda yoritish kabilar G.Vinokur[1], D.Lotte[2], A.Reformatskiy[3], O.Axmanova[4], V.Danilenko[5], A.Superanskayalar[6] tomonidan atroflicha o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida ham bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, S.Akobirov[7], S.Usmonov[8], R.Doniyorov[9], A.Madvaliyev[10], D.Jamoliddinova [11] kabi bir qator olimlarimizning tadqiqot ishlarida turli sohalarga tegishli terminlar u yoki bu darajada o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)** Oydin Hojiyeva she'rlarida o'ziga xos tarzda mahorat bilan qo'llangan zoologiya terminlari asosida hosil qilingan (zoomorf) metaforalar tahliliga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi usullardan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)** Bugungi kunda o'zbek tilidagi sohaviy terminlar yuzasidan antroposentrik paradigma asosida izlanish olib borish kundan kunga rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Olamning lisoniy manzarasini aks ettirishda metaforaning o'rnini antroposentrik nuqtayi nazardan yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlarning salmog'i tobora kengaymoqda. Xususan, Ustunyer Ilyasning rus va turk

tillarida zoomorf metaforaning qiyosiy tahlili [15]ga bag‘ishlangan ishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Sh.G‘ulomova ”T.Malik asarlaridagi antroposentrik metaforalar tasnifiga doir” deb nomlangan maqolasida ham metaforaning antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, abiomorfik, antroposentrik kabi turlari borligini ta’kidlaydi [13].

**ANTROPOTSENTRIK METAFORALAR.** Markazida inson turuvchi, uning ichki va tashqi sifatleri bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalar. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko‘ra, inson bilan bog‘liq bo‘lgan antropomorf, zoomorf, biomorf metaforalar antroposentrik metaforalarning turlari hisoblanadi [12].

Antroposentrik metaforalarning tilimizda faol qo‘llanadigan turlaridan biri zoomorf metafora hisoblanadi.

**ZOOMORF METAFORA** (animalistik metaforalar). Inson, narsa va hodisalarni hayvonlar, jonivor va parrandalar qiyofasi va sifatleri bilan qiyoslash orqali shakllantiriladigan metafora. Masalan: bo‘taloq, toychoq, qo‘zichoq, qulun so‘zlarining “bola”, “farzand” ma’nosida qo‘llanishi [12].

Mazkur maqolamizda, yuqoridagi tadqiqotlarga tayangan holda, sevimli shoirimiz Oydin Hojiyeva she’rlarida qo‘llangan zoologiya terminlari asosida hosil qilingan metaforalar (zoomorf metafora) ni tahlil qilishga urindik.

Quyida ijodkor she’rlarida qo‘llangan zoomorfik metaforalarni tahlilga tortamiz:

*Bundagi o‘g‘lonlarni  
Toychoq‘im de, erkam de,  
O‘g‘lim yetmagan baxtga  
Yeta olgan bo‘tam, de!*

O‘zbek tilida farzandga, yaqin qarindoshlarga nisbatan, asosan, toychoq, bo‘ta, bo‘taloq kabi metaforalar ishlatiladi. Bu an’anaviy metafora hisoblanadi. Lekin shoiraning mazkur she’rida o‘ziga xos badiiylikni yuzaga keltirgan. Mehr-muhabbatga to‘la his-tuyg‘ularini ana shu metaforalarga singdirgan.

*Xalqnikisan, yolg‘izim,  
Ko‘pqatori o‘lmagin.  
Xalq mehri tush, qo‘zim,  
Yolg‘izlanib qolmagin! (Tilak)*

Misollar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, Oydin Hojiyeva she’rlarida qo‘llangan hayvonot dunyosi bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalardan eng faoli qo‘zi so‘zi vositasida hosil qilingan. Shoir bu metaforani aksariyat hollarda farzandga nisbatan ishlatadi. Bu esa ijodkor xarakteridagi o‘zbek ayoliga xos mayinlikni, bolajonlikni ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

*Qandak o‘rik donasi bo‘lsang,  
Bo‘ylaringdan o‘rgilay o‘zim.  
Senginaning to‘yini ko‘rsam,  
Armonim yo‘q o‘shanda, qo‘zim! (Armon,37)*

yoki  
*-Jon ena-ya, qishlarda  
Muzlagan og‘och bo‘ldim!  
-Najot so‘ra bahordan*

*Qayta gullaysan, qo ‘zim! (Jon enam-a jonimdan)*

*Qo ‘rg ‘oshin tobutlar ochil-ay,  
Men isiriqdayin sochilay,*

*Qo ‘zimning anor yuzlaridan  
To ‘rt mo ‘cham sirqirab muchchilay! (Ona aytur...)*

D.Xudoyberganova matn boshlanmasida ko ‘chma ma ‘noda qo ‘llangan so ‘z birikmasi matnning keyingi jumalari semantikasiga o ‘z ta ‘sirini o ‘tkazishini, ya ‘ni takrorlangan ko ‘chma ma ‘noli birikmalar navbatdagi jumalarga ham metaforik mazmunni olib o ‘tishini ta ‘kidlar ekan, bu hodisani “semantik inversiya” deb nomlashni ma ‘qul ko ‘radi. “Semantik inversiya” metaforik mazmunning matn bo ‘ylab yoyilishini, obrazli ifodaning bir maromda saqlanib turishini ta ‘minlaydi [13]. Masalan:

*Mullolaring chiqardilar “quloqqa”,  
Bulbul ketib, boyqush chiqdi qo ‘ndoqqa,  
Oriflaring solib ming bir qiynoqqa,  
Zulm qushi bola ochur, Buxoro! (Buxoro)*

Yuqoridagi misollardan ko ‘rinib turibdiki, shoira ijodida qushlar nomi bilan bog ‘liq bo ‘lgan metaforalar ham faol qo ‘llangan bo ‘lib, ular vositasida tazod san ‘atini yuzaga chiqaradi. Bu – ikki so ‘z yoki ibora orasidagi mantiqiy munosabatni ko ‘rsatib beruvchi hamda bir-biriga zid bo ‘lgan tushuncha va tasavvurlarni uyg ‘otuvchi hodisadir. Bu xildagi ifodalar o ‘zbek tilida katta guruhni tashkil qiladi. Ularning uslubiy roli ham benihoya keng. Buni shoira qiyidagi she ‘rlarda ham ko ‘rishimiz mumkin:

*Qumrilar bo ‘ldi boyqush,  
Qo ‘zg ‘unga do ‘ndi oqqush.  
Bandga tushib Alpomish,  
Elati suruv bo ‘ldi. (O ‘tinch.)*

Shoira qiyidagi she ‘rlarda ham shunday qo ‘llanishning guvohi bo ‘lamiz:

*Bulbullar chahi-chahi to ‘lgan o ‘lkaga,  
Qor tilab yoprildi kalxat-u qarg ‘a.  
(O ‘zbekistonga faxriya)*

*Qaytar ko ‘priklar-ku yongani haq rost,  
Kim ul zimistonni sog ‘ingan zog ‘lar?*

*(O ‘zbekistonga faxriya)*

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)** Xulosa o ‘rnida aytish mumkinki, bugungi tilshunoslikning terminologik tizimida terminlar tadqiqiga doir yangicha yondashuvlarga bo ‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, badiiy tilda ko ‘proq leksik birliklarning, xususan, terminlarning lingvopoetikasiga e ‘tibor qaratilgan qator tadqiqotlar ko ‘zga tashlanmoqda. Muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, u yoki bu til sathi birliklarini qo ‘llashdagi o ‘ziga xosliklarini mufassal yoritishga bag ‘ishlangan bunday ishlar yuzaga kelayotganligi, albatta, quvonarlidir.

Tadqiqotimiz obyekti bo ‘lgan Oydin Hojiyeva she ‘rlari shoira qiyidagi ko ‘p yillik mehnati, xalq hayotini, insoniy munosabatlar, tabiatning betakror manzaralarini kuzatishi

natijasidir. Uning ijodida qoʻllangan turli sohaga oid terminlar lingvopoetikasini yoritish oldimizga qoʻygan maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Винокур Г. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 3-54.
- 2.Лотте Д. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968.
- 3.Реформатский А. Что такое термин и терминология?/ Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 46-54.
- 4.Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969.
- 5.Даниленко В. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. –М.: Наука, 1977.
- 6.Суперанская А., Подольская Н., Васильева Н. Общая терминология. Вопросы теории. – М., Наука, 1989.
- 7.Акобиров – С. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968; Терминология ишининг мазмуни ва вазифалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1964. – № 3. – Б. 31-38.
- 8.Усмонов – С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.
- 9.Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
- 10.Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
11. Жамолдинова Д.М. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филология фанлари доктори (DSc) дисс... автореферати. – Тошкент, 2021.
- 12 Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – - Toshkent-2024. –В 12.
13. Гуломова Ш. Тоҳир Малик асарларидаги антропоцентрик метафоралар таснифига доир / Lison ilmining chin yalovbardori. Prof.H.Gʻ. Neʻmatovning 75 yilligiga bagʻishlangan ilmiy konf. mater. – Toshkent: "Navroz", 2017. – В. 218.
- 14..Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar// O`zbek tili va adabiyoti.-T.,2012, 1-son. 37-b.
- 15.Ильяс Устуньер. Зоомофная метафора, характеризующая человека, в русском и турецком языках: Автореф. дисс. канд. филол. Наук.– Екатеринбург,2004.



## ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI



**Hulkar Niyozova**

*Navoiy davlat universiteti doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Zebo Mirzo she'riyatida o'xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoiraning badiiy tafakkurida o'xshatishlar obrazli ifoda, estetik tafakkur va ruhiy holatlarni yetkazish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Maqolada to'g'ridan-to'g'ri va yashirin o'xshatishlarning poetik vazifasi, ularning morfologik shakllari va semantik xususiyatlari Zebo Mirzo she'riyati asosida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, lingvopoetika, poetik obraz, metafora, ruhiy holat, ayol poetikasi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются лингвопоэтические особенности сравнений в поэзии Зебо Мирзо. Сравнения анализируются как важнейшее средство художественной выразительности, играющее роль в передаче эмоционального и психологического состояния лирического героя.

**Ключевые слова:** сравнение, лингвопоэтика, поэтический образ, метафора, душевное состояние, женская поэтика.

**Annotation:** This article examines the linguopoetic features of similes in the poetry of Zebo Mirzo. The analysis highlights similes as a vital means of artistic expression, representing the emotional and psychological state of the lyrical subject. Special focus is given to both explicit and implicit similes, their structural and semantic functions.

**Keywords:** simile, linguopoetics, poetic image, metaphor, state of mind, female poetics.

### **Kirish.**

Adabiyotshunoslik va lingvopoetik tahlil sohalarida badiiy tilning obrazli vositalari, xususan o'xshatishlar tili va poetik tafakkurning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida ko'riladi. O'xshatishlar nafaqat estetik bezak, balki muallifning ichki dunyosi, ruhiy holati va badiiy dunyoqarashining til vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Zebo Mirzo ijodi bu jihatdan alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda o'xshatishlar insoniy tuyg'ularni teranlik bilan ifodalashda asosiy badiiy vositadir.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida o'xshatishlar poetik tafakkurning muhim badiiy vositasi sifatida keng o'rganilgan. Xususan, lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, o'xshatishlar obraz yaratish, semantik struktura hosil qilish va lirik "men"ning ruhiy holatini ifodalashda markaziy vosita hisoblanadi. O'xshatish san'ati badiiy tilshunoslik va stilistika yo'nalishlarida hamisha dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. O'zbek va jahon tilshunosligi, adabiyotshunosligi doirasida o'xshatishlarga oid bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Prof. N.Mahmudov asosli ta'kidlaganidek, "O'xshatishlar insonlarning obrazli tafakkur tarsi mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha

badiiy-estetik qimmatga molik bo'radi, nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi"<sup>43</sup>. O'xshatishni hosil qilishda ma'lum unsurlardan foydalaniladi. Ammo shu unsurlarning qo'llanishi bo'yicha olimlarning fikrlari mavjud. Ma'rufjon Yo'ldoshev o'zining “Badiiy matnning lisoniy tahlili” kitobida quyidagicha yozadi: “Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakily ko'rsatkichlari”.<sup>44</sup> O'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: kabi, singari, go'yo, xuddi, misli, misoli, bamisli ko'makchilari hisoblanadi. -day (-dek), -simon, ona -larcha va boshqa ko'pgina qo'shimchalar o'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir. O'xshatishlardagi nutqiy obrazlikni oshiruvchi asosiy xususiyat favqulotda o'xshatilishdir. J. Lapasov esa o'zining “Badiiy matn va lisoniy tahlil” qo'llanmasida esa o'xshatish uchun uch unsur ishtirok etishini aytib, ular 1) o'xshatilgan shaxs yoki unsur; 2) o'xshatish asosi; 3) o'xshatish vositasi<sup>45</sup> deb ta'kidlaydi. Professor N. G'aniyeva o'zining “She'riy nutq poetikasi” nomli tadqiqotida o'xshatishning milliy poetik tafakkurdagi rolini shunday belgilaydi: “O'xshatishlar o'zbek she'riy tilida nafaqat tasviriylik, balki badiiy tafakkurning psixologik rangini belgilovchi vositadir”<sup>46</sup>. Zebo Mirzo ijodi to'g'ridan to'g'ri o'xshatish masalasida alohida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, uning umumiy poetikasini tahlil qilgan adabiyotlarda o'xshatmalar tili va obrazlar tizimi bevosita yoki bilvosita o'rganilgan. Masalan, S. Umarovanning “Zamonaviy o'zbek she'riyatida poetikasi” asarida quyidagicha fikr bildiriladi: “Zebo Mirzo she'riyatida o'xshatishlar asosan ayol kechinmalarining obrazli shaklidir. Bu o'xshatishlar soddaligi bilan emas, balki ruhiy murakkablikni yoritishi bilan e'tiborni tortadi”<sup>47</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Zebo Mirzo she'riyatida o'xshatishlarning badiiy-funksional imkoniyatlarini aniqlash va ularning poetik nutqdagi rolini tahlil qilish maqsadida lingvopoetik tahlil, struktur-semantik yondashuv, psixolingvistik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Qolaversa, Zebo Mirzo she'riyatida o'xshatishlar — bu nafaqat poetik bezak, balki ichki kechinma, psixologik ziddiyat, estetik yondashuv va badiiy nutqning lingvopoetik markazidir.

### **Tahlil va natijalar.**

Zebo Mirzo ijodidagi o'xshatishlar bevosita tashqi ko'rinish, rang yoki holatni taqqoslash bilan cheklanmay, balki insonning ruhiy, hissiy kechinmalarini obrazli vosita orqali yetkazish vazifasini bajaradi. Shoira klassik va an'anaviy o'xshatish shakllarini emas, balki o'ziga xos psixologik poetika asosidagi o'xshatishlarni keltiradi. Masalan,

*Sukut — muzday ko'rpacha singari,  
Qoplagan yurakni yolg'izlikda. (“Sukunat”)*<sup>48</sup>

<sup>43</sup> Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so'z, 2017.

<sup>44</sup> Ma'ruf Yo'ldoshev. “Badiiy matn lingvopoetikasi”

<sup>45</sup> J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi.

<sup>46</sup> G'aniyeva N., “She'riy nutq poetikasi” 2009, 84-b.

<sup>47</sup> S. Umarovanning “Zamonaviy o'zbek she'riyatida poetikasi” ., 2016, 67-b.

<sup>48</sup> Zebo Mirzo “Ishq”. – Toshkent: Akademiya, 2011.

Misrada “sukut” (jimlik) “muzday ko‘rpacha”ga qiyoslanadi. Muzday ko‘rpacha — sovuqlik, yolg‘izlik ramzi. Shoira jimlikni nafaqat tashqi holat, balki ichki ruhiy sovuqlik, ayolning yuragidagi muzlash, befarqlik va umidsizlik timsoli sifatida ifodalaydi. Bu o‘xshatish orqali jimlikning hissiy og‘irligi va inson ruhiyatidagi sovuqlik seziladi. Shu bilan birga, bu o‘xshatish ayol ruhining o‘ziga xos ichki dunyosini ochib beradi, jimlikni haqiqiy insoniy iztirob sifatida ko‘rsatadi.

Zebo Mirzo she‘rlarida o‘xshatishlar ikki asosiy tipda namoyon bo‘ladi:

1. *To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshatishlar*: "dek", "kabidir", "singari", "xuddi" kabi ko‘makchi so‘zlar orqali amalga oshadi.

*Sog‘inchlarim xuddi yaproqlardek,  
Bir-bir to‘kilar tun bag‘riga. (“Sog‘inch”)*

Shoira ushbu misrada to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘xshatishlardan foydalangan holda, she‘r mazmunini ham o‘ta noziklik bilan ifodalaydi. Jumladan, sog‘inchlar yaproqqa, tun esa bag‘irga taqqoslangan. *Yaproqlarning to‘kilib ketishi* – vaqt o‘tishi bilan sog‘inchning asta-asta susayishi yoki ichki ravishda ichga singib ketishi ramzi. *“Tun bag‘ri”* esa chuqur yakkalik, tushkunlikni anglatadi. Bu o‘xshatish orqali sog‘inch tabiiy holat sifatida ko‘rsatiladi, lekin uning davomiyligi va chuqurligi ham ifodalanadi. Shoira bu tasvirlar orqali o‘quvchida chuqur hissiyot uyg‘otadi.

2. *Yashirin o‘xshatishlar* (metaforik o‘xshatishlar): vositalar yo‘q, lekin taqqoslash mavjud.

*Men yuragimda yomg‘irni yashiraman,  
So‘zim quyoshli bo‘lsin deb... (“Yurak”)*

Ushbu misolda yomg‘ir – ichki og‘riq, so‘zdagi quyosh – tashqi xotirjamlik ramzidir. Bu yashirin o‘xshatishda ayolning ichki ziddiyatli holati kuchli metaforik tarzda berilgan. *“Yuragim — telba qushdek urilar devorlarga”*. Ushbu misrada yurak “telba qush”ga o‘xshatilgan. “Telba qush” — azoblangan, erkinlikka intilayotgan jonli mavjudot. “Devorlar” esa to‘siqlar, insoniy jamiyat yoki o‘z-o‘ziga qo‘yilgan cheklovlar ramzi sifatida ishlatilgan. Shu tariqa, o‘xshatish yurakdagi ichki iztirobni faol va dinamik obraz orqali tasvirlaydi. Shoira yurakning ichki urushini, ozodlikka bo‘lgan intilishini o‘quvchiga jonli va sezgir ta‘sir bilan yetkazadi.

*Ko‘zimdagi so‘nmas yulduz kabi,  
Bir sevgi so‘ndirmas, goho,  
Yuragimda olov kabi o‘tlar,  
Tunlarimni yondirar jonimda. (“Hechqisi yo‘q, yashab ketaman...”)*

“Ko‘zimdagi so‘nmas yulduz kabi” bu yerda ko‘z ichidagi “yulduz” – hayotiy umid, nur va istiqbol ramzidir. “So‘nmas” sifatida esa umidning doimiyligi, o‘chmasligi ta‘kidlanadi. Bu o‘xshatish to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yorqin poetik obraz yaratadi. Shoira o‘quvchiga ko‘zlarni faqat ko‘rish organi sifatida emas, balki ruhiy yorug‘lik manbai sifatida ko‘rsatadi. “Yulduz kabi” taqqoslash umid va sevgining doimiyligini mustahkamlaydi.

Zebo Mirzo o‘xshatishlar orqali o‘zining ayol lirikasi, ichki azoblar, ona muhabbati, sadoqat kabi mavzularni poetik ifodalaydi. O‘xshatishlar orqali u o‘z “men”ining turfa yo‘nalishdagi kechinmalarini tabiat, ob-havo mavsumlar obrazlari bilan uyg‘unlashtiradi. U bir she‘rida:

Ayol — bahor, ammo doim izg‘irinli...deya ta‘riflaydi.

Misrada ayol obrazining go‘zalligi va azobli holati “bahor” va “izg‘irin” kabi qarama-qarshi so‘zlar vositasida tasvirlanadi.. Bu esa Zebo Mirzo poetikasining kontrastli o‘xshatishlar orqali tuyg‘ular ziddiyatini mohirona ifodalay olishini ko‘rsatadi. Uning she‘riyatida bu kabi o‘xshatishlarni har bir satrda uchratish mumkin. Zero, Zebo Mirzo she‘riyatini tahlil etish va o‘rganish kelajak yosh avlodning zimmasidagi mas‘uliyatdir.

### **Xulosa va takliflar.**

Zebo Mirzo she‘riyatida o‘xshatishlar poetik fikrning asosiy semantik va estetik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali shoiraning ruhiy kechinmalari, hissiy murakkabliklari va falsafiy mulohazalari ifodalanadi. O‘xshatishlar poetik tuyg‘ularni vizual va intuitiv ravishda o‘quvchiga yetkazadi. Bu jihatlar Zebo Mirzoning lingvopoetik tafakkuridagi yangilanishlarni ko‘rsatadi. Zebo Mirzo she‘riyati o‘xshatishlar orqali nafaqat tabiiy tasvirlarni yaratadi, balki inson ruhining murakkab, ko‘p qirrali kechinmalarini chuqurroq anglatadi. Uning o‘xshatishlarida tabiiylik va psixologik obrazlar birlashib, o‘quvchini lirik sub‘ektning ichki olamiga chuqurroq kirishga chorlaydi. Shu sababli uning poetik tili lingvopoetikaning mukammal namunasi sifatida qadrlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Zebo Mirzo “Ishq”. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
2. G‘aniyeva N. She‘riy nutq poetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Rasulov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2018.
4. Umarova S. Zamonaviy o‘zbek she‘riyati poetikasi. – Samarqand, 2016.
5. Yuldasheva Z. Metafora va o‘xshatishning poetik tabiati. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, №4.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so‘z, 2017.
7. Ma‘ruf Yo‘ldoshev. “Badiiy matn lingvopoetikasi”
8. J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI  
ELEKTRON JURNALI**

**№ 3 (2),  
2025-yil, AVGUST**

**O‘zbekcha matn muharriri:**

**Ruscha matn muharriri:**

**Inglizcha matn muharriri:**

**Musahhih:**

**Texnik muharrir:**

Sharopova Ra‘no Jaxonovna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra‘no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL  
VA TALQIN ILMIY-METODIK  
JURNALI  
3-jild, 2-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL  
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI  
CENTURY  
VOLUME 2, ISSUE 3**

**Tahririyat bilan bog'lanish:**

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy  
Web-site: <http://sciencejournals.uz>  
Tel: +998(97) 378 - 34 -45

**Editorial staff of the journal:**

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city  
Web-site: <http://sciencejournals.uz>  
Tel: +998(97) 378 - 34 -45